Sun’iy intellekt algoritmlari o‘zgarishlarga va xatoliklarga olib kelishi mumkin. Ba’zida diagnoz xatolariga olib kelishi yoki to‘g‘ri davolash rejalarini tuzishda xatolar paydo bo‘lishi mumkinligi aniqlanadi. Sun’iy intellekt tibbiyotda konsultatsiyalar va tashxis yordamchiligi uchun ishlatiladi, lekin bu boshqaruv va odamlar bilan aloqada tushunishni o‘z ichiga olmaydi, insoniyat singari erkin fikr bildiraolmaydi. Sun’iy intellekt tibbiyotda foydalanilishi qonuniy va etik muammolarga olib keladi. Bu kamchiliklar bilan birga, sun’iy intellekt tibbiyotda integratsiya bo‘lishi va ishlatilishi uchun qonuniy, axborot xavfsizligi, va insoniyatga qarshi xavotirlarni bartaraf etish lozim.[6]

Sun’iy intellektdan foydalanish tibbiyotga qo‘shimcha yangliklar kiritish uchun quyidagi yo‘llar ochishi mumkin. Yangi va yuqori sifatli sun’iy intellekt ilovalar va platformalar yaratish. Bu ilovalar, klinik tashxis, davolash rejalarini tuzish, va ma’lumotlarni tahlil qilishda yuqori samarali texnologiyalarni taqdim etishga yordam beradi. Sun’iy intellekt tibbiyotning barcha sohalarida qo‘llaniladi, masalan, radiologiya, patologiya, kardiologiya, va boshqa h.k. Yangi sun’iy intellekt ilovalari va qo‘llanmalar bu sohalarda foydalanishga mo‘ljallangan, uni texnologik ravishda yaxshilaydi. Sun’iy intellekt, foydalanuvchilar bilan interaktiv tarzda aloqani yaxshilaydi va shaxsiy ta’limlarni taqdim etishda yordam beradi. Bu tibbiy xodimlar uchun ma’lumotlar bazasini o‘rganishni va yangilashni osonlashtiradi. Sun’iy intellekt tibbiyotning rivojlanishini davom ettirish va tibbiyot sohasidagi muammolarga yechim topishda yordam beradi. Bu esa klinik tashxis va davolashning samaraliroq, yaxshi natijalar olishini ta’minlaydi.

Radiologiya tibbiyotning eng murakkab yo‘nalishlaridan biridir. Shifokorlar ko‘pincha rentgen, MRT yoki UZI tasvirlarini tahlil qilishda inson omili sababli xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Sun’iy intellekt esa tasvirlarni yuqori aniqlikda qayta ishlash orqali xatolarni kamaytiradi. Ayniqsa, o‘pka saratoni, ko‘krak bezi saratoni, diabetik retinopatiya va boshqa kasalliklarni erta bosqichda aniqlashda katta samaradorlik ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda turli xil smart-soatlar, fitnes-trekerlar va IT qurilmalari bemorning yurak urish tezligi, qon bosimi, qondagi glyukoza miqdori kabi ko‘rsatkichlarni kuzatadi. Ushbu ma’lumotlarni

sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish orqali xavfli kasalliklar oldindan aniqlanishi mumkin. Masalan, yurak xurujidan oldingi belgilar aniqlansa, tizim bemor va shifokorni darhol ogohlantiradi.[7]

Sun’iy intellektning kasalliklarni erta aniqlashdagi afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Kasalliklarni dastlabki bosqichda aniqlash orqali davolash samaradorligini oshirish.
- Diagnostik jarayondagi inson omili sababli yuzaga keladigan xatolarni kamaytirish.
- Shifokorlarning vaqtini tejash va ularga qaror qabul qilishda yordam berish.
- Tibbiy xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini ta’minlash.
- Bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va kasalliklarning og‘ir oqibatlarini oldini olish.

Sun’iy intellekt tibbiyotda juda katta imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq muammolar ham mavjud:

- Katta hajmdagi sifatli va aniq ma’lumotlar bazasiga ehtiyoj yuqori.
- Bemorlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va maxfiylikni ta’minlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.
- Sun’iy intellekt tizimlari qimmat bo‘lib, ularni joriy etish katta mablag‘ talab qiladi.
- Shifokorlarning tajribasini to‘liq almashtira olmaydi, faqat yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Xorijiy davlatlarda sun’iy intellekt yordamida kasalliklarni erta aniqlash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Masalan, AQShda ishlab chiqilgan maxsus algoritmlar ko‘krak bezi saratonini aniqlashda radiologlardan ham yuqori natijalarga erishgan. Shuningdek, Buyuk Britaniya va Germaniyada yurak-qon tomir kasalliklarini bashorat qilishda sun’iy intellektdan keng foydalanilmoqda.

Xulosa. O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimida ham informatika va sun’iy intellektdan foydalanish bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda. Elektron tibbiy kartalar yaratish, telemeditsina xizmatlarini rivojlantirish va laboratoriya natijalarini avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash bu jarayonning muhim bosqichlaridan hisoblanadi.

Sun’iy intellekt yordamida kasalliklarni aniqlash tibbiyot sohasida katta ahamiyatga ega. Bu texnologiya inson hayotini saqlab qolish, davolash samaradorligini oshirish va sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy samaradorligini ta’minlash imkonini beradi. Kelajakda sun’iy intellekt tibbiy xizmatlarning ajralmas qismiga aylanib, shifokorlarning ishonchli yordamchisiga aylanishi kutilmoqda.

Biotibbiyot, biologik vositalarning va biotexnologiyalarining tibbiyotga ilmiy, klinik va sohaviy ko‘rsatkichlarni rivojlantirish uchun qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lgan soha. Biotibbiyotning birinchi masalalari genomika va genetikadir. Bu sohada genetik ma’lumotlar va genomik modellarni qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy davolash rejalarini tuzish, va genetik modellarga asoslangan yangi terapevtik yondashuvlar yaratish muhimdir.

Biotibbiyot tashxis jarayonlarida biomarkerlar va biologik alomatlar asosida klinik tashxis va prognostika rejalarini yaxshilash bilan shug‘ullanadi. Bu kasallikning rivojlanishini oldini olish, davolash natijalarini baho qilish va shaxsiy davolash rejalarini tuzishga imkon beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suniy intellekt asoslari S Kamolov, Sh Raxmatov, 2023 yil
2. Esteva A., et al. “Dermatologist-level classification of skin cancer with deep neural networks.” Nature, 2017.
3. Topol E. J. “High-performance medicine: the convergence of human and artificial intelligence.” Nature Medicine, 2019.
4. Jiang F., et al. “Artificial intelligence in healthcare: past, present and future.” Stroke and Vascular Neurology, 2017.

5. Nanotexnalogiya va Biotexnaogiya asoslari Q.Qohqatov va F.M.Toxtaboyeva, 2016 yil.
6. Yu K.H., Beam A.L., Kohane I.S. “Artificial intelligence in healthcare.” Nature Biomedical Engineering, 2018.
7. Sun‘iy intelekt va ekspert tizimlar. J.Raxmonqulov.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

MENOPAUZA VA POSTMENOPAUZA DAVRLARIDA AYOLLAR YO‘G‘ON ICHAK ME’YORIY MIKROFLORASI HOLATI

Urazmetova N.Sh., Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasida yashovchi turli yoshdagi ya’ni menopauza va postmenapauza davrlaridagi ayollar yo’g’on ichak me’yoriy mikroflorasi holatida yashovchi mikroorganizmlar tavsifi berib o’tilgan.

Kalit so’zlar: menopauza, postmenopauza, yo’g’on ichak, me’yoriy mikroflora, mikroorganizmlar, *Clostridium, Lactobacillus, Bacteroides, Bifidobacterium, Eschericia coli, Enterococcus.*

Аннотация. В данной статье представлено описание микроорганизмов, обитающих в нормальной микрофлоре толстой кишки у женщин разного возраста, проживающих в Хорезмском оазисе, в частности в периоды менопаузы и постменопаузы.

Ключевые слова: менопауза, постменопауза, толстая кишка, нормальная микрофлора, микроорганизмы, *Clostridium, Lactobacillus, Bacteroides, Bifidobacterium, Escherichia coli, Enterococcus*.

Abstract. This article provides a description of the microorganisms residing in the normal gut microflora of women of different ages living in the Khorezm oasis, particularly during the menopausal and postmenopausal periods.

Keywords: menopause, postmenopause, large intestine, normal microflora, microorganisms, *Clostridium, Lactobacillus, Bacteroides, Bifidobacterium, Escherichia coli, Enterococcus*.

Kirish

So‘nggi yillarda inson tanasining to‘rt asosiy biotopida — oshqozon-ichak traktida, yuqori nafas yo‘llarida, siydik yo‘llarida va terida joylashgan normativ mikroflora holatidagi o‘zgarishlarni aniqlash dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Turli tashqi va ichki omillar ta’sirida yo‘g‘on ichak me’yoriy mikroflorasining buzilishi yuzaga keladi, bu jarayon ichak disbiozi deb nomlanadi. Ichak disbiozi ichakdagi indigen va fakultativ mikrofloraning sifat va miqdor jihatidan muvozanatining buzilishi bilan tavsiflanadi.

Yo‘g‘on ichak mikroflorasi inson organizmida metabolizm jarayonlarida ishtirok etadi, infektsiyalarga qarshi himoya vazifasini bajaradi hamda immun tizimining modulyatsiyasida muhim rol o‘ynaydi. Mikrobiotaning muvozanatini buzuvchi omillar orasida fizik, kimyoviy va biologik ta’sirlar mavjud.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti insonlarning sog‘lom va uzoq umr ko‘rishini ta’minlash maqsadida qarish va salomatlik bo‘yicha global strategiya ishlab chiqqan. So‘nggi yarm asrda ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi sezilarli darajada oshdi va hozirda ko‘pgina Yevropa mamlakatlarida taxminan 78-86 yoshni tashkil etadi. Bu esa ayollarning hayotining katta qismini menopauza davrida o‘tkazishiga olib keladi. Menopauza davrida estrogen yetishmovchiligi natijasida bir qator belgilar va kasalliklarning rivojlanish xavfi ortadi.

Mikrobiotaning shakllanishida va muvozanatida eng muhim omillardan biri jinsiy gormonlar o‘zgarishidir. Ayollarda hayot davomida bir nechta fiziologik, metabolik va immunologik o‘zgarishlar kuzatiladi. Ularning eng muhim ikki bosqichi — 10-15 yoshdagi o‘smirlik davrida birinchi hayz ko‘rish va 45-55 yoshdagi menopauza davridir. Menopauza davrida ayollarda tuxumdonlarning funksiyasi pasayib, reproduktiv faoliyat to‘xtaydi, bu esa gipotalamus-gipofiz-tuxumdon o‘qi faoliyatining kamayishi bilan bog‘liq.

Ichak mikrobiotasi qondagi estrogen almashinuviga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ichak bakteriyalari tomonidan ishlab chiqariladigan β-glukuronidaza fermenti estrogenlarni faol shaklga

aylantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon estrogenlarning organizmdagi muvozanatini saqlash va metabolizmini tartibga solishda yordam beradi. Shuning uchun menopauza va postmenopauza davrlarida estrogen darajasining pasayishi ichak mikroflorasining tuzilishi va funksiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, menopauza davrida ayollarning yo‘g‘on ichak mikroflorasi tarkibida fakultativ patogen va oportunistik mikroorganizmlarning ko‘payishi, foydali bakteriyalar — bifidobakteriyalar va laktofloralar sonining kamayishi kuzatiladi. Bu holat immunitet zaiflashuvi, ichak shilliq qavatining himoya funktsiyasining susayishi va ichak disbiozi rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, mikrobiotadagi o‘zgarishlar estrogen darajasining pasayishi bilan uyg‘unlashib, metabolik va endokrin tizimlar faoliyatida yana ham murakkab o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Natijada, menopauza va postmenopauza davrlarida yo‘g‘on ichak me’yoriy mikroflorasining holatini yaxshilash uchun probiotiklar, prebiotiklar va parhez terapiyasini qo‘llash dolzarb hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar ichak mikrobiotasining muvozanatini tiklash, immun tizimini mustahkamlash va estrogen metabolizmini normallashtirishga yordam beradi.

Tadqiqotning obyekti va usullari. Tadqiqotning obyekti sifatida 36-49, 50-60 va 61-74 yoshli menopauzagacha, menopauza va postmenopauza davrida bo‘lgan 120 nafar ayollar olinadi. Tadqiqotning predmeti sifatida yo‘g‘on ichakdan najas olinadi. Bajarilishi rejalashtirilgan tadqiqotni amalga oshirish uchun bakteriologik, bakterioskopik, mikologik va statistik usullardan foydalaniladi.

Menopauzagacha 36-49 yoshli, menopauza 50-60 yoshli va postmenopauza 61-74 yoshli ayollar biotopi ya’ni yo‘g‘on ichak me’yoriy mikroflorasini o‘rganiladi, natijalar qiyosiy tahlil qilinadi, mikroflora o‘zgarishlari baholanadi, shunga asoslanib o‘zgarishlar darajasi ko‘rsatiladi. Menopauzagacha va postmenopauza davrida ayollar yo‘g‘on ichak mikroflorasi holatining qiyosiy tavsifi hamda ular orasidagi sabab oqibatli bog‘liqliklarni aniqlash va baholab chiqish. Menopauzagacha va postmenopauza davrida ayollar yo‘g‘on ichak mikrobiyotsenozining o‘zgarishlarini biokorrektsiya qilish.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Yo‘g‘on ichak mikroflorasi va uning funksiyasi sog‘lom ayolda yo‘g‘on ichak mikroflorasi murakkab va muvozanatli ekotizim bo‘lib, asosan quyidagi bakterial turlar ustunlik qiladi: *Bacteroides*, *Firmicutes* (jumladan *Lactobacillus*, *Clostridium*, *Ruminococcus*), *Actinobacteria* (ayniqsa *Bifidobacterium*) va *Proteobacteria*. Ushbu mikroorganizmlar hazm jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi, immunitetni modulyatsiya qiladi, patogenlarga qarshi kurashadi va foydali metabolitlar masalan, qisqa zanjirli yog‘ kislotalari (SCFA, ayniqsa butirat) ishlab chiqaradi. Ilmiy-tadqiqot ishi natijalari ilmiy maqolalar, tezislar sifatida respublika va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etiladi. Foydali modelga patent, uslubiy tavsiyanoma, EHM uchun dasturlar rasmiylashtiriladi va tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy konferensiya, kongress, simpoziumlarda ma’ruza qilinadi. Ilmiy-tadqiqot ishi natijalari asosida o‘quv, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar shakllantirilib, respublika oliy tibbiy ta’lim muassasalari (diplomgacha va diplomdan keyingi) mazkur yo‘nalishdagi kafedralari o‘quv jarayonida foydalaniladi hamda talabalar mustaqil ishlarini bajarishlari uchun yangi manba sifatida tavsiya etiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, menopauza va postmenopauza davrlarida ayollar yo‘g‘on ichagi me’yoriy mikroflorasi tarkibida disbiotik holatlar kuzatiladi. Xususan, obligat anaerob bakteriyalar, jumladan *Bifidobacterium spp. Lactobacillus spp.* populyatsiyasining kamayishi, hamda fakultativ anaerob va shartli-patogen mikroorganizmlar *Escherichia coli*, *Clostridium spp.* va *Enterococcus spp.* ning nisbiy ko‘payishi aniqlangan. Bu o‘zgarishlar mikrobiotsenozning stabilligini buzib, ichakning kolonizatsion rezistentligi va metabolik faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mikrobiotsenozni saqlab qolish va tiklash uchun probiotik preparatlar foydalanish dolzarb sanaladi.

\

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Eurasian journal of medical and natural sciences. -16-22, 2023-yil. 10.5281/zenodo.8005551. Karimova M.A., Urazmetova N.Sh., Sadullaev O.Q., Zakirov Sh.Yu..

2. International scientific journal science and innovation . -1630-1634, 2023-yil. /10.5281/zenodo/8365595 1. Уразметова Н.Ш., Усманов У.У., Шегай О.А.

3. Инфекция, иммунитет и фармакология. -120-126, 2023-yil. Issn 2181-5534 Каримова М.А., Садуллаев О.К., Уразметова Н.Ш..

4. Проблемы биологии и медицины. -105-111, 2023-yil. 10.38096/2181-56742023.3.1 Karimova M.A., Samandarova B.S., Urazmetova N.Sh..

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

ZIDDIYATLAR VA ULARNI HAL QILISH

Matyakubov Og’abek Rahimberganovich,Toshkent Tibbiyot Instituti,Urganch,O’zbekiston

Annotatsiya (UZ)

Sog‘liqni saqlash tashkilotlarida ziddiyatlar resurs tanqisligi, kasbiy rollarning tutashishi, ierarxik boshqaruv, tez o‘zgarayotgan raqamli muhit va yuqori emotsional yuklamalar kesishgan nuqtada yuzaga keladi. Ushbu maqola sog‘liqni saqlash menejmentida ziddiyatla rning manbalari va turlari (shaxsiy, shaxslararo, guruhlararo; vazifaviy, qadriyatga oid, jarayoniy)ni tizimli tahlil qiladi hamda ularni boshqarishning amaliy yondashuvlarini taklif etadi: erta aniqlash indikatorlari, manfaatga yo‘naltirilgan muzokara, vositachilik (mediasiya), “Just Culture” tamoyillari, de-eskalatsiya protokollari, klinik debrifing va etik komissiyalar bilan integratsiya. Raqamli transformatsiya sharoitida (EHR/EMR, telemeditsina, navbatchilikni rejalash algoritmlari, AI-ga asoslangan qaror qo‘llab-quvvatlash) paydo bo‘ladigan yangi ziddiyat o‘choqlari uchun shaffoflik, adolat, izohlanuvchanlik va benefisentlik mezonlariga asoslangan boshqaruv modeli taklif etiladi. Uch realistik holat bo‘yicha qisqa keystadilar, 90 kunlik joriy etish yo‘l xaritasi va mezonlar to‘plami (SLA bo‘yicha “time-to-resolution”, shikoyatlar koeffitsiyenti, eNPS, HCAHPSga o‘xshash qoniqish indekslari) beriladi. Natijada menejerlar uchun amaliy, o‘lchanadigan va emotsional farovonlikni qo‘llab-quvvatlovchi konflikt-boshqaruv ekotizimini yaratish bo‘yicha yo‘riqnoma taqdim etiladi.Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash menejmenti; ziddiyatlarni boshqarish; mediasiya; Just Culture; telemeditsina; raqamli transformatsiya; bemor xavfsizligi

Abstract (EN)

Conflicts in healthcare organizations arise at the intersection of resource scarcity, overlapping professional roles, hierarchical governance, rapid digital change, and high emotional load. This paper analyzes sources and types of conflicts (intrapersonal, interpersonal, intergroup; task, value, process) and proposes practical management approaches: early warning indicators, interest-based negotiation, mediation, Just Culture, de-escalation protocols, clinical debriefings, and integration with ethics committees. For conflicts triggered by digital transformation (EHR/EMR, telemedicine, shift-scheduling algorithms, AI-driven decision support), we outline a governance model grounded in transparency, fairness, explainability, and beneficence. Three concise case studies, a 90-day implementation roadmap, and KPIs (time-to-resolution, complaint rate, eNPS, patient satisfaction indices akin to HCAHPS) are provided. The result is a practical, measurable, and psychologically safe conflict-management ecosystem for healthcare managers.Keywords: healthcare management; conflict resolution; mediation; Just Culture; telemedicine; digital transformation; patient safety

Аннотация (RU)

Конфликты в медорганизациях возникают на стыке дефицита ресурсов, пересечения профессиональных ролей, иерархии управления, быстрой цифровой трансформации и высокой эмоциональной нагрузки. В статье систематизируются источники и типы конфликтов (внутриличностные, межличностные, межгрупповые; по задаче, ценностные, процессные) и предлагаются практические подходы: ранние индикаторы, переговоры на основе интересов, медиация, принципы «Just Culture», протоколы деэскалации, клинический дебрифинг и работа этических комитетов. Для цифровых причин (EHR/EMR, телемедицина, алгоритмы графиков, ИИ-поддержка решений) предлагается модель управления, основанная на прозрачности, справедливости, объяснимости и благотворности. Приводятся три кейса, «дорожная карта» внедрения на 90 дней и KPI.Ключевые слова: менеджмент здравоохранения; урегулирование конфликтов; медиация; Just Culture; телемедицина; цифровая трансформация; безопасность пациента

1.Kirish

Sog‘liqni saqlash tizimi – yuqori barqarorlik talab qiladigan, biroq kuchli stress va noaniqlik sharoitida ishlaydigan murakkab sotsiotsiotexnik tizim. Bunda ziddiyatlar nafaqat “normal” holat, balki o‘sish, innovatsiya va xavfsizlikka eltuvchi signaldir. Ammo boshqarilmagan ziddiyatlar bemor xavfsizligi, personal ruhiyati, jarayon samaradorligi va reputatsiyaga bevosita zarar yetkazadi. Ushbu maqola menejerlar va bo‘lim rahbarlari uchun ziddiyatlarni anglash → oldini olish → boshqarish → o‘lchash zanjiri bo‘yicha aniq va ijro etiladigan usullarni taqdim etadi.

2. Ziddiyatlarning manbalari va turlari

2.1. Manbalar:Resurs tanqisligi: ko‘rsatkichlar (yotoq o‘rinlari, sarf materiallari, IT quvvatlari) yetishmovchiligi.Rollar va chegaralar chalkashuvi: shifokor–hamshira–administrator–IT–farmatsiya o‘rtasida vakolatlarning kesishishi.Ierarxik madaniyat: yuqori buyruqbozlik muloqotni yopadi, fikr bildirish xavfsizligi pasayadi.Raqamli transformatsiya: EHR/EMR joriyoti, navbatchilikni rejalash algoritmi “adolat”i, AI tavsiyalari tushunarsizligi.Etik dilemmalar: resurslarni taqsimlash, xabardor rozilik, xavf–foyda kompromisslari.Yuqori emotsional fon: yo‘qotish, kutilmagan asorat, shoshilinch yordam dinamikasi.

2.2. Turlar (ishonchli taksonomiya):Struktural daraja: tizim dizayni, siyosat va jarayonlardan kelib chiquvchi.Shaxsiy va jamoaviy daraja: intrapersonal, interpersonal, interguruh.Mavzuga ko‘ra: vazifaviy (maqsad/vazifada farq), jarayoniy (kim, qanday, qachon), qadriyatga oid (tamoyil va ishonchlar to‘qnashuvi).

2.3. Oqibatlar:Bemor xavfsizligi indikatorlarida yomonlashuv; xatolarni yashirish.Kadrlar almashinuvi, kuyish (burnout), motivatsiya pasayishi.Huquqiy xavflar, jamoatchilik ishonchi pasayishi.

3. Ziddiyatlarni erta aniqlash indikatorlari

Proksimal signal: hisobotlar sonining kamayishi (sukut), kichik kechikish/*-lar “dominoga” aylanishi.Til belgilari: “har doim”, “hech qachon”, “bizga nisbatan adolatsizlik” kabi mutlaq iboralar ko‘payishi.Jarayon telemetriyasi: SLA buzilishi, navbatchilikda qoplanmagan shiftlar, EHR’da ortiqcha qayta kiritish.Emotsional issiqlik xaritasi: debrifinglarda g‘azab/umidsizlik “cho‘qqilari”.Bemor fikr-mulohazalari: murojaatlar tematikasi keskin o‘zgarishi.

4. Hal etish tamoyillari va usullari

4.1. Tamoyillar:Shaffoflik: qaror mantiqi va ma’lumot manbalari tushuntiriladi.Adolat (procedural fairness): qoidalar oldindan ma’lum, hamma uchun bir xil.Izohlanuvchanlik: ayniqsa AI tavsiyalarida.Psixologik xavfsizlik: xatoni ayblash emas, o‘rganish nuqtai nazari (“Just Culture”).

4.2. Amaliy usullar:Manfaatga yo‘naltirilgan muzokara: pozitsiya emas, ichki ehtiyojni ochish; “5 Why”.Mediasiya: neytral vositachi; maxfiylik va ko‘ngilli ishtirok.Deskalatsiya protokollari: ovoz balandligini pasaytirish, tana tili, “time-out”.M&M (morbidity & mortality) ruhida, ayblovsiz tahlil.Etik komissiya: qadriyatiy to‘qnashuvlarda tezkor maslahat.RACI va qaror jurnali: kim mas’ul, kim qaror qiladi, kim xabardor.“OSBD” skripti (Kuzatuv–Sezgi–Ehtiyoj–So‘rov): emotsionallikni konstruktiv kanalga yo‘naltirish

5. Raqamli davr: yangi ziddiyat o‘choqlari

EHR/EMR: ish oqimi mos kelmasligi, “duplikat” ishlar.Telemeditsina: muloqotdagi noaniqlik, identifikatsiya va maxfiylik xavotiri.Navbatchilik algoritmlari: “qayta-qayta bir xil odamlarga tushyapti” idroki → adolatsizlik hissi.AI qaror qo‘llab-quvvatlash: izohlanmaslik, ma’lumotdagi xolislik muammolari.KPI bosimi: sifat–tezlik–xarajat uchburchagi ziddiyatni kuchaytiradi.Yechimlar: algoritmlarning sharhlanuvchanligi, audit jurnallari; shikoyat/feedback’ni ma’lumotlarga ulamoq; IT–klinik–HR hamkorlik komissiyasi; “shadowing” va “A/B ish jarayoni sinovi”.

6. Keystadilar (qisqa)

K1. Shift adolatidan norozi bo‘lim.Muammo: rejalash algoritmi “halol” emas degan idrok.Yechim: shaffof mezonlar (malaka, qator cheklovlar), vizual jadval, o‘zaro almashtirish bozorchasi, 2 oyda eNPS +12, kechikishlar −18%.

K2. EHR’da qo‘shimcha kiritishlar tufayli keskinlik.Muammo: klinik xodimlar “ikki marta yozamiz” deydi.Yechim: UX xaritasini soddalashtirish, shablonlar, diktatsiya; 6 haftada uchraydigan dublikatlar −35%, konsultatsiya vaqti +9%.

K3. Qadriyatlar to‘qnashuvi (oilaviy qaror vs klinik ehtiyoj)Muammo: terapiya intensivligida kelishmovchilik.Yechim: etik komissiya + vositachilik + qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy xodim; rozilik jarayoni qayta tushuntiriladi; kelishuvga erishildi.

7. 90 kunlik joriy etish yo‘l xaritasi.1–30 kun: ziddiyat xaritasi, anonim “issiq nuqtalar” so‘rovi, SLA/turnover/shikoyat bazasini tahlil. “Fast track”: de-eskalatsiya treningi.31–60 kun: RACI yangilash, qaror jurnali, etik/IT qo‘mitalari “tezkor liniya”, mediasiya ro‘yxati.61–90 kun: KPI paneli (“time-to-resolution”, shikoyat indeksi), eNPS/psixologik xavfsizlik so‘rovi, o‘rganilgan saboqlar sessiyasi va rejalarning iteratsiyasi.

8. O‘lchash va monitoring

Operatsion: shikoyatlar/1000 tashrif, SLA, yechimgacha o‘rtacha vaqt, ish haqidagi nizo soni.

Insoniy: eNPS, kuyish darajasi skriningi, almashinuv koeffitsiyenti.Klinik: yo‘naltirilgan xatoliklar, sentinel hodisalar, qayta qabul qilish.Moliyaviy: nizolar tannarxi (ishdan qolish, jarayon cho‘zilishi, huquqiy to‘lovlar).Axborot xavfsizligi: maxfiylik buzilishi holatlari, kirish huquqi auditlari.

9. Tashkiliy siyosatlar (amaliy andozalar)Konflikt-boshqaruv siyosati: ta’rif, tamoyillar, roli va eskalatsiya zinapoyasi.Just Culture reglamenti: xato turlari va javob reaksiyasi matritsasi.Mediasiya tartibi: kim boshlaydi, muddatlar, ishtirokchilar huquqlari.AI/EHR boshqaruvi: o‘zgartirishlar registri, foydalanuvchi kengashi, kvartal auditi.Debrifing va “Schwartz Rounds”: jamoa farovonligi uchun muntazam forum.

10. Emotsional farovonlik: inson markazidagi boshqaruv:Ziddiyatlar – faqat “muammo” emas, balki sog‘lom fikr bildiruvchanlik alomati. Menejer emotsional iqlimni ko‘ra olish va so‘zga aylantira olish ko‘nikmasiga ega bo‘lsa, ziddiyatlar yaratgo‘y energiyaga aylanadi: yaxshilangan jarayonlar, mustahkam ishonch, izchil xavfsizlik madaniyati.

11. Xatarlar va cheklovlar:Nizolarni yashirishdan qo‘rquv (hisobot paradoksi).Algoritm odil bo‘lsa ham, idrok odil bo‘lmasligi (kommunikatsiya bo‘shlig‘i).Trening “hammaga bir xil” bo‘lsa, bo‘limlar kontekstini inobatga olmaslik.KPI “sifat o‘rniga ko‘rsatkich”ga aylanishi (gaming).Yechim: iterativ dizayn, aralash usullar, tashqi audit va ichki refleksiya.

12. Xulosa:Sog‘liqni saqlashda ziddiyat – kompleks, ammo boshqariladigan hodisa. Erta indikatorlar, tamoyillarga asoslangan usullar, raqamli adolat va psixologik xavfsizlik birgalikda ishlaganda, ziddiyatlar xavfni kamaytirib, innovatsiyani tezlatadi. Taklif etilgan 90 kunlik yo‘l xaritasi va KPIlar menejerlarga aniq, ijro etiladigan, o‘lchanadigan platforma beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Institute of Medicine. To Err Is Human: Building a Safer Health System. Washington, DC: National Academies Press; 2000.

2. World Health Organization. Global Patient Safety Action Plan 2021–2030. Geneva: WHO; 2021.

3. Reason J. Human error: models and management. BMJ. 2000;320:768–770.

4. Weick KE, Sutcliffe KM. Managing the Unexpected: Sustained Performance in a Complex World. 3rd ed. Hoboken, NJ: Wiley; 2015.

5. Chassin MR, Loeb JM. High-reliability health care: getting there from here. Milbank Q. 2013;91(3):459–490.

6. Edmondson AC. Psychological safety and learning behavior in work teams. Admin Sci Q. 1999;44(2):350–383.

7. Marx D. Patient Safety and the “Just Culture”: A Primer for Health Care Executives. New York; 2001.

8. Dekker S. Just Culture: Restoring Trust and Accountability in Your Organization. 2nd ed. Boca Raton, FL: CRC Press; 2012.

9. National Patient Safety Foundation. RCA2: Improving Root Cause Analyses and Actions to Prevent Harm. Boston, MA: NPSF; 2016.

10. The Joint Commission. Sentinel Event Policy and Procedures. Oakbrook Terrace, IL: TJC; 2023.

11. Agency for Healthcare Research and Quality (AHRQ). TeamSTEPPS® 2.0. Rockville, MD: AHRQ; 2019.

12. World Health Organization. Ethics and Governance of Artificial Intelligence for Health: Guidance. Geneva: WHO; 2021.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

OROLBO'YI MINTAQASIDA SUVNING OSTEOXONDROZLAR KELTIRIB CHIQARISHDAGI AHAMIYATI HAQIDA

Quranbayev S.B,Matyaqubov D.B
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda aholi qatlamining kasallanishlari yildan yilga oshib bormoqda. Ushbu kasallanishlarni oldini olish va davolash uchun bu kasalliklarni o’z vaqtida aniqlash va uning asoratlarini chuqur tahlil qilish zarur. Ushbu kasallilardan biri osteoxondroz kasalligi xisoblanadi. Osteoxondroz kasalligi kelib chiqishida asosiy sabablardan biri organizmda Ca yetishmovchiligi hisoblanadi. Orolbo’yi mintaqasi hududlari suvi tarkibida esa Ca miqdori sezilarli darajada kam miqdorda bo’ladi.

Maqsad: Orolbo’yi mintaqalarida Ca yetishmovchiligi tufayli turli kasallillar yildan yilga ko’payib bormoqda bu ayanchli xolat albatta. Orolbo’yi mintaqalari suvining tarkibini o’rganish, yetishmayotgan elementlarni boshqa yo’llar bilan organizmga tushurish yo’llarini topish (oziq-ovqat, dori-darmonlar v hk. ko’rinishida). Albatta osteoxondroz kasalligi kelib chiqishining suvga bog’liq bo’lmagan boshqa sabablarini o’rganish. Aholining tibbiy madaniyatini oshirish.

Annotatsiya

Hozirgi kunda osteoxondroz kasalligi zamonamizning eng “gullagan” kasalliklaridan bir. Ushbu kasallikning kelib chiqishiga bir necha sabablar bor. Ushbu sabablardan biri organizmda Ca yetishmoqchiligi hisoblanadi. Orolbo’yi mintaqalarida suvning kimyoviy tarkibini o’rganish va tibbiy xulosa berib, organizm uchun yetishmayotgan elementlarni o’rnini qoplash ayniqsa e’tiborga molik masala bo’lib qolmoqda. Osteoxondroz bilan kasallanganlar orasida albatta ichimlik suvi tarkibida Ca yetishmovchiligi bor odamlar anchaginani tashkil qiladi. Ostexondroz kasalligi kelib chiqishining albatta bir qancha boshqa sabablari ham bor.

Kalit so’zlar: Ostexondroz, suv balansi, suvning kimyoviy tarkibi, Orolbo’yi.

Аннотация

В наше время остеоартроз является одним из самых «цветущих» заболеваний современности. Существует несколько причин возникновения этого заболевания. Одна из таких причин заключается в том, что организм старается компенсировать Ca. Особенно примечательно, что в регионах Приаралья изучение химического состава воды и предоставление медицинских заключений и замена недостающих для организма элементов являются особенно заметным вопросом. Среди больных остеоартрозом, конечно, в питьевой воде содержится большое количество людей с дефицитом Ca. Есть, конечно, ряд других причин возникновения остеоартроза.

Ключевые слова: остеоартроз, водный баланс, химический состав воды, Аральское море

Annotation

Nowadays, osteoarthritis is one of the most "blooming" diseases of our time. There are several reasons for the occurrence of this disease. One of these reasons is that the body wants to grow Ca. It is especially noteworthy that in the Aral Sea regions, studying the chemical composition of water and providing medical opinions and replacing elements lacking for the body are a particularly notable issue. Among those with osteoarthritis, of course, drinking water contains a large number of people with Ca deficiency. There are certainly a number of other reasons for the occurrence of osteoarthritis.

Keywords: Osteoarthritis, water balance, chemical composition of water, Aral Sea

Asosiy qism

BMT agentliklari "Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha Ko'psheriklik fondini tashkil qilish orqali Orol fojiasidan zarar ko'rgan aholining turmush sharoiti salohiyatini mustahkamlash” qo'shma dasturini ishga tushirmoqda. Bu haqda Uzdaily.uz xabar berdi.

Dastur BMTning inson xavfsizligi Maqsadli fondi tomonidan moliyalashtirilmoqda va BMTning agentliklari tomonidan amalga oshirilmoqda. Dastur uch yil davomida amalga oshirilib, uchta tumanda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xavfsizlikni yaxshilashga yordam beradi.

BMT Maqsadli fondi hisobiga Qoraqalpog'istonda 2012-2016 yillarda avvalgi tashabbuslar tajribasidan kelib chiqqan holda, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi yangi Qo'shma dasturlarni katta ekologik xatar hududi bo'lgan va aholisi 123 mingdan ortiq kishini tashkil etuvchi Mo'ynoq, Taxtako'pir va Shumanay tumanlarini ushbu hududlar deb belgilashni taklif qildi. Seminarlar shaklida fermer xo'jaliklari rahbarlari, qishloq fuqarolari yig'inlari, davlat tuzilmalari va idoralari vakillari, shuningdek xususiy tadbirkorlar ishtirokida dasturni ishga tushirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Seminar ishtirokchilariga inson xavfsizligi Kontseptsiyasiga muvofiq ishning eng muhim jihatlari, uni Qoraqalpog'istonda – Orol inqirozining salbiy ta`sirini kamaytirishda qo'llanishi istiqbollari haqida ma`lumotlar taqdim etilmoqda. Shuningdek, muhokamalar davomida mahalliy aholi bilan yuqoridagi tumanlar hududida kelib chiqqan ekologik vaziyat oqibatida paydo bo'lgan asosiy muammolarni aniqlash maqsadida interfaol munozaralar olib borildi. Shu tariqa, inson xavfsizligi Kontseptsiyasi doirasida mintaqadagi murakkab ekologik sharoitni inobatga olgan holda mahalliy rivojlanish rejalari ishlab chiqiladi. Orol tabiiy geografik okrugi Turon tekisligining markaziy qismida, Ustyurt okrugi bilan Qizilqum okrugi orasida joylashgan. U shimolda Qozog‘iston bilan, janubi sharqda Qizilqum, janubda Quyi Amudaryo, g‘arbda Ustyurt okruglari bilan chegaralanadi.

Tabiiy geografik o‘rganilish va paydo bo‘lish tarixi. Orol va Orolbo‘yi haqidagi dastlabki ma’lumotlarni miloddan avvalgi II asrda yashagan geograf Klavdiy Ptolemey yozib qoldirgan. U tuzgan „Dunyo xaritasi"da hozirgi Orol dengizi o‘rnida „Oks" ko‘li tasvirlangan. IX asrda yashagan arab olimi Ibn Xurdodbex Amu-Sirdaryo „Kurdor" ko‘liga quyilgan desa, X asrda yashagan Al-Mas’udiy hozirgi Orol ko‘lini „Jurjoniya", Beruniy esa „Xorazm" ko‘li deb atagan. Fransuz geografi Delil 1723-yili tuzgan xaritasida Orol botig‘ida joylashgan suv havzasini birinchi marta „Orol" deb nomlagan.

Orol dengizining tubi tektonik harakatlar ta’sirida cho‘kishi natijasida paydo bo‘lgan. Orol cho‘kmasining ilk Amudaryo va Sirdaryo suvi bilan to‘lishi eramizdan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmida ro‘y bergan. So‘ngra tabiiy omillar ta’sirida (Amudaryo va Sirdaryo suvining ko‘payib, ozayib turishi ta’sirida) Orol dengizi suv sathi goh pasayib, goh ko‘tarilib turgan. So‘nggi 200 yil (1961-yilga qadar) ichida Orol dengizining suv sathi uch marta ko‘tarilib, ikki marta pasaygan.

Suvning kimyoviy tarkibi: Suv barcha tirik organizmlar, jumladan inson hayoti uchun eng zarur modda hisoblanadi. Tabiiy suvda har doim har xil tuzlar erigan holda bo‘ladi. Ularning miqdori qor, yomg‘ir suvlarida kam bo‘ladi, dengiz va okean suvlarida uning miqdori ko‘p bo‘ladi. Tabiiy suvning tarkibida magniy, kalsiy, xloridlari, sulfatlari, gidrokarbonatlari va boshqa qo‘shimchalar bo‘ladi. Tarkibida ana shu moddalarning miqdoriga qarab suvni: vaqtinchalik qattiqqa ega bo‘lgan suv, doimiy qattiqlikka ega bo‘lgan suv, kalsiyli qattiqlik, magniyli qattiqlik, umumiy qattiqlikka ega bo‘lgan suvlarga ajraladi. Vaqtinchalik qattiqlikka ega bo‘lgan suvni yumshatish mumkin.

- Suvni qaynatish yo‘li bilan vaqtinchalik qattiqlik yo‘qotiladi.

$$Ca(HCO_3)_2 \rightarrow CaCO_3 + H_2O + CO_2;$$
$$Mg(HCO_3)_2 \rightarrow MgCO_3 + CO_2 + H_2O;$$

- Ohakli suv qo‘shib.

$$Ca(HCO_3)_2 + Ca(OH)_2 \rightarrow 2CaCO_3 + H_2O$$

$$Mg(HCO_3)_2 \rightarrow MgCO_3{*}CaCO_3 + 2\ H_2O$$

- Ishqor ta’sir ettirib.

$$Ca(HCO_3)_2 + 2NaOH = CaCO_3 + 2Na_2CO_3 + 2H_2O$$
$$Mg(HCO_3)_2 + 2NaOH = MgCO_3 + Na_2CO_3 + 2H_2O$$

- Soda qo‘shib ionlar cho‘ktiriladi.

$$Ca(HCO_3)_2 + Na_2CO_3 = CaCO_3 + 2NaHCO_3$$
$$Mg(HCO_3)_2 + Na_2CO_3 = MgCO_3 + 2NaHCO_3$$

- Doimiy qattiqlikka ega bo‘lgan suvga natriy fosfat qo‘shish yo‘li bilan qattiqlik yo‘qotiladi.

$$CaSO_4 + Na_2CO_3 = CaCO_3 + Na_2SO_4$$
$$3MgSO_4 + 2Na_3PO_4 = 3Na_2SO_4 + Mg_3(PO_4)_2$$

- Sanoatda suvning qattaqligini yo‘qotish uchun **ion almashinuv usuli** qo‘llaniladi. Kationitlar-suvda erimaydigan, tarkibida tashqi muhit kationlarga almashina oluvchi, harakatchan kationlar tutadigan qattiq modalardir. Anionitlar – suvda erimaydigan, tarkibida tashqi muhit anionlariga almashina oluvchi, harakatchan anionlar tutgan qattiq moddalar. Kationitli kolonkadan o‘tkazilgan suvning tarkibidagi kalsiy va magniy ionlari natriy ionlariga almashib, kolonkada qoladi va natriy ionlari suvga o‘tadi.

$$Na_2R + Ca^{+2} \rightarrow 2Na^{+} + CaR$$

Kationitlarda R-murakkab tuzilishga ega organik radikal. Kationitlar suvni kalsiy va magniy ionlaridan tozalashga yordam bersa, anionlarni chiqarish uchun anionitlar qo‘llaniladi.

Ca va Mg ning inson organizmi uchun ahamiyati. Kalsiy va magniy moddalari inson organizmi uchun juda ahamiyatli.

1. Inson organizmidagi suyakning 80% qismini kalsiy tashkil etadi.
2. Magniy va kalsiy hayotning barcha shakllari uchun muhim ahamiyatga ega.
3. Kalsiy va magniy birikmalari harakat-tayanch sistemasining asosini tashkil etadi.
4. Kalsiy disbalansi allergik kasalliklar kelib chiqishiga, suyak kasalliklariga olib keladi.
5. Magniy muskul to‘qimasida 0,09%, ilikda 0,07-0,18 %, qonda 37,8 mg miqdorda bo‘ladi.
6. Qonning ivishi, fermentlar faolligi ham kalsiy bilan bevosita bog‘liq.

Kalsiy va magniyga boy mahsulotlar

Ca	Mg
1) asbest	1) yorituvchi raketalar
2) alibastr	2) qotishmalar tayyorlashda
3) gips	3) olov signallari
4) oxak	4) dorilar
5) marmar	5) fotografiyada
6) dorilar	6) mayoqlar tayyorlashda
7) rezina	
8) bo‘yoq	
9) tish pastasi	
10) optik asboblar	

Qattiq suvda ovqat pishirish qiyin. Unda pishgan ovqatning xushta’m emas, choyning ta’mi ham yaxshi bo’lmaydi. Suv tarkibida magniy ionlari ko‘p miqdorda boisa, suv taxir bo’ladi va inson ichaklarini bo‘shashtiradi. Suvning yuqori darajadagi qattiqligi nafaqat insonga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki turli ishlab chiqarish jarayonlariga va shuningdek, ishlab chiqariladigan mahsulot va buyumlar sifatiga ham ta’sir qiladi. Qattiq suvni ishlatishdan oldin yumshatishadi, buning uchun undan kalsiy va magniyni yo'q qila oladigan moddalar qo‘llanadi.

Suvning qattiqligi - tarkibida Kalsiy (Ca)+ va Magniy (mg)+ ionlari bo‘lgan suvning xossasi. Suvning qattiqligi 2 xil: nokarbonat qattiqlik — suvda kalsiy va magniy sulfatlar erishidan kelib chiqadi; karbonat qattiqlik — suvda kalsiy va magniy bikarbonatlar erishidan hosil bo‘ladi. Suvning umumiy qattiqligi shu qattikliklar yig‘indisiga teng . Umumiy qagtiklik 1 l suvdagi kalsiy va magniy ionlarining milligrammekvivalentlari yigindisi (mgekvG‘l) bilan o‘lchanadi. Qattiqligi 1-1.5 mgekv/ litr bo'lgan suv o'ta yumshoq, 1.5-3 mgekv/l dan kam bo‘lgan suv yumshoq, 3—6 mgekv/l bo‘lgan suv o‘rtacha , 6-10 mgekv/l o'rtacha qattiq, 10 mgekv/l dan ortiq bo‘lgan suv esa juda qattiq suv hisoblanadi. Tabiiy Suvning qattiqligi turlicha. Daryo va ko‘l suvining qattiqligi 0,1—0,2 mgekv/l (tayga va tundra), yer osti suvi, dengiz va okean suvining qattiqligi 80— 100 mgekv/l Suvning qattiqligi tufayli bug‘ qozonlari devorlariga cho‘kmalar cho‘kadi, kir yuvganda sovun ko‘p sarflanadi. Qattiq suvda sabzavot, go‘sht yaxshi pishmaydi va h.k. Suvning qattiqligi katta bo‘lsa, siydikda tosh paydo bo‘ladi. Markaziy suv ta’minotida, asosan, iste’mol qilinadigan Suvning qattiqligi 7 mgekv/l gacha bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Orol bo’yi mintaqalarida ichmik suviga bo’lga ehtiyoj yqori bo’lganligi sababli suvning qattiqligi ba’zi joylarda 10 mgekv/l gacha etib belgilangan. Ushbu qattiq suvni surunkali ravishda iste’mol qilish natijasida esa organizdamda turli o’zgarishlar kelib chiqadi. Jumladan osteoxondroz kaasalligi ham. "Osteoxondroz (osteo... va yun. chondros — tog‘ay) — umurtqalarni birlashtiruvchi tog‘ay-pay qismining degenerativ trofik va funksional o‘zgarishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Odatda, umurtqa pog‘onasining bo‘yindan yoki beldan pastki, ko‘krakdan yuqori qismlari zararlanadi.

Moddalar almashinuvining buzilishi, turli shikastlanishlar, Ca yetishmovchiligi, og‘ir zo‘riqishlar va boshqa sabab bo‘lishi mumkin. Umurtqa pog‘onasining faoliyati funksional jihatdan faqat bog‘lovchi tog‘ay-pay apparatlariga emas, balki ushlab turuvchi tana va umurtqa muskullari, qon hamda nerv tomirlari, orqa miya pardalariga ham bog‘liq. Umurtqaning egiluvchanligi,

elastikligi, harakatchanligi, jismoniy zo‘riqishlarga chidamliligini umurtqalararo disklar ta’minlaydi. Bu diskni qoplab turgan tog‘ay va pay elementlari umurtqalarni bir-biriga bog‘lab turadi va bir butun umurtqa ustunini hosil qiladi. Disk va uning atrofidagi pay-tog‘ay bog‘lovchi elementlardagi o‘zgarishlarga revmatizm, shikastlanishlar, immunitetning susayishi va irsiy omillar sabab bo‘lishi mumkin.

Osteoxondroz ko‘proq bo‘yin va bel disklarida uchraydi. Diskda kuzatiladigan degenerativ o‘zgarishlar asosida murakkab biokimyoviy jarayonlar yotadi. Turli shikastlanishlar ta’sirida diskning asosiy moddasi depolimerizatsiyaga uchrab, hujayralarni jarohatlaydi va o‘zgartiradi. Natijada asosiy modda nordon mukopolisaharidlarning ko‘payishiga olib keladi, u esa diskning tog‘ay va pay to‘qimalarini asta-sekin yumshatib, fibroz halqalarda yoriqchalar hosil qiladi va diskning germetik holatini buzadi, distrofik va degenerativ jarayonlar rivojlanadi.

Tashxis. Osteoxondroz tashxisi rentgen orqali bemalol qo‘yiladi. Agar disk churrasiga gumon qilinsagina, KT yoki MRT tekshiruvi o‘tkaziladi. Negadir rentgen tekshiruviga keluvchilar soni kamayib, KT va MRT tekshiruviga keluvchilar soni ortib bormoqda. Aslida aksi bo‘lishi kerak. Chunki, disk churrasi umurtqa osteoxondroziga qaraganda juda kam uchraydi. Vaholanki, osteoxondroz KT va MRTga qaraganda rentgenda juda yaxshi aniqlanadi. Buni hamma vrachlar bilishadi. Shunday ekan, bemorlar vrach ko‘rsatmasiga quloq tutishi va qimmat tekshiruvlarga ruju qo‘ymasliklari kerak. Osteoxondroz 2 bosqichda o‘tadi: 1) xondroz davri. Bunda umurtqalararo disk yadrosini o‘rab turgan bog‘lovchi fibroz halqa va boshqa elementlarda o‘zgarish boshlanadi, lekin disk og‘riqni sezmaganligi uchun bu davrda bemorda klinik belgilar kuzatilmaydi; 2) Osteoxondroz davri. Bunda boshlangan degenerativ o‘zgarishlar disk va umurtqaning suyak qismiga o‘tadi, chegaralangan "berkituvchi" plastinkalar yirtilib, germetikligi yo‘qoladi; qon tomirlar va nerv tolalari disk ichiga o‘tib, og‘riq beradi. Distrofik jarayon disk atrofidagi umurtqa bo‘g‘imlarida, kalta-uzun paylarda ham rivojlana boradi va umurtqalar orasini toraytirib qo‘yadi, umurtqa "o‘tirib" qoladi.

Kasallik belgilari degenerativ diskning joylashishiga bog‘liq. Agar bo‘yin sohasida bo‘lsa, shu sohaga aloqador a’zolar faoliyatida o‘zgarishlar, kasalliklar va sindromlar kuzatiladi.

Bo‘yin ostexondrozi ekstrakranial (tashqi nerv ildizlari sindromlari), intrakranial (ichki va tashqi shikastlanishlar, qon yetishmovchiligi), vertebral (vertebral yetishmovchilik) xillari bor. Ko‘krak qismidagi osteoxondroz belgilari, asosan, nerv ildizlarining sindromlari bilan ifodalanadi. Bel umurtqasi osteoxondrozi ko‘proq uchraydi, chunki kishi biror bir mehnat qilganda ma’lum bir jismoniy kuch talab etadi va bu o‘z-o‘zidan belni zo‘riqtiradi. Bel osteoxondrozining quyidagi turlari ajratiladi: 1) ildizli — reflektor sindrom (lyumbago, ishias va boshqalar); 2) umurtqa disk churrasi, unda turli kompression miyelopatiyalar kuzatiladi; 3) disk atrofidagi ildiz qon tomir va bo‘g‘imlar bilan birga kuzatiladigan sindromlar; 4) chanoq suyaklari paylari va dumg‘aza bilan birga uchraydigan sindromlar (sakroileit, sakralizatsiya, koksigodiniya). Osteoxondrozning barcha xilida og‘riq bo‘ladi, bu kasallikning qaysi bosqichda ekanligiga bog‘liq.

Davo: Asosan, konservativ, og‘riq qoldiruvchi dorilar buyuriladi. Osteoxondrozning disk churrasi stabil falajni keltirib chiqarsa, operatsiya qilinadi. Shuni unutmangki, osteoxondrozni dori-darmonlar bilan emas, balki. Vrach nazorati ostida turli xil mashqlar, fizio terapevtik muolajalar orqali bemalol davolash mumkin."

Xulosa: Orolbo’yi mintaqalarida iste’mol qilinayotgan suv tarkibida suvning qattiqligi me’yoridan ortiqcha 10 mgekv/l (me’yorda 7 mgekv/l gacha) ekanligi aniqlandi. Ushbu suvdan muntazam foydalanish natijasida organizmda Ca yetishmovchiligi kelib chiqadi ya’ni organizm suv tarkibidagi Ca ni yetarli darajada o’zlashtira olmaydi. Buning oqibatida esa oesteoxondroz va boshqa turli kasalliklarning kelib chiqishiga birlamchi sabab bo’lishi mumkin. Ostexondroz kasalligi kelib chiqqanda esa ko’pgina xollarda bo’yin va bellarda og’riqlar zo’rayishi kuzatiladi. Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki Orolbo’yida yashovchi aholi suvdan foydalanayotgan paytda albatta tozalangan suv(filtrlangan suv)dan foydalanishlari lozim. Agar qattiqlik aniqlanadigan bo’lsa uni yo’qotish choralarini ko’rish zarur (yuqorida bayon qilingan). Har qanday xolatda ham ichimlik suvini avval qaytanib so’ngra istemol qilish tavsiya etiladi. Osteoxondrozning dastlabki belgilari kuzatilishi bilan shifokorga murojaat qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.А.Ниязметов Оценка качества воды капарасского водохранилища с целью использования для водоснабжения / JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES Дата публикации: 03-05-2022. №: 2181-1385. С 69-75. [Электронный ресурс]. Режим доступа: https:/ares/uz/osenka/osenka-kachestva-vodi-kaparasskogo-vodahranilisha-s-selyu-ispolzovaniya-dlya-vodasnabjeniya. Дата обращения:03.05.2022.

2. М.А.Ниязметов, А.А.Абдуллаев Влияние водного фактора на заболевания опорно двигательной системы / Texas Journal of Medical Science. Дата публикации: 11-05-2022. №: 2770-2936. С 6-9. [Электронный ресурс]. Режим доступа: https://zienjournalas/com./Influence-of-the-water-factor-on-diseases-of-the-locomotor. Дата обращения: 11.05.2022.

3. Авакян, А. Б. Водохранилища / А. Б. Авакян, В. П. Салтанкин, В. В. Шаранов. – М.: Мысль, 1987. – 325 с.

4. Пудовкин, А. Л. Гидрология суши: водохранилища / А. Л. Пудовкин. – 224 с. – (Открытая платформа электронных публикаций SPUBLER. Дата публикации: 2015-07-26).

5. Болотов, В. П. Оценка содержания и миграция тяжелых металлов в экосистемах

Волгоградского водохранилища: автореф. дис. … канд. биол. наук: 03.02.08 / Болотов Владимир Петрович. – М., 2015. – 20 с.

6. Зиновьев, Е. А. Характеристика современного состояния водной экосистемы верхней части Камского водохранилища / Е. А. Зиновьев, С. А. Двинских, А. Б. Китаев // Вестник Удмуртского университета. Серия: Биология. Науки о Земле. – 2018. – Т. 28, вып. № 1. – С. 50–56.

7. Ильинский, И. И. Проблемы проектирования, эксплуатации и охраны водохранилищ в Узбекистане / И. И. Ильинский, О. П. Миршина, С. Б. Шоумаров. – Ташкент: Медицина, 2013. – 135 с.

8. Отраслевая программа «Питьевые воды» на 2002-2010 годы. - Астана, 2002.- 27

9.Modern Features of Water Supply to the Population of the Aral Region. World Journal of Agriculture and Urbanization Volume: 02 | No: 9 | Sep 2023 | ISSN: 2835-2866 https://wjau.academicjournal.io/index.php/wjau.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

UDC: 614.258

MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS OF MANAGEMENT IN THE HEALTHCARE SYSTEM

OTAYEVA ZEBINISO UMARJON QIZI
Ismoilova Yulduz Ravshanbek qizi
Assistant of the Department of "Public Health and General Hygiene"
of the Urgench Branch of the Tashkent Medical Academy

Annotation: This article is devoted to the problems of healthcare management in Uzbekistan. It analyzes contemporary problems related to the management of the healthcare system in Uzbekistan (financing, human resources, primary health care, infrastructure, information systems, quality control and transparency of management) and as solutions to these challenges, it is proposed to update the legal framework, increase transparency in financial mechanisms, motivate medical personnel, and widely implement digital technologies in healthcare.provides practical recommendations for modernizing the system.

Key words: Uzbekistan, health management, primary health care, health financing, human resources, e-health, healthcare, management, financial management, human resources, innovations, strategic planning

Аннотация: Статья посвящена проблемам управления здравоохранением в Узбекистане. В ней анализируются современные проблемы управления системой здравоохранения Узбекистана (финансирование, человеческие ресурсы, первичная медико-санитарная помощь, инфраструктура, информационные системы, контроль качества и прозрачность управления), а предлагаются пути решения проблем, направленные на актуализацию нормативно-правовой базы, повышение прозрачности финансовых механизмов, стимулирование медицинских кадров, широкое внедрение цифровых технологий в здравоохранение ,также даются практические рекомендации по модернизации системы.

Ключевые слова: Узбекистан, управление здравоохранением, первичная медико-санитарная помощь, финансирование здравоохранения, человеческие ресурсы, электронное здравоохранение, здравоохранение, менеджмент, финансовый менеджмент, человеческие ресурсы, инновации, стратегическое планирование

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistondagi sog‘liqni saqlash boshqaruvi muammolariga bag‘ishlangan. Unda O‘zbekistondagi sog‘liqni saqlash tizimining boshqaruviga oid zamonaviy muammolarni (moliyalashtirish, inson resurslari, birlamchi tibbiy yordam, infrastruktura, ma’lumotlar tizimi, sifat nazorati va boshqaruvning shaffofligi) tahlil qiladi va muammolarga yechim sifatida normativ-huquqiy bazani yangilash, moliyaviy mexanizmlarni shaffoflashtirish, tibbiy kadrlarni rag‘batlantirish va sog‘liqni saqlashda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish taklif etiladi ,tizimni modernizatsiya qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, sog‘liqni saqlash boshqaruvi, birlamchi tibbiy yordam, sog‘liqni saqlash moliyalashtirish, inson resurslari, e-salomatlik, sog‘liqni saqlash, menejment, moliyaviy boshqaruv, kadrlar, innovatsiyalar, strategik rejalashtirish

The healthcare system plays a crucial role in the socio-economic development of every country. According to the World Health Organization, the health of the population directly influences the sustainable development of a nation. Therefore, efficient healthcare management has become one of the most pressing issues today [1]. The main goal of healthcare management is, undoubtedly, to reduce the losses society faces due to illness, disability, and mortality. In recent years, Uzbekistan has launched large-scale reforms in its healthcare system: measures are being taken to strengthen disease prevention and primary healthcare, improve hospital capacity, and modernize diagnostic and monitoring systems. At the same time, serious management challenges still remain in the system —

such as resource allocation, uneven distribution of healthcare personnel, financing, and quality control. This article identifies these problems and proposes potential solutions.

Main Problems

1.Financing and Resource Allocation

a) Insufficient state budget funds.

b) Weak development of the private healthcare sector.

c) Incomplete formation of the insurance system.

In Uzbekistan, the state budget plays a central role in healthcare financing. However, issues remain regarding the sustainability of funding, efficient allocation, and equitable distribution of the budget across regions. These challenges affect both accessibility and the quality of healthcare services. In rural areas, in particular, problems persist due to outdated infrastructure and shortages of medical equipment.

2.Human Resources — Professional Shortages and Migration

a) Shortage of medical personnel, especially in remote areas.

b) Migration of specialists abroad.

c) Weak system of continuous professional development and retraining.

Although recent years have shown some increase in the number of doctors and healthcare workers in certain indicators, their distribution remains uneven. Low salary levels and the risk of migration—both within the country and abroad—pose additional challenges. This issue is especially evident in remote regions and rural medical points, where the shortage of qualified personnel reduces the quality of healthcare services.

3. The Need to Strengthen Primary Health Care

a) Incomplete implementation of clinical standards and guidelines.

b) Weak quality assessment and monitoring mechanisms.

c) Existence of corruption and bureaucratic obstacles.

Uzbekistan is pursuing a policy of strengthening primary health care: the transition to family clinics and community-based approaches is underway. However, professional standards, the quality of clinical practices, and the patient referral system still require improvement. Despite ongoing reforms, issues of quality and coordination remain important.

4. Quality Control and Transparency in the Healthcare System

Quality of services, the introduction of clinical guidelines, and monitoring systems are in place, but further measures are needed to ensure their expansion and sustainability, as well as to reduce the risks of corruption and substandard services. Ensuring data collection and transparency within the system is essential for effective decision-making in management.

5. Information Systems and Electronic Health (e-Health)

a) Electronic medical records and a unified database are not sufficiently implemented. b)Telemedicine and electronic services are limited in scope.

The monitoring and surveillance systems observed during the pandemic highlighted the need to strengthen and expand e-health infrastructure. However, integrating digital solutions across the entire country and ensuring data quality control remain pressing challenges.

Prospects and Recommendations

1.Strengthening Primary Health Care

— Expanding family polyclinics and community-based approaches; implementing clinical guidelines and organizing continuous professional development courses.

__Conduct regular preventive medical examinations.

__Strengthen programs to promote a healthy lifestyle.

__Strengthen environmental safety and sanitary and hygienic control

2.Improving Financing Efficiency and Managing Healthcare Expenditures

— Ensuring fair allocation of resources across regions based on needs; introducing results-based financing tools to enhance budget efficiency.

— Strengthening partnerships with the private sector and international donors, while maintaining mechanisms that guarantee equality and quality of services.

__Widespread introduction of compulsory health insurance.

__Development of clinics based on public-private partnerships.

__Transparency of costs and rational use of resources

3. Developing and Retaining Human Resources

— Introducing regional incentive programs for healthcare professionals; adequate incentives for the work of medical personnel, retaining specialists in remote areas through regional benefits, continuous medical education and the acquisition of international experience, innovative managementreinforcing tele-education and continuous professional development systems.

— Identifying and implementing measures to significantly improve salaries and working conditions in order to reduce migration flows. In particular, remuneration is considered the most powerful motivating factor.

4. Digital Health and Data-Driven Governance

— Developing an integrated national electronic health system while ensuring data accuracy and confidentiality. Introduction of a clinical audit and accreditation system, expansion of electronic governance mechanisms, use of artificial intelligence and big data in medicine.

— Using data for policymaking and management decisions: strengthening monitoring, evaluation, and rapid response systems.

Furthermore, in modern healthcare management, the chief physician should not only be a doctor but also a manager, possessing knowledge of economics and administration. According to research, nearly 50 percent of healthcare managers admit that they lack sufficient knowledge in economics and management. This results in poor decision-making and reduced efficiency of the system.

5. Improving Quality and Transparency

— Introducing mechanisms that take into account quality indicators and patient feedback; gradually expanding clinical audits and accreditation systems.

— Implementing anti-corruption measures and ensuring transparency in service pricing.

Conclusion : The considered directions for improving the management of the healthcare system cannot be implemented without increasing the volume of state financing, therefore, it is necessary to set tasks that are fully related to the protection of citizens' health, develop control indicators, as a result of which the volumes and sources of primary and additional financing of healthcare should be determined [5, p. 33]. Modern problems of healthcare management require a comprehensive approach. By updating the legal framework, ensuring transparency in financial management, motivating healthcare professionals, and widely introducing modern innovations, it is possible to significantly increase the efficiency of the healthcare system.In recent years, Uzbekistan’s healthcare system has undergone significant modernization. However, several management-related challenges remain unresolved, including financing, distribution of human resources, strengthening the scope and quality of primary health care, digital systems, and transparency. Addressing these issues requires coordinated efforts of state policy, international cooperation, the private sector, and civil society, as well as the adoption of data-driven governance.

Literature:

1.World Health Organization. Health systems in action: Uzbekistan (2022).

2.WHO. Transforming the health system in Uzbekistan: two-year implementation review (2023).

3.WHO/European Observatory. Health systems in action: Uzbekistan (2024 edition).

4.World Bank. Health System Improvement Project (Health-III) — Implementation Completion and Results Report (2019).

5.Rechel, B., et al. Primary care reforms in Central Asia – On the path to ... (2023).

6.Asian Development Bank. Primary Health Care Improvement Project (project documents, 2024).

7.Shadmanov A., et al. COVID-19 in Central Asia: Uzbekistan's new approach (2020)

8.World Health Organization. Health Systems Strengthening. – Geneva, 2020.

9.Petrova N. G., Balokhina S. A., Komlichenko E. V. et al. Modern Trends in Healthcare Management. – St. Petersburg: St. Petersburg State University Press, 2009.

10.Donabedian A. Evaluating the Quality of Medical Care // Milbank Quarterly. – 2005. – Vol. 83(4). – pp. 691–729.

11.Berwick D. M., Nolan T. W., Whittington J. The Triple Aim: Care, Health, and Cost // Health Affairs. – 2008. – Vol. 27(3). – pp. 759–769.

12.Data from the World Health Organization (WHO).

13.Kadyrov A. “Fundamentals of Healthcare Management”. Tashkent: 2021.

14.Karimova N. “Management in the Healthcare System”. Tashkent: 2022

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONIDA TIBBIY SUG‘URTANING O‘RNI

Ro‘zimatov Fazliddin Isomiddinovich
Assistent
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena kafedrasi maqola chop etish
Sog‘liqni saqlash tizimi iqtisodiyoti va moliyalashtirish, sug‘urta tibbiyoti istiqbollari
+99891090101 rozimatovfazliddin@gmail.com
Pediatriya fakulteti 2-kurs talabasi
Baxriddinova Odinabonu Faxriddin qizi

ANNOTATSIYA

Maqolada sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy asoslari, moliyalashtirish mexanizmlari va sug‘urta tibbiyoti istiqbollari tahlil qilingan. Jahon va O‘zbekiston tajribasi asosida mavjud muammolar shaxsiy to‘lovlarning yuqoriligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, xizmat qamrovi va sifati bo‘yicha muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. Majburiy sug‘urta tizimini joriy etish, dori vositalarini qisman kompensatsiya qilish, raqamlashtirish va xususiy sektor bilan hamkorlikni kengaytirish kabi amaliy tavsiyalar ilgari surilgan. Maqola natijalari sog‘liqni saqlash tizimida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va aholining moliyaviy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘liqni saqlash tizimi, iqtisodiyot, moliyalashtirish, sug‘urta tibbiyoti, majburiy sug‘urta, O‘zbekiston.

ANNOTATION

This article analyzes the economic foundations of the healthcare system, financing mechanisms, and the prospects of health insurance. Based on international and Uzbek experiences, it highlights the main challenges such as high out-of-pocket payments, insufficient financial resources, limited coverage, and quality issues. Practical recommendations are proposed, including the introduction of mandatory health insurance, partial reimbursement of medicines, digitalization, and strengthening public–private partnerships. The results of the study are aimed at ensuring financial sustainability of the healthcare system and enhancing financial protection for the population.

Keywords: healthcare system, economics, financing, health insurance, mandatory insurance, Uzbekistan.

KIRISH

Sog‘liqni saqlash tizimi jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Uning barqaror ishlashi aholi salomatligini saqlash, umr davomiyligini oshirish, mehnatga layoqatli kuchni tiklash va umuman olganda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiyoti, moliyalashtirish mexanizmlari va sug‘urta tibbiyoti masalalari ko‘plab mamlakatlarda strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda.Ushbu maqola sog‘liqni saqlash tizimining iqtisodiy asoslarini, uning moliyalashtirish modellari hamda sug‘urta tibbiyotini rivojlantirish istiqbollarini kompleks tahlil qiladi.

ASOSIY QISM

Sog‘liqni saqlash — ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishning muhim elementi. Moliyalashtirishning adolatsiz tuzilishi aholining kambag‘allashishiga, tibbiy xizmatlariga bo‘lgan talabning qondirilmasligiga olib keladi. O‘zbekiston sharoitida — demografik o‘zgarishlar, xronik kasalliklarning ortishi va sog‘liqni saqlash xarajatlarining o‘sishi kontekstida sug‘urta mexanizmlari ustuvor vazifaga aylangan.

Tadqiqot maqsadi: Mamlakat miqyosida sog’liqni saqlash tizimini moliyalashtirishni optimallashtirish va sug‘urta-asosida universal tibbiy qamrovga erishish yo‘llarini aniqlash, xalqaro

tajriba, mamlakat statistikasi va iqtisodiy modellardan foydalangan holda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Vazifalar:

1. Hozirgi moliyalashtirish strukturasi va uning asosiy muammolarini identifikatsiya qilish.
2. Tibbiy sug‘urtaning turli modellari (ijtimoiy, xususiy, majburiy/majburiy bo’lmagan) ta’sirini baholash.
3. Sug‘urta joriy etilishining moliyaviy barqarorlik va aholining moliyaviy himoyasiga ta’sirini modellashtirish
4. Xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonga mos bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasini ishlab chiqish.

Gipotezalar:

1.Ijtimoiy tibbiy sug‘urta joriy etilishi davolanishga sarflanadigan shaxsiy xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

2.Strategik xarid va xizmat ko’rsatuvchi muassasalarda samaradorlikni oshirilib, asossiz gospitalizatsiyalarni kamayadi.

3.Bosqichma-bosqich va maqsadli subsidiyalar bilan amalga oshirilgan kengaytirish moliyaviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Metodologiya

Tadqiqot multimetod (aralash) yondashuviga asoslanadi.Birinchi navbatda, tahliliy-statistik usullar: sog‘liqni saqlash xarajatlari, shaxsiy xarajatlar ulushi, kassalar hisobi va boshqa indikatorlar bo‘yicha deskriptiv tahlil.Shu bilan birga ekonomik modellashtirish: regressiya tahlillari orqali fuqarolar tomonidan qilingan bevosita xarajatlarga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash.Bundan tashqari taqqoslovchi tahlil metodi: qo‘shni va rivojlangan mamlakatlardan muvaffaqiyatli mexanizmlaridan foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekistonda sug‘urta tibbiyotini joriy etish masalasi sog‘liqni saqlash tizimining kelajagini belgilab beruvchi eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tibbiy sug‘urta tizimi aholini moliyaviy himoya qilish, xizmatlar qamrovini kengaytirish va sog‘liqni saqlash tizimi samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bois mazkur mexanizmlarni O‘zbekiston sharoitida puxta rejalashtirish va bosqichma-bosqich amalga oshirish nihoyatda dolzarbdir. Quyida tibbiy sug‘urtaning joriy etilishi bo‘yicha muhokama qilinadigan asosiy yo‘nalishlar keltiriladi.

Birinchi yo‘nalish — bosqichma-bosqich joriy etish. Sug‘urta tizimini birdaniga butun mamlakat miqyosida joriy etish moliyaviy barqarorlik va tashkiliy tayyorgarlik nuqtayi nazaridan murakkablik tug‘dirishi mumkin. Shu sababli dastlab tanlangan hududlarda tajriba sifatida boshlash maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, aholining ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlamlari uchun subsidiyalangan shakllar katta ahamiyatga ega. Bunday bosqichma-bosqich yondashuv natijasida tizimning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, keyingi kengaytirishlarda xatolarni bartaraf etish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, hududiy tajribalar asosida milliy integratsiya jarayonini samarali tashkil etish, moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish, hamda boshqaruv mexanizmlarini mustahkamlash mumkin bo‘ladi.

Ikkinchi yo‘nalish — kafolatlangan xizmatlar dasturini belgilash. Sug‘urta tizimining samarali ishlashi uchun avvalo aholiga taqdim etiladigan kafolatlangan xizmatlar hajmi va sifati aniq belgilanishi zarur. Bu dastur o’z ichiga shoshilinch tibbiy yordam, asosiy davolash xizmatlari, bolalar va onalar salomatligini muhofaza qilish, shuningdek muhim dori vositalari va laboratoriya xizmatlari qamrab olinishi lozim. Kafolatlangan xizmatlar aniq belgilansa, bir tomondan bemorlar moliyaviy himoya ostida bo‘ladi, ikkinchi tomondan davlat byudjeti mablag‘lari maqsadli sarflanadi. Natijada, sog‘liqni saqlash tizimi resurslari adolatli taqsimlanadi va aholining ijtimoiy ishonchi ortadi.

Uchinchi yo‘nalish — strategik xarid va to‘lovlari. Tibbiy sug‘urta tizimida xizmat ko‘rsatuvchilarga to‘lov mexanizmlarini isloh qilish ham alohida ahamiyatga ega. Amaliyot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ro‘yxat bo‘yicha to‘lov ,tashxis guruhlari asosida to‘lov va natijaga yo‘naltirilgan to‘lov tizimlari aralashmasi samaradorlikni oshiradi. Bunday mexanizmlar sog‘liqni saqlash muassasalarini asossiz gospitalizatsiyalar va ortiqcha xarajatlarni kamayishiga,xizmat sifatini yaxshilashga undaydi. Strategik xarid mexanizmi orqali resurslar oqilona taqsimlanadi va aholining haqiqiy ehtiyojlariga moslashtiriladi. Bu esa nafaqat tizimning moliyaviy barqarorligini, balki aholining sog‘liq ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish — raqamlashtirish va shaffoflik. Zamonaviy sug‘urta tizimi raqamlashtirishsiz samarali ishlashi amalda mumkin emas. Elektron sog‘liqni saqlash platformalarini joriy etish orqali sug‘urta fondi va tibbiyot muassasalari o‘rtasida shaffof hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Elektron kartalar, elektron retsept tizimi va yagona ma’lumotlar bazasi xizmatlar sifatini monitoring qilishga, korrupsiya xavfini kamaytirishga va moliyalashtirish jarayonlarini tezkor nazorat qilishga imkon beradi. Shuningdek, raqamlashtirish xizmat ko‘rsatish tezligi va bemorlarning qoniqishini ham sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv xalqaro moliya institutlari tomonidan ham samarali mexanizm sifatida e’tirof etilgan.

Umuman olganda, sug‘urta tibbiyotini bosqichma-bosqich joriy etish, kafolatlangan xizmatlar dasturini shakllantirish,tibbiy muassasalarga adolatli va samarali to‘lov mexanizmlarini joriy etish, hamda raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta’minlash O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

XULOSA

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish jarayonida tibbiy sug‘urtaning joriy etilishi shunchaki islohot emas, balki zamon talabi va strategik zaruratdir. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, Germaniya, Fransiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy sug‘urta modeli aholini sifatli va barqaror tibbiy xizmatni ta’minlanishi bilan birga, moliyaviy xarajatlarini kamaytirish va ijtimoiy adolatni mustahkamlashda eng samarali yo’l hisoblanadi. O‘zbekiston uchun ham bosqichma-bosqich sug‘urta tizimini joriy etish orqali davlat budjeti ortiqcha xarajatlarni oldini olish ,aholining sog’lomlashtirish ko’rsatkichi yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash mumkin. Shunday qilib, tibbiy sug‘urta O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining kelajagi uchun eng muhim poydevor hisoblanadi.

ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari. – Toshkent.

2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. “2023–2025 yillarda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”. – Toshkent, 2023.

3. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). “Health financing for universal coverage”. Geneva: WHO, 2022.

4. World Bank. “Uzbekistan Health Sector Public Expenditure Review”. Washington, D.C., 2021.

5. Kutzin, J. Health financing for universal coverage and health system performance: concepts and implications for policy. Bulletin of the World Health Organization, 2013; 91: 602–611.

6. Musayev, B., Xudoyberdiyeva, M. “Sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti”. – Toshkent: TTA nashriyoti, 2022.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIDA MIKROBIOLOGIYANING RO‘LI

Sadullayev O.Q.,Samandarova B.S., Davletmuratova M.G.
Dinalieva D.M.,Nurullayev S.X.
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti.

Annotatsiya: Oziq-ovqat xavfsizligi inson salomatligi, iqtisodiy barqarorlik va global barqaror rivojlanish uchun muhim omildir. Mikrobiologiya esa ushbu sohada oziq-ovqatni ishlab chiqarish, saqlash, qadoqlash va tarqatish bosqichlarida inson hayoti uchun xavf soladigan mikroblarni aniqlash va ularning ko‘payishini nazorat qilishi orqali sog‘liq uchun xavflarni kamaytiradi. Ushbu maqolada biz oziq-ovqat xavfsizligida mikrobiologiyaning ro‘li, muommolari, imkoniyatlari va istiqbollari haqida yoritib beramiz.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, mikrobiologiya, patogenlar, mikrobiologik xavf, foydali mikroorganizmlar, biotexnologiya, molekulyar diagnostika.

Аннотация. Безопасность пищевых продуктов является важным фактором для здоровья человека, экономической стабильности и глобального устойчивого развития. Микробиология играет ключевую роль на всех этапах производства, хранения, упаковки и распределения пищевых продуктов, выявляя патогенные микроорганизмы и контролируя их размножение, тем самым снижая риски для здоровья. В данной статье рассматриваются роль микробиологии в обеспечении пищевой безопасности, существующие проблемы, потенциальные возможности и перспективы развития в этой области.

Ключевые слова: пищевая безопасность, микробиология, патогены, микробиологические риски, полезные микроорганизмы, биотехнология, молекулярная диагностика.

Annotation. Food safety is a crucial factor for human health, economic stability, and global sustainable development. Microbiology plays a key role in detecting and controlling pathogenic microorganisms at every stage of food production, storage, packaging, and distribution, thereby reducing health risks. This article explores the role of microbiology in food safety, addressing its challenges, opportunities, and future prospects in the field.

Keywords: food safety, microbiology, pathogens, microbiological hazards, beneficial microorganisms, biotechnology, molecular diagnostics.

Bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarining mikrobiologik ifloslanishi sog‘liq uchun eng katta tahdidlar sirasiga kiradi. Tadqiqotlar natijasiga va jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’limotlriga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 600 million kishi mikroblar bilan ifloslangan oziq-ovqatni iste’mol qilish natijasida kasallanadi va 420 ming kishi bu sababli hayotdan ko‘z yumadi. Bu holat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda mikrobiologiya fanining beqiyos ahamiyatga ega ekanligini va dolzarb muommolar sirasiga kirishini namoyon etadi.

*Tadqiqot maqsadi shundan iboratki o*ziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta’minlashda mikrobiologiyaning o‘rni va ahamiyatini chuqur ilmiy asosda o‘rganish, oziq-ovqat orqali yuqadigan mikroorganizmlar (patogen va nopatogen miroblar)ni aniqlash va ularning salomatlikka ta’sirini tahlil qilishdan iborat. Ushbu ilmiy ish orqali oziq-ovqat xavfsizligi sohasida mavjud muommolarni aniqlash, ularning yechimiga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni tavsiya etish ham ko‘zda tutiladi.

Tadqiqot materiallari va usullari. Mazkur maqola ilmiy-nazariy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (JSST, FAO, EFSA, AQSh CDC) hamda O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-gigiyena normalari (SanPIN) ga tayanib umumlashtirildi. Shuningdek, mikrobiologiya, oziq-ovqat xavfsizligi, epidemiologiya va toksikologiya sohasidagi darsliklar, maqolalar, ilmiy tadqiqotlar va statistik ma’limotlar asos qilib olindi. Tadqiqotda nazariy tahlil usuli: mavjud ma’lumotlar asosida oziq-ovqatdagi mikrobiologik xavflar, ularning manbalari, inson salomatligiga

tahdidi va oldini olish choralari o‘rganildi. Shuningdek, solishtirma tahlil metodi asosida turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan oziq-ovqat xavfsizligi tizimlari hamda mikrobiologik nazorat standartlari o‘zaro taqqoslab tahlil qilindi.

Oziq-ovqat mahsulotlarida uchraydigan mikrobiologik xavflar, odatda, patogen bakteriyalar, viruslar, zamburug‘lar yoki ularning toksinari bilan bog‘liq. Eng keng tarqalgan patogenlar quyidagi oziq-ovqat mahsulotlarda uchrashi aniqlandi: parranda go‘shti, tuxum, sazavotlarda-Salmonella spp.ni uchrashi qorindagi og‘riq, diareya, isitma kabi belgilar bilan nomoyon bo‘ladi. Yiliga 93 million odamda ushbu holat qayt etiladi. Ifloslangan go‘sht, sabzavotlar yoki suvda-Escherichia coli O157:H7 shtammini uchrashi, gemmorogik kolit va bolalarda gemolitik-uremik sindrom chaqiradi. Yumshoq pishloq, kolbasa va tayyor ovqatlardan-Listeria monocytogenes mikroorganizmini inson organizmiga yuqishi kuzatilmoqda. Ayniqsa homilador ayollar va immuniteti zaif odamlar uchun xavfli bo‘lib bu sepsis, meningit, homila tushishi kabi havfli holatlarni yuzaga chiqaradi. Xom yoki kam pishirilgan parranda go’shti va xom sutda-Campylobacter jejuni kabilar uchrab, ich ketish, qusish va og‘ir enteritlarga sababchi bo‘ladi. Mikrobiologik xavflar va asosiy muommolar qatoriga yana biofilmlar va ularning barqarorligini ham kiritishimiz mumkin. Mikrobial biofilmlar oziq-ovqat ishlab chiqarish uskunalarida paydo bo‘lib, dezifeksiya jarayonlariga chidamli bo‘lishi mumkin. Bu esa doimiy mikribiologik kontaminatsiyaga olib keladi. Yana shuni aytish mumkinki xavfli tendensiyalardan biri bu-oziq-ovqat zanjirida antibiotikga chidamli bakteriyalarning ko‘payishi Hisoblanib,bu sog‘liqni saqlash tizimi uchun global katta havf tug‘diradi. Bundan tashqari ko‘pgina mamlakatlarda real vaqtli mikrobiologik nazorat tizimlari joriy qilinmagan, yani raqamli monitoring yetishmaydi. Bu esa havfli mahsulotlarning istemolchiga yetib borish ehtimolini oshiradi.

Oziq-ovqat mahsulotlarida xavfli mikroorganizmlardan tashqari ko‘plab foydali mikroorganizmlar ham uchraydi. Ayniqsa, probiotiklar va fermentatsiya jarayonida ishtirok etuvchi bakteriyalar oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi, saqlanishi, hazm bo‘lishi va sog‘likga foydaliligini oshiradi.

Mikroorganizmlar turi	**Ko‘p uchraydigan oziq-ovqat mahsuloti**	**Foydali ta’siri**
Lactobacillus acidophilus	Qatiq, kefir, probiotik ichimliklar	Ichak mikroflorasini tiklaydi, immunitetni oshiradi
Lactobacillus bulgaricus	Qatiq va yogurt (ayniqsa tabiiy qatiq)	Sutni parchalaydi, laktoza hosil qiladi
Bifidobacterium bifidum	Bolalar ovqati, yogurtlar	Disbakteriozni kamaytiradi, vitamin sintezini kuchaytiradi
Streptococcus thermophilus	Qatiq va yogurt	Fermentatsiyani tezlashtiradi, allergik reaksiyani kamaytiradi
Saccharomyces cerevisiae	Non, vino, pivo	Fermentatsiya (spirt va CO_2 hosil qiladi), B vitaminni ishlab chiqaradi
Propionibacterium freudenreichii	Pishloq (ayniqsa Shveytsariya pishlog’i)	B12 vitamini ishlab chiqaradi, gaz hosil qilib pishloqdagi teshiklarni hosil qiladi

JSST ma’limotlariga ko‘ra, har yili 1 milliarddan ortiq odam foydali mikroorganizmlar (probiotiklar) ishtirokidagi mahsulotlar iste’mol qiladi. Qatiqda Lactobacillus soni odatda 1 gramda 10^6-10^8 oralig’ida bo‘ladi. Kefirda foydali bakteriyalar soni ko‘proq- 1 ml ichimlikda 10^8-10^9 bo’lishi mumkin. Yurtimizda yiliga o‘rtacha 500 ming tonnadan ortiq qatiq va yogurt mahsulotlari ishlab chiqariladi, bu esa probiotik oziq-ovqatlarning aholi orasida keng iste’mol qilinishini anglatadi. O‘zbek xalq taomlarida (masalan, qatiq, suzma, ayron, xamir taomlar) tabiiy fermentatsiyadan foydalangan holda tayyorlanadi. Bu mahsulotlarda antibiotiksiz, tabiiy holatda o‘sadigan mikrofloralar mavjud. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligi rivojlangan hudud (Andijon, Qashqadaryo, Farg’ona, Samarqand) hisoblanib, probiotik potentsialga ega sut mahsulotlari ishlab chiqarilishi ko’paymoqda. Yurtimizda oziq-ovqat sifatini nazorat qiluvchi labaratoriyalar ham mavjud bo‘lib, bu laboratoriyalarda asosan mahsulotdagi mikroorganizmlar soni nazorat qilinadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini taminash uchun biz bugungi kunda quyidagilarni yanada rivojlantirishimish kerak.Molekulyar diagnostika va tezkor mikrobiologik nazoratni rivojlantirish va real vaqtli PZR, NGS texnologiyasi (genetik ketma-ketlikni aniqlash), biosensorlar kabi vositalarni ishlab chiqarish karxonalarida joriy etish zarur. Bu yondashuv patogen mikroorganizmlarni inkubatsiyasiz aniqlash va ta’minot zanjirida tarqalish xavfini minimal darajaga tushiradi.

Oziq-ovqat xavfsizligini raqamlashtirish va sun’iy intellektdan foydalanish. Sun’iy intellekt (AI) va Big Data (katta hajmdagi ma’limotlar) asosida ishlovchi algoritmlar yordamida mahsulotning xavfsizlik holati bo‘yicha prognostik tahlillar olib borish, kontaminatsiya ehtimoli bo‘lgan nuqtalarni oldindan aniqlash, ishlab chiqarish jarayonida avtomatik ogohlantirish tizimlarini joriy etish mumkin.

Xalqoro standartlarga mos sertifikatlash tizimini kuchaytirish: HACCP (xavflarni tahlil qilish va muhim nazorat tuqtalari), ISO 22000 (xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi boshqaruv standarti), GLOBAL G.A.P. (global yaxshi qishloq xo’jaligi amaliyotlari) tizimlari: korxonalarda xavf tahlili va nazorat nuqtalari aniqlanishiga, mahsulotning har bir bosqichda izchil monitoring qilinishiga imkon beradi. O‘zbekistonda bu tizimlar hali to‘liq tatbiq etilmagan ko‘plab kichik ishlab chiqaruvchilar mavjud.Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga xalqoro standartlar asosida kadrlar tayyorlash, auditorlik tizimlari yaratish va moliyaviy rag’batlantirish mexanizmlarini joriy etish lozim.

Mikrobiom va probiotik salomatlik yondashuvini keng joriy etish. Ilmiy tatqiqotlar oziq-ovqat orqali ichak mikroflorasini muvozanatda ushlash, immunitet, ruhiy salomatlik va surunkali kasalliklar profilaktikasida muhim ro‘l o‘ynashini isbotladi. Shu sababli foydali mikroorganizmlar bilan boyitilgan oziq-ovqatlar (probiotik va simbiotiklar) ishlab chiqarishni kengaytirish, fermentatsiyalangan an’anaviy mahsulotlarni ilmiy asosda modernizatsiya qilish, mikrobiomga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash kerak. Yuqori texnologiyalarni joriy etish bilan birga, jamiyatda oziq-ovqat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish muhim. Buning uchun maktab va oliy ta’lim tizimida oziq-ovqat xavfsizligi asoslarini o‘qitish, ilmiy tadqiqot institutlari va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida hamkorlik grantlarini ochish, iste’molchilarga mo‘ljallangan xavfsiz ovqatlanish bo‘yicha milliy axborot platformalarini yaratish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki oziq-ovqat havfsizligi-mikrobiologik xavflarni nazorat qilish orqali jamiyat sog‘lig’ini himoya qilishning muhim strategik vositasi hisoblanadi. Mikrobiologiya va gigiena fanlari bu jarayonning yuragi bo’lib, u nafaqat muommolarni aniqlashda, balki ularni hal qilishda zamonaviy va istiqbolli yechimlar taklif etmoqda. Mikrobiologik xavflarni erta aniqlash, xavfsiz ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish, xalqaro standartlarni kengaytirish va sog’lom iste’mol madaniyatini shakllantirish orqali O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligining yangi bosqichiga chiqa oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. JSST. (2023). Oziq-ovqat xavsizligi bo’yicha faktlar varaqasi..

2. JSST, 2023; KNOM (Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari, AQSH), 2022; YOXA (Yevropa oziq-ovqat xavfsizligi agentligi) jurnal nashrlari.

3. U.A. Kadirov., A.S.Raximov. “Oziq-ovqat gigiyenasi va xavfsizligi” Toshkent farmatsevtika instituti, 2021.

4.R.I.Tursunov., N.X.Sattorova. “Oziq-ovqat mikrobiologiyasi”. Toshkent kimyo-texnologiya instituti o‘quv qo‘llanmasi. 2020.

5. D.T.Po‘latov., L.S. Abdurahmonova “Biotexnologiya va oziq-ovqat mikrobiologiyasi asoslari” Andijon qishloq xo’jaligi instituti. 2022.

6.B.R. Normurodov. “Oziq-ovqat xavfsizligi va standartlashtirish” 2019.

7.Sh. N. Komilov. “Mikrobiologiya va oziq-ovqat mahsulotlari gigiyenasi” “O’qituvchi”, 2018.

8. O‘zbekiston Respublikasi SanPIN 0272-09. Oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya me’yorlari.

9.G‘niyeva M.T.(2021). Oziq-ovqat xavfsizligi va sanitariya gigiena. Samarqand.

10. Raxmatov A.X., Yo’ldoshev M.R.(2020). Mikrobiologiya asoslari. Toshkent: Tibbiyot nashiryoti.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

CLINICAL AND LABORATORY ASSESSMENT OF RENAL DYSFUNCTION IN LIVER CIRRHOSIS

Anagul Samadova
Assistant at Urgench Branch of Tashkent Medical Academy, department of internal disease at regional hospital of Khorezm region, Urgench, Uzbekistan. (samadovaanagul756@gmail.com)

Introduction

Liver cirrhosis is one of the most common diseases worldwide, associated with high morbidity and mortality. One of its severe complications is renal dysfunction, particularly hepatorenal syndrome. This syndrome develops without morphological changes but has severe clinical outcomes, often resulting in a fatal course. Traditional laboratory parameters (creatinine, urea, glomerular filtration rate) lack sufficient sensitivity in diagnosis and prognosis. Recently, cystatin C has attracted considerable scientific interest as a promising biomarker for early detection of renal dysfunction. Therefore, assessing renal impairment in liver cirrhosis and determining the prognostic value of cystatin C is of great relevance.

Abstract

The study investigated the significance of clinical and laboratory parameters and cystatin C levels in assessing renal dysfunction in patients with liver cirrhosis. A total of 90 patients and 30 healthy controls were examined. Patients with renal dysfunction showed significantly increased creatinine, urea, and cystatin C levels, with a decreased glomerular filtration rate ($p<0.05$). Cystatin C demonstrated a negative correlation with GFR and a positive correlation with creatinine and urea. The findings suggest that cystatin C may serve as an additional marker for early detection and prognostic evaluation of hepatorenal syndrome.

Keywords

Liver cirrhosis, renal dysfunction, hepatorenal syndrome, cystatin C, glomerular filtration rate.

Клинико-лабораторная оценка почечной дисфункции при циррозе печени

Анагуль Самадова
Ассистент Ургенчского филиала Ташкентской медицинской академии, кафедра внутренних болезней областной больницы Хорезмской области, Ургенч, Узбекистан.
(samadovaanagul756@gmail.com)

Введение

Цирроз печени является одним из наиболее распространённых заболеваний в мире, приводящим к высокой инвалидизации и смертности. Тяжёлым осложнением цирроза является почечная дисфункция, в частности гепаторенальный синдром. Этот синдром развивается без морфологических изменений, однако его клинические последствия крайне тяжёлые и нередко заканчиваются летально. Традиционные лабораторные показатели (креатинин, мочевина, скорость клубочковой фильтрации) обладают недостаточной чувствительностью в диагностике и прогнозе. В последние годы цистатин С вызывает большой научный интерес как перспективный биомаркер для раннего выявления почечной дисфункции. В связи с этим актуальным является клинико-лабораторная оценка поражения почек при циррозе печени и определение прогностической роли цистатина С.

Аннотация

В статье изучено значение клинико-лабораторных показателей и уровня цистатина С в оценке почечной дисфункции у больных циррозом печени. Обследовано 90 пациентов и 30 здоровых лиц контрольной группы. У больных с почечной дисфункцией выявлено достоверное

повышение креатинина, мочевины и цистатина С, а также снижение СКФ (p<0,05). Установлена отрицательная корреляция цистатина С со СКФ и положительная – с креатинином и мочевиной. Полученные результаты свидетельствуют о возможности применения цистатина С в качестве дополнительного маркера для ранней диагностики и прогностической оценки гепаторенального синдрома.

Ключевые слова

Цирроз печени, почечная дисфункция, гепаторенальный синдром, цистатин С, скорость клубочковой фильтрации.

JIGAR SIRROZI FONIDA BUYRAK DISFUNKSIYASINI KLINIKO-LABORATOR BAHOLASH

Anagul Samadova

Assistant at Urgench Branch of Tashkent Medical Academy, department of internal disease at regional hospital of Khorezm region, Urgench, Uzbekistan. (samadovaanagul756@gmail.com)

Kirish

Jigar sirrozi — dunyo miqyosida keng tarqalgan va yuqori nogironlik hamda o‘lim ko‘rsatkichlariga olib keluvchi kasalliklardan biridir. Sirrozning og‘ir asoratlaridan biri buyrak disfunksiyasi, xususan gepatorenal sindrom hisoblanadi. Ushbu sindrom morfologik o‘zgarishlarsiz rivojlanadi, ammo klinik oqibatlari og‘ir bo‘lib, ko‘pincha letal yakun bilan kechadi. An’anaviy laborator ko‘rsatkichlar (kreatinin, mochevina, glomerulyar filtrlash tezligi) diagnostika va prognozda yetarli sezgirlikka ega emas. So‘nggi yillarda sistotin C buyrak disfunksiyasini erta aniqlashda istiqbolli biomarker sifatida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Shu sababli, jigar sirrozi fonida buyrak shikastlanishini kliniko-laborator jihatdan baholash va sistotin C ning prognostik ahamiyatini aniqlash dolzarb hisoblanadi.

Annotatsiya.

Maqolada jigar sirrozi bemorlarida buyrak disfunksiyasini baholashda kliniko-laborator ko‘rsatkichlar va sistotin C darajasining ahamiyati o‘rganildi. 90 nafar bemor va 30 nafar sog‘lom nazorat guruhi tekshirildi. Buyrak disfunksiyasi aniqlangan bemorlarda kreatinin, mochevina va sistotin C darajasi sezilarli yuqori bo‘lib, glomerulyar filtrlash tezligi pasaygani kuzatildi (p<0,05). Sistotin C ning KFT bilan salbiy, kreatinin va mochevina bilan esa ijobiy korrelyatsiyasi aniqlangan. Olingan natijalar sistotin C ni gepatorenal sindromni erta aniqlash va prognoz bahosida qo‘shimcha marker sifatida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Jigar sirrozi, buyrak disfunksiyasi, gepatorenal sindrom, sistotin C, glomerulyar filtrlash tezligi.

Dolzarbligi. Yaqin yillar ichida gepatorenal sindrom muammosi jiddiyligi shifokorlar tarafidan alohida e’tiborga olina bohshlandi.Shu davrgacha gepatarenal sindrom boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarning "soyasida" qolib kelgan.Jigar sirrozi oqibatlariga qiziqish 2000 yildan boshlarida katta epidemiologik tadqiqotlar jigar kasalliklari populyatsiyadagi buyrak funksiyasining buzilishining yuqori chastotasini ko‘rsatadigan ma’lumotlar paydo bo‘lgandan keyin, shuningdek, butun dunyo bo‘ylab gemodializ xizmatlariga qarshi kurashish mumkin emasligi ma’lum bo‘lganda va buyrak yetishmovchiligi (BE) bo‘lgan bemorlar sonining tobora ko‘payib borishi bilan paydo bo‘ldi.

Sirroz davrida qon plazmasidagi renin va norepinefrin kontsentratsiyasining progressiv o'sishiga qaramay, bu arterial vazodilatatsiyaning kuchayishini ko'rsatadi.Simpatik asab tizimining progressiv stimulyatsiyasiga qaramay, yurak urish tezligi ham oshmaydi. Bu xususiyat shuni ko'rsatadiki, sirrozda qon aylanishi disfunktsiyasi nafaqat arterial vazodilatatsiyaning rivojlanishi, balki yurakning

oldingi yuklanishining pasayishiga javoban yurakning yurak chiqishini oshira olmasligi bilan bog'liq . [1, 4,6].

Materiallar va uslublar: Tadqiqot ishimiz 90 ta jigar sirrozi bemorlarida kuzatilgan va 30 ta nazorat guruxidagi sog‘lom bemorlarni laborator va instumental tekshirishlar natijalariga asoslangan.

Tekshirishga jigar sirrozi bemorlarda SBK bor va SBK yo‘q bemorlar guruxi olingan.Tadqiqotga olingan barcha bemorlar laborator - instrumental tekshiruvlardan o‘tkazildi.

Tekshirishga olingan 90 ta bemor asosan “xodisa - nazorat” asosida 2 ta asosiy guruxlarga bo‘lib o‘rganildi.

1 – gurux. Jigar sirrozli bemorlarda buyraklar disfunksiyasi rivojlanmagan guruxi (n=45). Erkak n=22 (49 %), ayol n=23 (51 %), o‘rtacha yoshi -42.5

2– gurux. Jigar sirrozli bemorlarda buyraklar disfunksiyasi rivojlangan guruxi (n=45). Erkak n=27(60 %), ayol n=18 (40%), o‘rtacha yoshi -50,3

Tadqiqotga olingan jigar sirrozi fonida buyraklar disfunksiyasi rivojlangan va buyraklar disfunksiyasi rivojlanmagan barcha bemorlardan quyidagi kliniko-bioximik tekshiruvlar o‘tkazildi: mikroalbuminuriya (MAU), qonda ALT,AST,billuribin , sistotin C,kreatinin,mochevina, xolesterin (XS), triglitseridlar (TGL), yuqori va past zichlikdagi lipoproteidlar (YuZLP, PZLP) hamda koptokchalar filtratsiyasi tezligi (KFT), buyrak tomirlari dopplerografiyasi (BTDG),jigar elastografiyasi (Fibroscan)

Koptokchalarning filtratsiya tezligi SKD-EPI (ml/min/1.73m2) formulasi bilan aniqlandi.

Tadqiqotda olingan ma’lumotlarga statistik ishlov berishda MS Excel (2010) paketli kompyuter dasturidan foydalanildi. Barcha jadvallarda keltirilgan ko‘rsatkichlarning o‘rtacha arifmetik va standart og‘ishlari (M±m) hisoblanildi. Taqqoslanayotgan guruhlardagi ko‘rsatkichlar farqi ishochliligi Styudent mezoni bo‘yicha baholandi, bunda $p<0,05$ qilib belgilandi.

Natijalar va ularning muxokamasi

Tekshirishga olingan 1 va 2 guruh bemorlar o‘rtasida buyrakning funksional holati siydikdagi MAU, qonning bioximik taxlili ALT,AST,billuribin , sistotin C,kreatinin,mochevina, xolesterin,triglitseridlar, yuqori va past zichlikdagi lipoproteidlar, KFT va buyrak tomirlari doplergrafiyasi, jigar fibroskan natijalari asosida o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari ko‘ra 1 va 2 guruhlarni o‘zaro qiyoslaganimizda 1-chi guruhga nisbatan 2-guruhda siydikda MAU ishonchli darajada ko‘p ajralishi kuzatildi, mos ravishda (31,37±2,37-90,35±17,21). Siydikda MAU miqdorining oshishi qondagi mochevina (r=0.36), kreatinin (r=0.40) va buyrak tomirlari doplergrafiyasi rezistentlik indeksi (RI) bilan ishonchli musbat korrelyatsion bog‘liklik borligini ko‘rsatdi.

Jadval-1

Labarator ko‘rsatkichlar	**1-guruh**	**2-guruh**
Yoshi	42.5±0,83	50.5±2,85
AU	30,27±2,47	91,56±18,11*
Alt	56,2±2,32	52,4±2,47*
Ast	52,3±0,27	49,6±0,81*
Sistotin C	2,43±0,18	7,16±0,80*
Mochevina	4,32±0,21	9,01±0,82*
Kreatinin	68,8±2,36	141,67±21,25*
KFT	91,14±3,08	45,6±70,55*
XS	3,9±0,17	5,1±0,12*
TGL	1,71±0,43	3,41±0,19
PZLP	3,07±0,14	3,54±0,08*
YuZLP	1,17±0,05	0,93±0,05

Izoh: * - ishonchlilik darajasi ($p<0.05$).

O‘rganilayotgan guruhlarda buyrak funksional holatini baholovchi qondagi mochevina, kreatinin va KFT ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Bunga ko‘ra 1 va 2-guruh bemorlaridagi natijalarini guruhlararo qiyoslab o‘rganganimizda arterial gipertenziya bor buyrak funksiyasi buzilgan guruh bemorlarida buyraklarning funksional holati pasayganligi kuzatildi va ishonchli darajada qayd qilindi, mos ravishda 91,14±3,08- 45,6±70,55. Qonda mochevina, kreatininning oshishi KFT kamayishi bilan kuzatildi. Mochevina va kreatinin ko‘rsatkichlari o‘rtasida ishonchli musbat korrelyatsion bog‘liklik borligi (r=0.85) hamda mochevina KFT va kreatinin KFT o‘rtasida ishonchli manfiy korrelyatsion bog‘liqlik borligi aniqlandi, mos ravishda (r=0.84, r=0.84).

Buyrak qon tomirlari RI (r=-0.62) va PI (r=-0.34) ko‘rsatkichlari bilan ishonchli manfiy korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi. KFT va XS bilan esa musbat bog‘liqlik aniqlandi mos ravishda (r=0.67, r=0.25).

Natijalar shuni ko‘rsatdiki jigar sirrozi bemorlarda buyraklar disfunksiyasi rivojlanishi bilan kechadi va buyrakning funksional holatini yomonlashtiradi. 1-jadval va 2-jadvallar

1chi va 2 guruhlar o‘rtasida sistotin C o‘rganilganda 2-guruhda 1-guruhga nisbatan yuqoriligi kuzatildi, sistotin C qondagi miqdorining oshishi buyrakda qon aylanishining Vmax (r=-0.28) va KFTning (r=-0.28) pasayishi yani manfiy korrelyatsiyali bog‘liqlik bilan kuzatildi.

Xulosa. Shunday qilib, gemodinamik va metabolik omillar mustaqil ravishda va umumiy yo‘lni faollashtirish orqali surunkali buyrak kasalligida kuzatiladigan xarakterli disfunksiyaga yordam beradi.

Buyrak disfunksiyasi buyrak mikrosirkulyatsiyasida metabolik va gemodinamik omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Buyrak disfunksiyasining patogenetik mexanizmlarini molekulyar biologik o‘rganish ushbu patologiyaning oldini olishda yangi istiqbolli yo‘nalishlarni ishlab chiqishga olib kelishi shubxasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Jumaeva, M. (2023). GEPATORENAL SINDROM HAQIDA TUSHUNCHA. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(7), 9–18. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/18616

2. Samadova A. B. et al. PREVENTIVE AND DIAGNOSTIC SIGNIFICANCE OF ECG RESULTS IN PATIENTS WITH DIABETES MELLITUS //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 36-39.

3. Ataxonovich J. A., Samadova A., Maratovna D. D. MODERN TREATMENT METHODS FOR HEPATORENAL SYNDROME //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 12. – С. 147-154.

4. Ataxonovich, Jabbarov Azimboy, and Shegay Olga Alekseyevna. "HEPATORENAL SYNDROME PREDICTORS OF CLINICAL, PATHOGENETIC, AND GENETIC FACTORS." *Western European Journal of Medicine and Medical Science* 2.12 (2024): 20-27.

5. Ruzmetov N. A., Samadova A. B., Abdullayev Q. F. DIAGNOSIS OF KIDNEY DAMAGE AND CHRONIC KIDNEY DISEASE AFTER LIVER DISEASES AMONG THE POPULATION OF KHOREZM REGION //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2024. – Т. 2. – №. 56. – С. 235-240.

6.Бакулин И. Г., Варламичева А. А. Гепаторенальный синдром: практические рекомендации по диагностике и лечению //Альманах клинической медицины. – 2014. – №. 33. – С. 23-31.

7.Бахтиярова Г. К. Гепаторенальный синдром описание клинического случая //Клиническая медицина Казахстана. – 2014. – №. S1-1. – С. 102-103.

8.Болотова Е. В., Явлинская В. В., Дудникова А. В. Минерально-костные нарушения у больных хронической обструктивной болезнью легких в сочетании с хронической болезнью почек //Клиническая нефрология. – 2016. – №. 3-4. – С. 75-79.

9.Виллевальде С. В. и др. Сочетание нарушений функции почек и печени при декомпенсации сердечной недостаточности //Терапевтический архив. – 2016. – Т. 88. – №. 6. – С. 40-44.

10.Вирстюк Н. Г., Сливка Н. А. Диагностическая ценность допплерографического исследования при гепаторенальном синдроме //Гастроэнтерологя. – 2017. – Т. 51. – №. 1. – С. 8-15.

11.Карзакова Л. М. и др. Иммунные механизмы развития гепаторенального синдрома при циррозе печени //Acta Medica Eurasica. – 2020. – №. 3. – С. 7-19.

12.Козич Е. А., Красавцев Е. Л. Предикторы развития гепаторенального синдрома //Проблемы здоровья и экологии. – 2021. – Т. 18. – №. 4. – С. 69-73.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

UDC: 614.253.5:616-009.7:616-089

MORBIDITY STUDY AND COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF RISK FACTORS FOR NURSES IN THE SURGICAL DEPARTMENT OF THE EMERGENCY MEDICAL CENTER

Mamatkulov Bahromjon Mamatkulovich
DSc (Med), Professor, Director of the School of Public Health of the Tashkent State Medical University, e-mail: tma.sph@gmail.com, https://orcid.org/0009-0008-5801-724X, tel;+998998511738

Sabirova Salomat Jumanazarovna
Candidate of the School of Public Health of the Tashkent State Medical University, Assistant of the Department of Public Health and General Hygiene of the Urgench State Institute, e-mail: ssobirova.77@mail.ru, https://orcid.org/0009-0005-6532-9258, tel;+998909276337

Urazalieva Ilmira Ravkatovna
Cand. Sci (Med), Assoc. Professor of the School of Public Health of the Tashkent State Medical University, e-mail: airmeduz@gmail.com, https://orcid.org/0000-0003-1281-0935, tel;+998901751256

Annotatsiya. Ushbu maqola shoshilinch tibbiy yordam markazi jarrohlik bo’limlari hamshiralari kasallanishining ba’zi xususiyatlari va xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilishga bag’ishlangan. Tadqiqot natijalariga ko’ra, hamshiralarning yoshi va ish tajribasi oshishi bilan kasallanishning umumiy darajasi oshadi va kasallanish tarkibi o’zgaradi. Ishlab chiqilgan prognostik jadvalni qo’llash har bir aniq holatda patologik xavf ehtimolini baholashga yordam beradi. Hamshiralarning sog’lig’i ko’rsatkichlarini o’z vaqtida tahlil qilish va baholash, zarur individual va guruhli tibbiy, ijtimoiy va terapevtik tadbirlarni o’tkazish hamshiralarning kasallanishini kamaytirishga va ulardan tibbiy muassasada oqilona foydalanishga va tibbiy yordam sifatini oshirishga yordam beradi.

Kalit so’zlar: jarrohlik bo’limi hamshiralari, kasallanish, xavf omillari, integral baholash.

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному анализу некоторых свойств и характеристик заболеваемости медицинских сестер хирургических отделений центра неотложной медицинской помощи. По результатам исследования было установлено, что с увеличением возраста и опыта работы медсестер увеличивается общий уровень заболеваемости и меняется структура заболеваемости. Применение разработанную прогностическую таблицу может помочь в оценки вероятности патологического риска в каждом конкретном случае. Своевременный анализ и оценка показателей здоровья медсестер, проведение необходимых индивидуальных и групповых медико-социальных и лечебно-оздоровительных мероприятий помогут сокращать уровень заболеваемости медсестёр и рациональное использование ими в медицинском учреждении и повышать качество медицинского обслуживания.

Ключевые слова: медицинские сестры хирургического отделения, заболеваемость, факторы риска, интегральные оценки.

Annotation. This article is devoted to the integration analysis of some properties and characteristics of morbidity of nurses in surgical departments of the emergency medical center. According to the results of the study, it was found that with increasing age and work experience of nurses, the overall incidence rate increases and the structure of morbidity changes. The application

of the developed prognostic table can help in assessing the probability of pathological risk in each specific case. Timely analysis and assessment of nurses' health indicators, carrying out the necessary individual and group medical, social and therapeutic measures will help to reduce the incidence of nurses and their rational use in a medical institution and improve the quality of medical care.

Keywords: surgical department nurses, morbidity, risk factors, integral assessments.

Introduction. In the provision of qualified nursing assistance to the population, the health of medical personnel – nurses is important. In the studies carried out, it was found that every fifth nurse does not care about her health, the maintenance and strengthening of nurses' health is influenced, firstly, by a rational work and rest regime, secondly, timely and complete procedural of emerging diseases, thirdly, a psychologically favorable diet, fourthly, physical activity, fifth, the rejection of bad habits [1,3, 5, 11].

10. Yoldoshevich J. K. et al. Injury And Mortality Due To Car Accidents In The Khorezm Region And The Role Of CVD In Them //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2023. – C. 8183-8187. 11. Дусчанов Б. А. и др. О НОВОМ ШТАММЕ КОРОНАВИРУСА «ОМИКРОН». – 2023.

12. Садуллаев О. К., Исмаилова Х. Г. КАК ВОЗДЕЙСТВУЕТ ПАНДЕМИЯ COVID 19 НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКОЕ ОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА В РАЗЛИЧНЫХ ВОЗРАСТАХ И ЕГО ЛЕЧЕНИЕ //«МИКРОБИОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ. – 2023. – С. 160.

13. Садуллаев О. К., Курбаниязова М. З. ИЗУЧЕНИЕ ПЛАЗМОКОАГУЛИРУЮЩЕЙ СПОСОБНОСТИ МИКРООРГАНИЗМОВ, ВЫДЕЛЕННЫХ ИЗ ФЕКАЛИИ ЗДОРОВЫХ И БОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ ДИАРЕЙНЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ПРОЖИВАЮЩИХ В ЭКОЛОГИЧЕСКИ НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 12-8. – С. 48-50.

14. Садуллаев О. К., Сувонов К. Ж. Турли минтакаларда яшовчи хомиладорлар огиз бушлиги махалий иммунитет омиллар холати Услубий кулланма //Ургенч.-2008.-12 б.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

O’ZBEKISTON AHOLISINI TOZA ICHIMLIK SUVI BILAN TA’MINLASH MUAMMOLARI VA ECHIMLARI

Yusupova O.B., Achilova I.Q., Muhammadieva M.
Urganch davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’bekistonda aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash muhimligi, uning hozirgi holati , sog‘liq va ijtimoiy hayotga ta’siri, shuningdek, suv sifati va yetkazib berish tizimlarining samaradorligi tahlil qilinadi. Mavzu bo‘yicha mavjud adabiyotlar ko‘rib chiqilib, toza ichimlik suvi ta’minoti sohasida duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo’yicha amalga oshirilayotgan chora–tadbirlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Toza ichimlik suvi, suv ta’minoti, suv sifati, sanitariya, sog‘liqni saqlash, ekologiya

Проблемы и пути решения обеспечения населения Узбекистана чистой питьевой водой

Юсупова О.Б., Ачилова И.К., Мухаммадиева М
Ургенчский государственный медицинский институт

Аннотация: В статье анализируется важность обеспечения населения чистой питьевой водой в Узбекистане, его современное состояние, влияние на здоровье и социальную жизнь, а также качество воды и эффективность систем доставки. Проводится обзор существующей литературы по данной теме, освещаются проблемы, возникающие в сфере обеспечения населения чистой питьевой водой, и меры по их устранению.

Ключевые слова: чистая питьевая вода, водоснабжение, качество воды, санитария, здоровье, экология.

Problems and solutions of providing the population of Uzbekistan with clean drinking water

Yusupova O.B., Achilova I.Q., Muhammadieva M.
Urgench State Medical Institute

Abstract: This article analyzes the importance of providing the population with clean drinking water in Uzbekistan, its current status, its impact on health and social life, as well as the quality of water and the efficiency of delivery systems. The existing literature on the topic is reviewed, and the problems encountered in the field of clean drinking water supply and measures taken to eliminate them are highlighted.

Keywords: Clean drinking water, water supply, water quality, sanitation, health care, ecology

Kirish. Ichimlik suvi inson hayotining eng muhim va asosiy resurslaridan biri hisoblanadi. Har bir insonning sog‘lom va faol hayot kechirishida toza ichimlik suvi ta’minoti muhim o‘rin tutadi. Suv nafaqat organizmning normal faoliyati uchun zarur bo‘lib, balki gigiyena, sanitariya va ovqatlanish jarayonlarining asosiy qismidir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, ichimlik suvining etishmasligi va uning ifloslanishi turli kasalliklarning aosiy sababchilaridan biri hisoblanadi. Butun dunyo bo‘ylab 2 milliarddan ortiq odam toza ichimlik suviga yetarlicha kira olmaydi. Bu esa ko‘plab sog‘liq muammolarining, ayniqsa suv orqali yuqadigan kasalliklarning ko‘payishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish va shaharsozlik ning kengayishi suv resurslariga bosimni oshirmoqda. Shuningdek, sanoat va qishloq xo‘jaligida ifloslanish darajasi ortishi natijasida ko‘plab suv manbalari zaharlanishi kuzatilmoqda. Bu esa aholining toza ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini qondirishni qiyinlashtiradi. Shu sababli, suv ta’minotining sifat va miqdor jihatdan barqarorligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor o‘nalishlaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston kabi mintaqalarda, ayniqsa qishloq joylarida toza ichimlik suviningyetishmovchiligi aholining sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatib, suv orqali yuqadigankasalliklar tarqalishiga sabab

bo‘lmoqda. Bundan tashqari, suv ta’minotining uzluksizligi va sifatsizligi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ham to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, aholining toza ichimlik suvi bilan barqaror ta’minlanishi uchun yangi texnologiyalarni joriy etish, suv manbalarini samarali boshqarish va sanitariya madaniyatini oshirish zarur. Ushbu maqolada, toza ichimlik suvi ta’minoti sohasidagi mavjud muammolar, ularning sabab va oqibatlari, shuningdek, mavjud amaliyotlar va taklif etilayotgan yechimlar tahlil qilinadi. Maqolada aholi sog‘lig‘ini yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta’minlash yo‘lida suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Adabiyotlar tahlili. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasi ko‘plab mahalliy va xalqarotadqiqotlarda keng yoritilgan. Jumladan, Jurayev S. S., Yakubov Q. A. va Abdullayev M.R. (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Namangan viloyatidagi suv ta’minoti tizimlarining holati o‘rganilgan bo‘lib, unda suv inshootlarining eskirganligi va resurslarning cheklanganligi asosiy muammo sifatida ko‘rsatilgan [1]. Tadqiqot mualliflari mavjud infratuzilmani yangilash va modernizatsiya qilish zaruriyatini ta’kidlaganlar.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi farmonida esa suv resurslarini boshqarish, ularni tejash, zamonaviy texnologiyalar asosida ta’minot tizimlarini tashkil etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [2]. Bu hujjat asosida joylarda suv inshootlarini qayta qurish, yangi quvurlar tortish va aholiga ichimlik suvini yetkazib berish tizimlarini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan chop etilgan yillik hisobotda ichimlik suvi manbalarining ifloslanish darajasi, ularni muntazam ravishda monitoring qilish va nazoratga olish muhimligi alohida ta’kidlangan [3]. Suv sifatining pasayishi aholining sog‘lig‘iga bevosita tahdid soladi, shu bois kimyoviy va mikrobiologik ko‘rsatkichlarni kuzatish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan. Shuningdek, Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi va “O‘zsuvta’minot” AJning so‘nggi yillardagi faoliyati haqida tahlillar ham mavjud bo‘lib, unda respublika miqyosida minglab kilometr ichimlik suvi quvurlari yangilanganligi, suv inshootlari qurilganligi va aholining suv bilan ta’minlanganlik darajasi ortib borayotganligi
qayd etilgan [4], [5]. Bu holat O‘zbekistonda suv ta’minoti bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning amaliy samarasini ko‘rsatadi.

Tahlil va Natijalar. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi besh yil ichida ichimlik suvi bilan ta’minlash sohasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ushbu davrda davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan aholi salomatligini yaxshilash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va suv resurslarini oqilona boshqarish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bunda, avvalo, ichimlik suvi infratuzilmasini rivojlantirish, suv sifati monitoringini kuchaytirish, suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilish va yangi suv inshootlarini qurish ishlari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. 2020–2025 yillarda mamlakat miqyosida minglab kilometr ichimlik suvi tarmoqlari tortildi, minglab suv inshootlari barpo etildi. Natijada, aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi sezilarli darajada oshdi. Jumladan, 2025-yil yanvar oyiga kelib, O‘zbekiston aholisining 80,9 foizi sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlangan. Bu ko‘rsatkich yillar davomida muntazam ortib borayotgani mamlakatdagi ichimlik suvi ta’minoti sohasidagi islohotlarning samaradorligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, hududlar kesimida suv ta’minoti darajasida farqlar saqlanib qolmoqda.

Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida suv ta’minotining sifati va uzluksizligi bo‘yicha qator muammolar mavjudligi qayd etilmoqda. Bu hududlarda suv tarmoqlarining eskirganligi, yangi suv inshootlari yetishmasligi va suv sifatini doimiy nazorat qilish tizimining to‘liq joriy etilmaganligi asosiy sabablar sifatida ko‘rsatiladi.

Ichimlik suvi sifati masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatda suv manbalarining kimyoviy va mikrobiologik holatini muntazam monitoring qilish tizimi joriy etilmoqda. 2025 yilda ichimlik suvi sifatini nazorat qilish bo‘yicha markaziy laboratoriyalar tarmog‘i tashkil etilishi

rejalashtirilmoqda. Ushbu laboratoriyalar suv manbalarining ifloslanish darajasini aniqlash, suv sifatini tahlil qilish va sanitariya-epidemiologik ko‘rsatkichlarni muntazam ravishda nazorat qilishga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, aholiga toza va xavfsiz ichimlik suvini yetkazib berishni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda sanitariya-epidemiologik xizmatlarning imkoniyatlari yetarli emasligi, laboratoriyalar texnik bazasining eskirganligi va malakali mutaxassislar yetishmasligi kabi muammolar ham mavjud. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan investitsiyalar jalb qilinmoqda va yangi texnologiyalar joriy etilmoqda.

Suv ta’minoti tizimlarining samaradorligini oshirish maqsadida, 2024 yilda 147 kilometr ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlari qurildi. Ushbu ishlar natijasida 7581 xonadon ichimlik suvi bilan ta’minlandi, 10 200 nafar aholi birinchi marta sifatli ichimlik suviga ega bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar ayniqsa, qishloq joylarida aholi hayot sifatining yaxshilanishi va sanitariya-epidemiologik holatning barqarorligi uchun muhim hisoblanadi. Ayni paytda, qishloq joylarida, shuningdek, suv yetkazib berish tizimlarining eskirganligi sababli, suv yo‘qotishlarining yuqori darajada bo‘lishi hamon dolzarb masala hisoblanadi. Bu esa suv resurslarining samarali foydalanilmasligi va ichimlik suvi sifati pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, suv ta’minoti tizimlarini modernizatsiya qilish, suv yo‘qotishlarni kamaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Suv manbalarining ifloslanishi muammosi ayniqsa, sanoat korxonalari yaqinidagi hududlarda, shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasida ishlatiladigan agrotexnika vositalari oqib tushadigan hududlarda dolzarbdir. Daryo va ko‘llarning suv sifati doimiy ravishda tahlil qilinadi, ammo ba’zan kimyoviy moddalar va mikroorganizmlar mavjudligi suv sifatini pasaytiradi. Bu holat aholining sog‘lig‘iga tahdid soladi, ayniqsa bolalar, keksa yoshdagi insonlar va immuniteti zaif odamlar uchun xavfli hisoblanadi. Shu bois, suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilish va chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini takomillashtirish ustida ishlar olib borilmoqda. Ichimlik suvi bilan ta’minlash tizimlarini rivojlantirishda jamoatchilikning ham ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Aholining suvdan oqilona foydalanishi, suvni tejash, suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilishga oid targ‘ibot ishlari keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Maktablarda, mahallalarda va ommaviy axborot vositalarida suvni tejash va toza ichimlik suvini saqlash bo‘yicha ta’lim va targ‘ibot tadbirlari olib borilmoqda. Bu esa aholining suv resurslariga bo‘lgan munosabatini ijobiy o‘zgartirishga yordam beradi.

Aholi punktlarida suv ta’minotining uzluksizligini ta’minlash uchun suv tashish texnikalari ham qo‘llanilmoqda. Maxsus suv tashish avtomobillari yordamida markazlashgan ichimlik suvi tizimi yo‘q yoki yetarli bo‘lmagan hududlarga suv yetkazib beriladi. Bu usul ayniqsa, qishloq joylarida va tog‘li hududlarda keng qo‘llanilmoqda. Biroq, bu vaqtinchalik yechim bo‘lib, asosiy vazifa markazlashgan suv ta’minot tizimini kengaytirish va yaxshilashdan iborat.

Kelgusi besh yil uchun O‘zbekiston hukumati ichimlik suvi ta’minoti darajasini 90 foizga yetkazishni rejalashtirmoqda. Bu maqsadga erishish uchun yangi suv inshootlari quriladi, mavjud tarmoqlar rekonstruksiya qilinadi va suv sifatini nazorat qilish tizimi yanada kuchaytiriladi. Suv ta’minoti infratuzilmasining zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishi va raqamlashtirilishi rejalashtirilmoqda, bu esa suv ta’minotidagi yo‘qotishlarni kamaytirish va xizmat sifatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, suv resurslarini muhofaza qilish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Ichimlik suvi bilan ta’minlash sohasidagi ushbu keng qamrovli chora-tadbirlar aholi hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilashga, sanitariya-epidemiologik holatni mustahkamlashga va aholining sog‘lig‘ini himoya qilishga xizmat qiladi. Biroq, bu sohada hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar hamon mavjud. Ular orasida ayrim hududlarda suv ta’minoti tizimlarining eskirganligi, suv sifatining barqaror nazorat qilinmasligi, suv manbalarining ifloslanish xavfi va suv yo‘qotishlarning yuqoriligi bor. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat organlari, xususiy sektor va jamoatchilik o‘rtasida samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Yuqorida ta’kidlanganlar asosida, ichimlik suvi ta’minoti sohasida jadal rivojlanish va sifatli xizmat ko‘rsatish uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar samarali sarflanishi, zamonaviy texnologiyalar joriy qilinishi, mutaxassislarning malakasini oshirish, aholi bilan doimiy muloqot olib borish kabi omillar ustuvor ahamiyatga ega. Suv resurslarining barqaror boshqarilishi, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va suv sifati monitoringini kuchaytirish orqali O‘zbekiston kelajakda ichimlik suvi ta’minoti sohasida yuzaga keladigan barcha muammolarni bartaraf etib, aholining toza va xavfsiz ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondira oladi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi besh yil ichida ichimlik suvi ta’minoti sohasida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatildi. Aholining toza va xavfsiz ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, infratuzilmani yangilash, suv manbalarini muhofaza qilish va suv sifatini doimiy monitoring qilish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, minglab kilometr ichimlik suvi quvurlarining tortilishi, yuzlab suv inshootlarining barpo etilishi va millionlab aholining suv ta’minoti bilan qamrab olinishi bu boradagi ishlarning samaradorligidan dalolat beradi. Biroq, hududiy tengsizlik, eskirgan infratuzilma, suv yo‘qotishlarining yuqoriligi, suv sifati monitoringining ayrim hududlarda yetarli emasligi, suv manbalarining ifloslanish xavfi kabi muammolar hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, qishloq joylari va chekka hududlardagi aholining barqaror ichimlik suvi ta’minotiga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq hal etilmagan. Shu sababli, mavjud muammolarni chuqur tahlil qilgan holda, ularni barqaror, ilmiy asoslangan va texnologik yondashuvlar orqali bartaraf etish zarur. Kelgusi yillarda ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini 90 foizdan ortiq ko‘rsatkichga yetkazish, suv sifatini nazorat qilish laboratoriyalarini tashkil etish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va aholining suv madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish zarur. Suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish orqali mavjud tizimlarning samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jurayev S.S., Yakubov Q.A., Abdullayev M.R. (2023). *Ichimlik suvi ta’minoti tizimidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari*. ResearchEdu. https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4622

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2019). *Ichimlik suvi ta’minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida*. https://lex.uz/

3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi (2020). *Ichimlik suvi manbalarining monitoringi bo‘yicha yillik hisobot*. https://uza.uz

4. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi (2020). *Ichimlik suvi infratuzilmasi rivoji haqida ma’lumot*. https://xabar.uz

5. “O‘zsuvta’minot” AJ (2025). *2030-yilgacha ichimlik suvi ta’minotini oshirish rejalari*. https://uza.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

OLIY TA’LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O’QITUVCHILARI SALOMATLIGINING IJTIMOIY -GIGIENIK JIHATLARINING O’RGANILGANLIGI(ADABIYoTLAR SHARHI)

Yusupova O.B., Atabaeva G. S.
Urganch davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari salomatligining ijtimoiy-gigienik jihatlarining o’rganilganligi to’g’risidagi ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. SHuningdek, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari salomatligi holati, ta’sir qiluvchi kasbiy omillar , ularning turlari, tahlil qilindi va sog’lig’iga ta’sirlari aniqlandi.

Kalit so’zlar: OTM professor-o’qituvchilari, salomatlik, kasb omillari

SOCIO-HYGIENIC ASPECTS OF THE HEALTH OF THE TEACHING STAFF OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (LITERATURE REVIEW)

Yusupova O.B., Atabayeva G. S.
Urgench State Medical Institute

Annotation. This article analyzes the results of a scientific study on the medical and social aspects of the health of the teaching staff of higher educational institutions. The health status of the teaching staff of higher educational institutions, the professional factors influencing it, their types and their impact on health are also analyzed.

Keywords: teachers of higher educational institutions, health, health, professional factors

ИЗУЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ГИГИЕНИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ЗДОРОВЬЕ ПРОФЕССОРСКО-ПРЕПОДОВАТЕЛЬСКОГО СОСТАВА ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ)

Юсупова О.Б., Атабаева Г. С.
Ургенчский государственный медицинский институт

Аннотация. В данной статье проанализированы результаты научного исследования по изучению социально-гигиенических аспектов здоровья профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений. Также проанализировано состояние здоровья профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений, влияющие на него профессиональные факторы, их виды и определено их влияние на здоровье

Ключевые слова: преподаватели высших учебных заведений, здоровье, здоровье, профессиональные факторы

So’nggi yillarda ta’lim sohasi xodimlari, ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari o’qituvchilarining salomatligi va mehnatini muhofaza qilishda, tibbiy profilaktika va ruhiy salomatlik sohasidagi tadqiqotchilar, mutaxassislarning e’tibori ortib bormoqda. Bu nafaqat o’quv jarayoni sifatiga talablarning ortishi, balki universitet o’qituvchilari kundalik faoliyatida duch keladigan kasbiy va psixo-emotsional xavflarning ortib borayotgani bilan izohlanadi.

Oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy ta’lim, ko’p bosqichli hisobot tizimi, ta’lim sifatini baholash va ma’muriy bosim sharoitida professor-o’qituvchilar tarkibiga psixofiziologik yuklama sezilarli darajada oshmoqda.

SHu bilan birga, sanitariya-gigienik mehnat sharoitlari bilan bog’liq muammolar saqlanib qolmoqda - o’quv xonalarining ventilyatsiyasi va yoritilishining qoniqarsiz sifati, ish joylarining ergonomikasi yetarli emas, ishning davomiyligi va tabiati bo’yicha standartlarga rioya qilmaslik, shu

jumladan masofaviy ish paytida bularning barchasi o’qituvchilarda surunkali charchoq, kasbiy charchash, uyqu buzilishi, yurak-qon tomir, endokrin va tayanch-harakat tizimlari kasalliklarining rivojlanishi uchun old shart-sharoitlarni yaratadi.

Hammamizga ma’lumki, pedagogik xodimlarning sog’lig’i holati o’quv jarayoni samaradorligiga, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini faol joriy etishga, ta’lim tashkilotlarining ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligiga, ular ta’lim berayotgan kontingentlarning sog’lig’iga bevosita ta’sir qiladi.

Pedagogik faoliyat intellektual, hissiy, emotsial yuklamalar, ovoz bog’lamlarini va asosan tik turgan holda ishlashi bilan kechadigan faoliyat turiga kiradi. Mutaxassislarning fikriga ko’ra ruhiy yuklama bilan kechadigan ovoz boylamining zo’riqishi ovoz a’zolarining kasb kasallaklari rivojlanishiga yordam berishi mumkin. O’qituvchida dars paytida ham, darslarga o’z-o’zini tayyorlashda ham ko’rish bilan bog’liq yuklamalar rivojlanishi mumkin. O’qituvchining ish holati erkin hisoblanadi, ya’ni o’qituvchining xohishiga ko’ra istalgan vaqtda o’zgartirilishi mumkin, lekin 70% o’qituvchilar ish kunining ko’p qismini tik turgan holatda o’tkazishlarini bildiradilar.

O’qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi noqulay omillar vaqt o’tishi bilan organik darajada nomoyon bo’lib, butun organizmni faoliyatini buzilishiga sabab bo’ladigan ma’lum funktsional o’zgarishlarga olib keladi. Mantiqan olsak, aqliy mehnat birinchi navbatda markaziy asab tizimiga ta’sir qiladi.

G.K. Semenovning (1976) ta'kidlaganidek, o'qituvchilik aqliy zo’riqishni, odamlar bilan doimiy munosabatda bo'lishni, o'zini o'zi boshqarishning yuqori darajasini va intellektual faollikni talab qiladigan kasbdir. Bu xususiyatlar o’qituvchilarning salomatlik holati va ish faoliyatiga ta’sir qiladigan psixo-emotsional, gigienik va tashkiliy omillarning jamlanmasi bo’lgan noyob professional kontekstni tashkil qiladi. Shu bilan birga, universitet professor-o‘qituvchilari o‘rtasida kasalliklarning oldini olish tizimi yetarli darajada tuzilmaganligicha qolmoqda va mehnat sharoitlarini yaxshilashga ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab qiladi

M.A.Sorokinning tibbiyot institutlari o’qituvchilarini markaziy nerv sistemasi funktsional xususiyatlarini o’rganish xulosalariga ko’ra ko’pgina o’qituvchilar o’quv yilining oxiriga borib kasbiy faoliyat bilan bog’liq bo’lgan haddan tashqari charchash va ortiqcha zuriqishlarni oldini olish tadbirlariga muhtoj bo’lishadi.

Organizmning barcha tizimlarini uyg’un faoliyatini o’ziga jalb qiladigan muskullar ishidan farqli ravishda Oliy ta’lim muassasalari o’qituvchilarining aqliy faoliyati organizmning bir qator fiziologik tizimlariga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi bir tomonlama yuklamalar beradi.

Smagulov N.K., Yevnevich A.M. va b.larning (2020) Karaganda tibbiyot instituti o’qituvchilarida o’tkazgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, anketa so'rovi natijalariga ko’ra respondentlarning faqatgina 66,6; 85% salomatlik holatini yaxshi deb baholagani va yosh ortishi bilan bu ma’lumot kamayib borayotganligi qayd qilingan. Professor-o’qituvchilarning salomatligini kasalliklar tarkibi bo’yicha olib o’rganilganda 30-49 yoshdagilarda va 50 yoshdan oshgan xodimlarda yurak-qon tomir kasalliklari 52.6 va 61.9 % da, tayanch apparat tizimi kasalliklari 55.3 va 47,6 % da, ovqatlanish tizimi kasalliklari 36,4 va 42,9 % ekanligini keltirilgan. E’tiborli jihati shundaki, mualliflar tibbiyot instituti professor-o’qituvchilarining salomatlik darajasining pastligi va kasallanish darajasining yuqoriligining asosiy sababi bu harakat faolligining pastligi, noratsional ovqatlanish, o’z sog’lig’iga yetarlicha e’tibor bermaslik, tibbiy-profilaktika tavsiyalariga amal qilmaslik va o’z-o’zini davolash ekanligi deb ko’rsatadilar.

Tolmachev Denis Anatolьevichning tibbiyot instituti o’qituvchilarining hayot sifati va salomatligini kompleks baholash mavzusida olib borgan ilmiy tadqiqot ishi xulosalariga ko’ra 100 ta so’rov qilingan o’qituvchilarning 60,3 % o’zini salomatligini qoniqarli, 9.6% i yomon va 30.4 % esa o’zlarini sog’lom deb baholaganini ta’kidlaganlar. Lekin o’z o’zini salomatlik holatini sub’ektiv baholash haqiqiy holatga to’g’ri kelmaydi, ya’ni so’rovnoma natijalariga ko’ra 63.9 % o’qituvchilar surunkali kasalliklari borligini, 94.5% o’qituvchilar esa yil mobaynida o’tkir kasalliklar bilan

kasallanganligini ma’lum qilganlar. Muallif o’z-o’zini baholashda o’qituvchilarning yoshi va salomatlik holatida bog’liqlik borligini aniqlab, o’qituvchilarni yoshi oshib borishi bilan salomatligini yomonlashib borishini ta’kidlagan.

2021 -yilda Smirnova Ye.A., Kuznetsova L.V lar tomonidan OTM professor o’qituvchilarini harakat faolligi darajasi o’rganilib tahlil qilingan. Olingan natijalarga ko’r,a OTM o’qituvchilari kam harakatli hayot tarziga ega. Ularning ish vaqtining ko’p qismi jismoniy faollik darajasining pasayishiga sabab bo’luvchi kompyuter oldida o’tirib ishlash yoki ma’ruza o’qishlar bilan o’tadi. Bundan tashqari yuqori aqliy yuklama va vaqtning yetishmasligi ham o’qituvchilarni harakat faollligiga ta’sir qiluvchi omil hisoblanadi. Jismoniy faollikning etishmasligi esa turli kasalliklarning, masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, ortiqcha vazn yig’ilishi hamda semizlik kabi kasalliklarni rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Muntazam jismoniy faoliyat umumiy holatni yaxshilanishiga, ish qobiliyatini oshishiga hamda stressni kamayishiga yordam beradi.

E.A. Kudrina va D.A. Tolmachevlarning Ijev davlat tibbiyot akademiyasi (Rossiya) professor-o’qituvchilari va Udmurt respublikasi shifokorlarining salomatligini 2007-2010 yillardagi vaqtincha mehnatga layoqatsizlik tufayli kasallanishni o’rganish ilmiy tadqiqoti natijalariga ko’ra ikkala guruh vakillari orasida xam birinchi o’rinni mehnatga layoqatsizlik kunlari va hodisalari bo’yicha nafas yo’llari kasalliklari, ikkinchi o’rinni qon aylanish tizimi kasalliklari egallaganligi keltirilgan. To’rtinchi o’rinni ikkala guruhda ham ko’z va hosilalari kasaliklari, ovqat hazm qilish, siydik chiqaruv organi kasalliklari esa beshinchi o’rinni egallaydi. Jalb qiladigan tomoni shundaki, asab tizimi kasalliklari professor o’qituvchilar tarkibida uchinchi o’rinni, shifokorlarda esa yettinchi o’rinni egallaydi. Professor-o’qituvchilarda mehnatga layoqatsizlik kunlari soni shifokorlar bilan taqqoslanganda barcha sabablar bo’yicha 1,7 martaga, kasalliklar bo’yicha esa 1,5 martaga kamni tashkil qiladi.

M.S.Mikerova (Moskva- 2007y) tomonidan tibbiyot oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilarining salomatligi va unga ta’sir qiluvchi omillarni so’rovnoma yordamida o’rganish natijalariga ko’ra 100 ta so’rovnoma o’tkazilgan o’qituvchidan 70,7 holatida salomatlik holatida o’zgarishlar borligini, 65,8 holatda surunkali kasalliklar aniqlanganligi qayd qilingan. SHuningdek, professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyati bir necha turlarning jamlamasi bilan tavsiflanadi - pedagogik, ilmiy tadqiqot, tibbiy, ijtimoiy va boshqalar, hamda, moddiy ta'minlanish darajasini oshirish uchun to'liq bo'lmagan ish vaqtiga ehtiyoj 100 o’qituvchiga 55,0 ni tashkil qiladi. O'qituvchilarning o'z-o'zini baholashlariga ko'ra, ularning sog'lig'ining yomonlashishiga quyidagi omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi: notinch uyqu, nonushtaga e'tibor bermaslik, ish haqidan qoniqmaslik, ish joyidagi noqulay sanitariya-gigiyena sharoitlari va boshqalardir.Jalb qiladigan tomoni, o’qituvchilar orasida ko’z va ko’z hosilalari kasalliklari juda ko’p tarqalgan (100 ta so’rovdan o’tkazilganda 43.6).

Muallifning fikricha bunday holat o’qituvchilar mehnatining kasbiy xususiyatlari va yuqori darajadagi ko’ruv yuklamasi bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Eng ko’p tarqalgan kasalliklar surunkali bronxit (18,1%), surunkali faringit (17,1%), surunkali tonzillit (15,1%), va surunkali laringit (9.7%). Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklaridan eng ko’p tarqalganlari surunkali gastrit (32.3%), oshqozon va 12 barmoq ichak yara kasalliklari (14,3%) tashkil qiladi va barcha so’rovdan o’tkazilganlarda oshqozon ichak tizimi kasalliklari oxirgi yil davomida bezovta qilgan. Muallif tomonidan rasmiy tibbiy hujjatlarni tahliliga ko’ra tibbiyot oliy ta’lim muassasalari professor- o’qituvchilari kasalliklari ichida yetakchi o’rinnni qon aylanish tizimi kasalliklari (35,6%), keyingi o’rinni ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (15.9%), va siydik chiqaruv tizimi kasalliklari (11.8%) egallagani qayd qilingan. Muallifning xulosasiga ko'ra, bu kollektivda surunkali patologiyaning tarqalishi yuqori bo'lib, u doimiy ravishda ortib borayotgan talablar fonida turmush tarzi va turmush sharoitlarini, mas'uliyat va ish zo’riqishlarini o’z ichiga oladigan omillar kombinatsiyasi ta'sirida rivojlanadi.

2017-2019 yillarda I.I.Mechnikov nomidagi SHimoliy-g’arbiy davlat tibbiyot Universitetida Ye. A. Baymakov tomonidan Tibbiy ta'lim muassasasi o'qituvchilarining kasbiy va xulq-atvor xavf

omillarini gigienik baholash va sog'lig'ini saqlash va xulq-atvor munosabatlarini shakllantirish tizimini asoslash bo’yicha o’tkazgan ilmiy tadqiqot ishi natijalariga ko’ra, surunkali kasalliklar universitet o'qituvchilarining 85,7 foizida; patologik jarohatlanish tekshirilgan 100 kishiga 279,4 holatni tashkil etishi qayd yilingan. Patologik jarohatlanish tarkibida qon aylanish tizimi kasalliklari (26,4%), ko'z va uning hosilalari kasalliklari (24,8% ni), endokrin tizim kasalliklari, ovqatlanishning buzilishi va metabolik kasalliklar (19,3%) ni, suyak muskul tizimi va biriktiruvchi to’qima kasalliklari (15,1%) ni tashkil qiladi. Natijalarga ko’ra yosh oshib borishi bilan o’qituvchilarda patologik jarohatlanish ko’z va uning hosilalari kasalliklaridan tashkari barcha sinf kasalliklari ortib borishi qayd etilgan. SHuningdek, anketa so'rovi natijalariga ko'ra, tibbiyot oliy o'quv yurtlari va kollejlari o'qituvchilari o'rtasida xulq-atvorning quyidagicha ustuvor xavf omillari aniqlanganligi: jismoniy faoliyatning etarli emasligi (61,1%), uyquning etarli emasligi (46,1%), noto'g'ri ovqatlanish (16,2%) va chekish (15,8%), sog'liqni saqlash xulq-atvori muammolari haqida yuqori xabardorlik fonida (91,1%) tashkil etishi qayd qilingan. Professor- o’qituvchilar orasida salomatlikning yomonlashuvi xavf omili sifatida 40 yoshgacha va -45 yoshdan kattalarda uyqu davomiyligining kamligi, tamaki mahsulotlari iste’moli, ortiqcha vazn hamda jismoniy faollikning yetishmasligi keltirilgan.

S.V. Maslovskaya va M.V. Fomina o'qituvchilarning sog'lig'ini tahlil qilib, 15-20 yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar uchun "pedagogik inqirozlar", "charchoq", "charchash" juda ham xos o’zgarishlar deb ta’kidlaydi.

L.M.Mitina va boshqalarning ma'lumotlariga ko'ra, o'qituvchilarning uchdan bir qismi (30% dan ko'prog'i) nevrozli bemorlarnikiga teng yoki undan ham pastroq ijtimoiy moslashuv darajasiga ega. Shu munosabat bilan ko‘plab mualliflar mamlakat xalq ta’limi kadrlarini salomatligini saqlash – o‘qituvchilarning kasbiy uzoq umr ko‘rishini ustuvor vazifa sifatida qayd etishini keltiradilar. Bu yangi ya’ni tibbiy-psixologik profilaktika va o'qituvchilar salomatligini muhofaza qilish nomli ilmiy sohani yaratishni talab qiladi: Birlamchi profilaktika salomatlikni saqlash uchun eng muhim hisoblanadi. Bu insonning turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq bo’lgan ovqatlanish odatlari, jismoniy faolligi va nosog'lom odatlarga munosabatini tushunish aniqroq profilaktika choralarini rejalashtirishga yordam beradi deb ta’kidlaydilar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, professor-o‘qituvchilarning salomatlikni saqlash xulq-atvoriga ta’sir etuvchi omillarni o‘rgangan Pirincchi E., Rahman S., Durmus A. larning tadqiqoti e’tiborga loyiqdir.

Turkiyadagi Universitetning turli fakulьtetlaridan 509 nafar o‘qituvchilari jismoniy faolligi, o‘zini namoyon qilishi, sog‘liq uchun mas’uliyati, shaxslararo munosabatlari va stressni boshqarish bo‘yicha so‘rovdan o‘tkazildi. Tadqiqotchilar respondentlarning ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ular o'z sog'lig'i haqida qayg'urishlarini aniqlaganlar. Mualliflar erkaklar va ayollar o'rtasidagi salomatlikni saqlash xulq-atvorida sezilarli farqlarni topmadilar, ammo ular respondentlarning moliyaviy ta’minlanganligi bilan bog'liqligini qayd etdilar: oylik daromad qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchining turmush tarzi shunchalik sog‘lom bo‘ladi. Bu farqlar statistik jihatdan haqiqiy edi.

Umuman olganda, mualliflar fakultet a'zolarining tibbiy mas'uliyat bilan bog'liq xatti-harakatlari (ya'ni, o'z sog'lig'ini to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish) etarli darajada rivojlanmagan va ko'pincha stressni boshqarish ko'nikmalariga ega emas degan xulosaga kelishdi.Shu munosabat bilan universitetlarda fakultet professor-o‘qituvchilari uchun salomatlikni saqlash va stressni boshqarish bo‘yicha mualliflar tomonidan o‘quv seminarlarini tashkil etish taklif etildi. Bundan tashqari, mualliflar professor-o'qituvchilar orasida sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish kerak deb hisoblaydilar.

M.I. Lesovskaya tomonidan olib borilgan ilmiy ishlari natijalari shuni ko’rsatadiki, aqliy mehnat paytida antioksidant tizimning etishmasligi bilan bog'liq bo'lgan fagotsitlarning redoks-muvozanatidagi buzilishlar ustunlik qiladi. Bunday o'zgarishlar organizmda moslashuv qobiliyatning pasayishiga olib keladi va moslashuv mexanizmlarning ishlamay qolish xavfini oshiradi.

Bugungi kunda mehnatning tabiati va ishlab chiqarish muhiti omillarining aqliy faoliyat bilan shug'ullanadigan odamlarning sog'lig'iga ta'sirini (ko'pincha noqulay) ko'rsatadigan katta miqdordagi ma'lumotlar to'plangan. Avvalo, bu surunkali charchoq va haddan tashqari ish muammosi bo'lib, adabiyotda ko'pincha surunkali charchoq sindromi (SCHS) va ingliz tilidagi manbalarda "to’yganlik" deb ta'riflanadi. Bu holat haddan tashqari ortiqcha ish yukiga organizm reaktsiyasi bo'lib, kasbning o'zi yoki mehnatni tashkil qanday tashkil qilinganligi bilan bog'liq (stressli, muntazam kundalik ish yoki kasbiy faoliyat doirasidan tashqariga chiqadigan kasbiy faoliyatga bo'lgan talablar, inson omiliga e'tibor bermaslik, tashkiliy o'zgarishlarning noto'g'ri hisoblangan natijalari va boshqalar).

O’qituvchilarda ovoz bog’lamlarida kasbiy o’zgarishlar sababli nutqning buzilishi xavfi yuqori darajada. Irlandiyalik tadqiqotchilar (Williams N.R.) 2002-2005 yillarda Irlandiya Respublikasida o'qituvchilarning sog'lig'i yomonligi sababli nafaqaga chiqishining tibbiy jihatlarini o'rganishdi.Olingan natijalarga ko’ra,o’qituvchilar 52 yoshida nafaqaga chiqarilgan va buning sabablarining 46% ni ruhiy buzilishlar; 19 % ni onkologik kasalliklar, 14% ni qon aylanish tizimi kasalliklari hamda 10% ni tayanch harakat tizimi kasalliklari tashkil qilganligi qayd qilingan.

Xulosa. O’rganilgan adabiyotlardan shu holat ma’lum bo’ldiki, Oliy ta’lim muassasalari professor-o’qituvchilari organizmiga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan xavf omillari hamda turli xildagi kasb kasalliklarining tarqalishi keyingi yillarda dunyoning ko’plab mamlakatlarida, jumladan mamlakatimizda ham yuqoriligicha saqlanib qolmoqda va ayrim davlatlarda o’sish xususiyatiga ega bo’lib, har qanday jamiyatda katta sanitariya-gigienik, tibbiy-demografik, tibbiy-ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo’lmoqda. Bu yo’nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari ko’proq xorijiy va MDH mamlakatlarida amalga oshirilgan. Amalga oshirilgan aksariyat Mamlakatimizda ushbu mavzuda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar juda kam. Viloyatlar kesimida, xususan Xorazm viloyati misolida bu kabi ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Вайнер Э.Н. Формирование здоровьесберегающей среды в системе общего образования // Валеология. – 2004. – №1. – С.21-26.

2.Зайцев Г.К., Колбанов В.В. Здоровье учителя: валеологический самоанализ // Педагогика. – 1994. – №3. – С. 15-19.

3.Земцов Е.В., Серкерова В.С. , Асиновская С.А. Гигиенические особенности условий труда и состояния здоровья учителей школ г. Пятигорска // Бюл. Здоровье населения и среда обитания. – 2004. – №5. – С.18-22.

4.Калина И.Г. Профессиональное здоровье педагога – важное условие формирования здоровьесберегающей образовательной среды // СЭТС/

Социально-экономические и технические системы: исследование,проектирование, организация. – 2006. – № 15. –

5.Ковалева А.И., Пышнов Г.Ю. Проблема хронического утомления // Медицина труда и промышленная экология. – 2001. – №11. – С. 1-5.

6.Матушанский Г.У., Цвенгер Ю.В. Основные характеристики психолого-педагогической подготовки и переподготовки преподавателя высшей школы на современном этапе // Психологическая наука и образование. – 2001. – №2. – С. 26-31.

7.Миннинбаев Т.Ш. Актуальные вопросы университетской гигиены на современном этапе // Здоровье, обучение, воспитание детей и молодежи в CCI веке: матер. Междунар. Конгр. – М., 2004. – Ч. II. – С. 272-275.

8.Митина Л.М., Митин Г.В., Анисимова О.А. Профессиональная деятельность и здоровье педагога. – М., 2005. – С. 7.

9.Османов Э.М., Кораблев Ю.Ю. Проблема гиподинамического режима работы преподавателей вуза. – Вестник ТГУ. – Т.12, Вып.3. – 2007. – С.355-356.

10.Рыжов А.Я., Комин С.В., Копкарева О.О. Физиолого- гигиеническая характеристика труда преподавателей вуза. – http://www.fesmu.ru/elib/search.aspx?author.

11.Сорокина М.А. Особенности функционального состояния центральной нервной системы у преподавателей высшей школы // Фундаментальные исследования. – №11. – 2008.– С. 28-32

12.Фролов А.Г., Хомочкина С.А., Матушанский Г.У. Адаптации преподавателя к профессионально-педагогической деятельности в высшей школе // Educational Technology & Society. – №9(2). – 2006. – С.265-273.

13.Шверина О.В., Халцонен О.В., Косарева Н.П. и др. Вопросы оптимизации труда преподавателей вуза (обзор) // Матер. науч. конф. Студентов и аспирантов 16 апреля 2003 года. – Тверь: Твер.гос. ун-т, 2004. – С.20-24.

14.Williams N.R. Occupational groups at risk of voice disorders: areview of the literature // Oxford Journals Medicine Occupational Medicine. – Vol. 53, № 7. – 2008. – P. 456-460.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

УЗОҚ МАСОФАГА ҚАТНОВЧИ ВА ОФИСДА ИШЛАЙДИГАН ҲОДИМЛАРДА СТРЕССГА МОЙИЛЛИК ДАРАЖАСИНИ АНИҚЛАШ.

Мамажонва З.К.
Андижон Давлат Тиббиёт институти

Калит сўзлар: Узоққа қатновчи ходимлар, офисда ишловчи ходимлар, стресс, UzAvto Motors, сўровнома-скрининг анкета, симпатоадренал тизими.

Аннотация. Ҳозирги замонавий меҳнат бозорида турли соҳаларда ишловчи ходимлар турлича иш шароити ва муҳитда фаолият олиб боради. Айниқса, узоқ масофаларга қатнайдиган ходимлар ҳамда офис шароитида узоқ вақт компьютер олдида ишлашга мажбур бўладиган мутахассислар сони йил сайин ортаётгани кузатилмоқда. Бу эса инсон организми ва руҳий саломатлигига маълум даражада таъсир кўрсатиши табиий ҳолдир.

Узоққа қатновчи ходимлар иш жойига етиб бориш учун кўп вақт ва куч сарфлайдилар, бу эса жисмоний чарчоқ, уйқунинг бузилиши ва кун тартибининг нотўғри шаклланишига сабаб бўлади. Шу билан бирга, офисда ишловчи ходимлар эса ҳаракатсизлик, узоқ вақт мониторга қараб ўтириш, вазифаларнинг такрорийлиги ва ижтимоий изоляция каби омиллар таъсирида стресс ҳолатларига дуч келишлари мумкин.

Бундай шароитларда ходимларнинг стрессга мойиллигини эрта аниқлаш, улар учун профилактика чораларини ишлаб чиқиш ва қўллаш орқали касбий самарадорликни ошириш имконини беради. Шу боис, турли иш муҳитидаги ходимларда стрессга мойиллик даражасини ўрганиш масаласи илмий-амалий аҳамиятга эга бўлиб, ушбу мақолада айнан шу йўналишда тадқиқот олиб борилади.

Аннотация. На современном рынке труда сотрудники различных сфер работают в разных условиях труда. В частности, с каждым годом увеличивается число сотрудников, находящихся в командировках на большие расстояния, и специалистов, вынужденных длительное время работать за компьютером в офисных условиях. Закономерно, что это оказывает определённое влияние на организм и психическое здоровье человека.

Сотрудники, находящиеся в командировках на большие расстояния, тратят много времени и сил на дорогу до рабочего места, что приводит к физическому утомлению, нарушению сна и неправильному формированию распорядка дня. В то же время сотрудники, работающие в офисе, могут испытывать стресс из-за таких факторов, как гиподинамия, длительное сидение перед монитором, монотонные задачи и социальная изоляция.

В таких условиях раннее выявление стрессоустойчивости сотрудников позволяет повысить их профессиональную эффективность путём разработки и внедрения профилактических мер. Поэтому вопрос изучения уровня стрессоустойчивости сотрудников в различных производственных условиях имеет научное и практическое значение, и данная статья посвящена исследованию в этой области.

Abstract. In the modern labor market, employees in various fields work in different working conditions. In particular, the number of employees on long-distance business trips and specialists forced to work at a computer in an office environment for a long time increases every year. Naturally, this has a certain impact on the body and mental health of a person.

Employees on long-distance business trips spend a lot of time and energy on the road to the workplace, which leads to physical fatigue, sleep disturbances and improper formation of the daily routine. At the same time, employees working in the office may experience stress due to factors such as physical inactivity, prolonged sitting in front of the monitor, monotonous tasks and social isolation.

In such conditions, early detection of stress resistance of employees allows to increase their professional efficiency by developing and implementing preventive measures. Therefore, the issue of

studying the level of stress resistance of employees in various production conditions is of scientific and practical importance, and this article is devoted to research in this area.

Мавзунинг долзарблиги. Бугунги кунда жадал ривожланаётган иш фаолияти, транспорт ва офис муҳитидаги меҳнат шартлари инсон саломатлиги ва руҳий ҳолатига жиддий таъсир кўрсатмоқда. Айниқса, узоқ масофага қатновчи ходимлар ҳамда офис муҳитида узоқ вақт давомида ҳаракатсиз ҳолда ишловчи ходимлар орасида стрессга мойилликнинг ортиши кузатилмоқда.

Стресс иш унумдорлигини пасайтириши, касбий чарчоқ, руҳий тушкунлик ва турли психосоматик касалликларнинг келиб чиқишига олиб келиши мумкин. Бу эса нафақат ходимнинг шахсий ҳаёти, балки ташкилотнинг умумий самарадорлигига ҳам салбий таъсир кўрсатади.

Шунингдек, меҳнат муҳитидаги стресс омилларини бартараф этиш, профилактика чораларини кўриш ва стрессга мойиллик даражасини эрта аниқлаш орқали ишчи кучининг саломатлигини сақлаш, меҳнат унумдорлигини ошириш мумкин. Шу нуқтаи назардан, узоққа қатновчи ва офисда ишловчи ходимларда стрессга мойиллик даражасини аниқлаш бугунги куннинг муҳим масалаларидан бири ҳисобланади.

Тадқиқотнинг мақсади ва вазифалар: Узоққа қатновчи ходимлар ва офисда ишловчи ходимларда стрессга мойиллик даражасини аниқлаш, улар ўртасидаги фарқни таҳлил қилиш ҳамда стресс даражасига таъсир этувчи асосий омилларни белгилаш.

Миннесота ҳаёт сифати саволномаси бўйича сўровнома ўтказилди. Сўровномада сифат таъминоти бўлимдаги ходимлари 661 та, хайдовчилик касби билан шуғулланувчи, узоққа қатновчи транспорт бўлимидаги ходимлар (автовозлар) 1083 та UzAvto Motors жамияти популяцияси иштирок этди. Уларнинг ёши 30 дан 65 ёшгача бўлган. Барча текширувга жалб қилинган бемор популяцияси “Сўровнома-скрининг анкета” ёрдамида таҳлил қилиниб ўрганилди. Сўровнома ЎРССВ қошидаги Этика қўмитаси томонидан тасдиқланиб, скрининг текширувлар учун қўлланишга тавсия этилган, анкета стресснинг мавжудлиги ёки сезилган хавфини энг яхши акс эттирувчи 21 та махсус танланган саволлардан иборат эди.

Бек депрессия шкаласи сўровномаси асосида беморларнинг асаб рухий, тушкунлик холати ўрганилди. Сўровномага 21 савол киритилган: Ҳар бир тоифа учун балл қуйидагича ҳисобланади: шкаладаги ҳар бир элемент симптомнинг кучайиб бораётган зўравонлигига қараб, 0 дан 3 гача баҳоланади. Умумий балл 0 дан 63 гача ўзгариб туради ва вазият яхшиланганда камаяди.

С.Спилберг ва Й. Ханнинг реактив ва шахсий ташвиш даражасини бахолаш шкаласи. Реактив ташвиш шкаласи (РТ) Сўровномага 40 савол киритилган. Кўрсатмалар: қуйидаги жумлаларнинг хар бирини диққат билан ўқинг ва ўзингизни қандай хис қилаётганингизга қараб ўнгдаги тегишли устундаги рақамни белгиланг. Саволлар ҳақида узоқ вақт ўйламанг, чунки тўғри ва нотўғри жавоблар йўқ. Сўровномани фақат шифокор олиб боради. Жавобларга ходим ”ҳа” ёки “йўқ” деб жавоб беради. Сўровнома сўнгида умумий баллар саналади. Сўровномани афзаллиги унинг қулайлигида ва қисқа вақт ичида ахборотга эга бўлишдадир.

Мунозара: Барча текширувга жалб қилинган УзАвтоМоторс жамияти ходимлари популяцияси скрининг текшируви натижалари “Сўровнома-скрининг анкета” ёрдамида таҳлил қилиниб ўрганилди ва бу тахлиллар клиник маълумотларни таҳлил қилиш имконини берди ва вазиятлар аниқланди: стресс, шишлар бор йўқлиги, ижтимоий ҳолат, хавф омиллари, овқатланиш одатлари, ортиқча вазн ва семириш белгиларининг мавжудлиги (МИННЕСОТА ҳаёт сифати саволномаси). 21 та саволни ўз ичига олган Миннесота анкетаси ГК билан касалланган беморларнинг ҳаёт сифатини баҳолаш учун ишлатилган. Анкета сўровномасига

кўра I-гурухда 25-30 баллни ташкил қилганлар 30тани ташкил қилди. II-гурухда 30-70 балл 6та ходимда аниқланиб 15%ни, 25-30 балл 30 та ходимда аниқланиб 85%ни ташкил қилди. III-гурухда 25-30 балл 13та (70%), 30-70 балл 11 та ходимда (30%) ташкил қилди. IV-гурухда 25-30 балл 35та (42%), 30-70 балл эса 49 та текширилувчида (58%) аниқланди (P>0,05). Вужудга келиш частотаси бўйича етакчи симптом стрессни ташкил қилди. Ушбу аломатнинг мавжудлиги кўпчилик ходимларда топилган. Текширилаётган сифат таъминот бўлимидаги ходимларидан 661 та ходимда сўровнома ўтказилиб, 300 та ходимда 25-30 баллни 45,4% ташкил қилди, 361та ходимда 30-70 баллни 54,6% ходимлар ташкил қилди, яъни стресс хавф омили қайд қилинди. Транспорт бўлимидаги ходимларда 1083 та ходимларда анкета сўровнома ўтказилиб, 241 та хайдовчиларда 25-30 баллни ташкил қилди (22,2%). 1083 та ходимдан 842 тасида эса 30-70 баллни ташкил қилиб 77,7%ни ташкил этди.

Хулоса. Юқоридаги тадқиқот ва мунозаралар асосида шуни хулоса қилиш мумкинки, стресс инсон саломатлиги ва иш қобилиятига жиддий таъсир кўрсатади. Айниқса, ишлаб чиқариш корхоналаридаги ходимлар стрессга мойил бўлган аҳоли қатламини ташкил этади. Симпатоадренал тизими стрессга жавобан ҳаракат қилувчи асосий тизимлардан бири бўлиб, унинг бузилиши турли касалликларни келтириб чиқариши мумкин. UzAutoMotors жамияти мисолида олиб борилган тадқиқотлар стрессга мойил ходимларда симпатоадренал тизими фаолиятида сезиларли ўзгаришлар борлигини кўрсатди. Шу боис, корхона ва ташкилотларда ишчилар учун стрессни камайтириш бўйича профилактика чоралари ишлаб чиқиш муҳим аҳамият касб этади. Психологик ёрдам, жисмоний фаолликни ошириш ва иш муҳитини яхшилаш орқали ишчи-ходимларнинг соғлиғини муҳофаза қилиш ва уларнинг меҳнат унумдорлигини ошириш мумкин.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

XORAZM VILOYATIDA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR ORASIDA TURMUSHDAGI JAROHATLANISH DARAJASINI O'RGANISH VA BAHOLASH

Omanova. A. S
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Annotatsiya: Bolalar jarohatlanishi dunyo miqyosida jiddiy muammo bo‘lib, u bolalar o‘limi va nogironligining asosiy sabablaridan biridir. Mazkur ilmiy maqolada maktab yoshidagi bolalar orasidagi turmushdagi jarohatlanishlar Xorazm viloyati misolida o'rganilib baholangan va shu asosidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jarohat**,** turmushdagi jarohatlanishlar, ijtimoiy muhofaza tizimi, profillaktika, nogironlik.

Аннотация: Детские травмы являются серьезной глобальной проблемой и одной из ведущих причин смертности и инвалидности среди детей. В данной научной статье рассматриваются и оцениваются бытовые травмы среди школьников на примере Хорезмского региона, а также анализируются полученные данные.

Ключевые слова: травма, бытовые травмы, система социальной защиты, профилактика, инвалидность

Abstract: Childhood injuries are a serious global issue and one of the leading causes of mortality and disability among children. This scientific article examines and evaluates domestic injuries among school-age children based on the example of the Khorezm region and discusses the obtained data.

Keywords: injury, domestic injuries, social protection system, prevention, disability

Muammoning dolzarbligi: Hozirgi kunda bolalar orasida jarohatlar (yiqilish, kuyish, avtohalokatlar, zaharlanishlar) juda keng tarqalgan va har yili ko‘plab shifokorlik aralashuvlarini talab qiladi. Statistika shuni ko‘rsatadiki, baxtsiz hodisalar va jarohatlar sababli har yili yuz minglab bola hayotdan ko‘z yumadi yoki nogiron bo‘lib qoladi. Oqibatda bolalar jarohati tufayli oilalar katta moddiy va ruhiy zarar ko‘rishi mumkin, tibbiy xarajatlar oshadi va bolaning kelajakdagi hayot sifati pasayadi. Bolalar jarohatlanishini kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni keng joriy qilish, ota-onalar va pedagoglar orasida xabardorlikni oshirish, sog‘liqni saqlash tizimida bolalar xavfsizligiga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu masala nafaqat tibbiyot sohasi, balki ta’lim, huquq va ijtimoiy muhofaza tizimlari hamkorlikda hal qilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammolardan biridir.

7. Г.М.Маматханова. Актуальные вопросы создания автоматизированной системы в учреждениях первичного звена здравоохранения. Journal of clinical and preventive medicine. №3 2023 ISSN2181-3531 www.fjsti.uz С.79-87.
8. Mamatxanova G.M. Hujjatlarni yuritishni avtomatlashtirilgan tizimlari va ularni amaliyotga joriy etish. O‘Zbekiston harbiy tibbiyoti (5) 2024 Yil 227-233b

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

XORAZM VILOYATIDA INFEKSION KASALLANISHNING KOMPLEKS VA PROGNOSTIK TAHLILI 2021–2024-yillar kesimida

Nuraliyeva Nargiza Bekturdiyevna
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti, PhD, Katta o’qituvchi
Abdurashidova Sevara Abdurashid qizi
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti, Talaba
Usmonova Yulduz Sherzod qizi
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti, Talaba
Otayev Bobur Bobojon o’g’li
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti, Magist

Annotatsiya.

Infektsion xolat barcha davrlarda va har bir davlatning oldida turgan dolzarb muommolardan sanaladi, chunki infektsion nazoratni izdan chiqishi qaytarib bo’lmas jarayonlarga sabab bo’lishi mumkin. Shu sababdan ushbu yo’nalishda olib boriladigan izlanishlar va ma’lumotlar ahamiyati yuqori. **Tadqiqot maqsadi** 2021–2024-yillar davomida Xorazm viloyatida infeksion kasalliklar, jumladan virusli gepatitlar bilan kasallanishning kompleks statistik va prognostik tahlilini o‘tkazish hamda 2025-yil uchun istiqbolli tendensiyalarni baholashdan iborat bo’lgan. **Metodlar.** Retrospektiv tavsifiy-analitik tadqiqot o‘tkazildi. Tahlil jarayonida statistik ma’lumotlar asosida qayd etilgan infeksion kasalliklar bo‘yicha sonli baholash, tuzilma (%) va o‘sish ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Virusli gepatitlar bo‘yicha alohida tahlil Xorazm viloyati misolida 2021–2024-yillar uchun amalga oshirildi. Tavsifiy statistika metodlari, yillik kasallanish profili asosida klasterlash usuli, KMeans algoritmidan foydalanildi.

Kalit so’zlar. Infeksiya, gepatit, virus, statistika, qizamiq, epidemiologiya

Аннотация.

Инфекционная ситуация во все времена и для каждого государства является одной из актуальных проблем, поскольку нарушение инфекционного контроля может привести к необратимым процессам. В связи с этим исследования и данные, проводимые в данном направлении, имеют высокую значимость. Цель исследования заключалась в проведении комплексного статистического и прогностического анализа инфекционных заболеваний, включая вирусные гепатиты, в Хорезмской области в 2021–2024 годах и в оценке перспективных тенденций на 2025 год. **Методы.** Было проведено ретроспективное описательно-аналитическое исследование. В процессе анализа на основе статистических данных были рассчитаны количественные показатели, структура (%) и темпы прироста зарегистрированных инфекционных заболеваний. Отдельный анализ вирусных гепатитов был выполнен на примере Хорезмской области за 2021–2024 годы. Использовались методы описательной статистики, кластеризация на основе годового профиля заболеваемости и алгоритм KMeans.

Ключевые слова. Инфекция, гепатит, вирус, статистика, корь, эпидемиология

Abstract.

The infectious situation has always been considered a pressing issue for every country, as disruption of infection control may lead to irreversible consequences. Therefore, research and data in this field are of great importance. The aim of the study was to conduct a comprehensive statistical and prognostic analysis of infectious diseases, including viral hepatitis, in Khorezm region during 2021–2024, and to assess prospective trends for 2025. **Methods.** A retrospective descriptive-analytical study was carried out. Based on statistical data, numerical indicators, structural composition (%) and growth rates of reported infectious diseases were calculated. A separate analysis

of viral hepatitis was conducted for Khorezm region during 2021–2024. Descriptive statistical methods, clustering based on the annual incidence profile, and the KMeans algorithm were applied.

Keywords. Infection, hepatitis, virus, statistics, measles, epidemiology

Kirish. Infeksion kasalliklar global sog‘liqni saqlash uchun dolzarb tahdid bo‘lib qolmoqda, garchi so‘nggi yillarda noinfeksion kasalliklarning ustunligi haqida ko‘proq fikr bildirilayotgan bo‘lsa ham. JSST baholariga ko‘ra, har yili infeksion sabablar oqibatida 13 milliondan ortiq kishi, jumladan 5 yoshgacha bo‘lgan millionlab bolalar hayotdan ko‘z yumadi. Immunizatsiya va antimikrob terapiyasi sohasidagi sezilarli yutuqlarga qaramay, pandemiyalar, migratsiya jarayonlari, emlash qamrovining pasayishi kabi yangi omillar boshqariladigan infeksiyalarning qayta tarqalishiga va antimikrob rezistentlik (AMR)ning ortishiga sharoit yaratmoqda. Infeksion kasalliklar insoniyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug‘diradi, chunki ular dunyo bo‘yicha yillik o‘lim holatlarining uchdan bir qismini tashkil etadi. Jahon banki (2008) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 50% o‘limi infeksion kasalliklar (nafas olish organlari patologiyasi, ichak infeksiyalari, qizamiq, bezgak, OITS va boshqalar) bilan bog‘liq. Shu yosh guruhidagi kasallanish tuzilmasida infeksion kasalliklarning ulushi 80% ni tashkil etadi [1–2]. Infeksion kasallik qo‘zg‘atuvchilari orasida viruslar yuqori yuqumli xususiyati, tez mutatsiyaga uchrashi va global tarqalish qobiliyati sababli alohida o‘rin tutadi. JSST XXI asrni “viruslar asri” deb atab, ularning epidemiologik tuzilmadagi o‘sib borayotgan ahamiyatini ta’kidlagan. Eng ko‘p tarqalgan virusli infeksiyalar — gripp, paragripp va A, B, C gepatitlari bo‘lib, ular har yili butun dunyoda katta miqdorda kasallanish va asoratlarni keltirib chiqaradi [2]. Eng keng tarqalgan infeksion kasallik turi — o‘tkir respirator virusli infeksiyalar (ORVI) hisoblanadi. Ular dunyo miqyosida kasallanishning eng yuqori ko‘rsatkichiga ega. Yevropa kasalliklarni oldini olish va nazorat markazi (ECDC) hamda AQSh CDC ma’lumotlariga ko‘ra, ambulator muolajaga murojaatlarning 60% gacha qismi ORVI hissasiga to‘g‘ri keladi. COVID-19 pandemiyasidan so‘ng ushbu kasalliklar ko‘rsatkichi yanada oshgani qayd etilgan.

JSST (2024) ma’lumotlariga ko‘ra, 350 milliondan ortiq inson B va C virusli gepatitining surunkali shakllaridan aziyat chekmoqda. Har yili gepatit viruslari bilan bog‘liq sirroz va gepatosellyulyar karsinoma oqibatida 1 milliondan ortiq o‘lim qayd etiladi. Dunyo bo‘yicha 254 million kishi surunkali HBV tashuvchisi hisoblanadi, 2022 yilda chaqaloqlar emlanish qamrovi 82% ni tashkil etgan. Biroq, faqat 2,6% bemorlar davolanish imkoniga ega. Surunkali HCV bilan 50 million kishi yashaydi; samarali antivirus dorilar o‘z vaqtida qo‘llansa, 95% hollarda to‘liq tuzalish mumkin. Ammo faqat 36% bemor o‘z tashxisidan xabardor va 20% davolanish oladi. HAV esa sanitariya darajasi past hududlarda endemik hisoblanadi. Vaksinatsiya va gigiyena choralari epidemiyalarni kamaytiradi. gepatit D (HDV) esa HBV bilan kasallangan bemorlarda og‘ir superinfeksiya sifatida uchraydi va u Markaziy Osiyo, Afrika va Sharqiy Yevropada endemikdir [3].

Shuningdek, diareya kasalliklari ham muhim muammo bo‘lib, ular har yili 1,3 million o‘limga sabab bo‘ladi, asosan bolalar orasida. Asosiy sabablar — rotavirus, ichak bakteriyalari (jumladan salmonella), toza ichimlik suvi va sanitariya yetishmovchiligi. Har yili salmonella butun dunyo bo‘yicha 153 millionta diareya holatini va 57 mingta o‘limni chaqiradi [4–6]. Antimikrob rezistentlikning ortishi va oziq-ovqat xavfsizligi buzilishi tahdidni yanada kuchaytiradi.

So‘nggi yillarda butun dunyoda skarlatina holatlari ham tashvishga sabab bo‘lmoqda. Kasallik mavsumiy epidemiyalar shaklida qayta tarqalmoqda. Buyuk Britaniyada (2022–2023) 58 mingdan ortiq holat va 516 o‘lim qayd etilgan. JSST Polsha, Fransiya, Irlandiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniyada, ayniqsa 10 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida skarlatina va iGAS epidemiyalarini aniqlagan. 2022 yil sentyabr–noyabr oylarida Angliya sog‘liqni saqlash organlari 4622 skarlatina holatini qayd etgan, bu esa so‘nggi 5 yildagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan (1294 holat) sezilarli darajada yuqori. Skarlatina uchun vaksina mavjud emas, davolash antibiotiklarni qabul qilishni o‘z ichiga oladi. O‘sish sabablari — Streptococcus pyogenes (emm-tip) shtammlarining virulentligi va populyatsion immunitetning pasayishi bilan izohlanmoqda. E.V. Glushkova va hammualliflar o‘z tadqiqotlarida shunday

ta’kidlashgan: “So‘nggi o‘n yilliklarda ayrim Yevropa va Osiyo mamlakatlarida skarlatinaning yirik epidemiyalari kuzatilgan. Kasallikning og‘ir shakllari va asoratlari soni ortgan…” [7].

Tadqiqotning natijalari. Infeksion kasalliklar hanuzgacha jamoat salomatligi ko‘rsatkichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda, ayniqsa sanitariya-epidemiologik infratuzilmasi zaif bo‘lgan rivojlanayotgan hududlarda. O‘zbekiston Respublikasining agrar va zich aholi yashaydigan hududlaridan biri bo‘lgan Xorazm viloyati qator boshqariladigan va boshqarib bo‘lmaydigan infeksiyalar bo‘yicha barqaror kasallanish ko‘rsatkichlarini namoyon etmoqda.

Mazkur tadqiqot doirasida dastlab 2021–2024-yillar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyatida infeksion kasallanish tuzilmasining yillik taqqoslama tahlili o‘tkazildi (1-jadval).

1-jadval

Infeksion kasallanish tuzilmasi (eng ko‘p uchraydigan nozologiyalar)

Kasallik	Mutloq son	Umumiydan ulushi (%)	Mutloq son	Umumiydan ulushi (%)	Mutloq son	Umumiydan ulushi (%)	Mutloq son	Umumiydan ulushi (%)
	2021		2022		2023		2024 г	
Qizamiq	0	0,00	0	0,00	72	1,37	1374	28,55
O‘tkir diareya	1407	38,57	1903	38,68	1971	37,58	902	18,74
O‘RK	735	20,15	1100	22,36	1148	21,89	689	14,32
Jigar sirrozi	356	9,76	622	12,64	690	13,16	553	11,49
Suvchechak	42	1,15	172	3,50	115	2,19	103	2,14
Skarlatina	24	0,66	121	2,46	51	0,97	39	0,81
Surunkali gepatit	3	0,08	7	0,14	7	0,13	39	0,81
Salmonellyoz	0	0,00	8	0,16	30	0,57	22	0,46
Alimentar diareya	92	2,52	38	0,77	26	0,50	23	0,48
Virusli gepatitlar (jami)	625	17,13	769	15,63	1007	19,20	969	20,14
Bronxo-pnevmoniya	0	0	1	0,02	2	0,04	0	0,00
Covid-19	301	8,25	83	1,69	13	0,25	0	0,00
boshqa	63	1,73	96	1,95	113	2,15	99	2,06
Jami	3648	100,0	4920	100,0	5245	100,0	4812	100,0

Mazkur holatda bizning e’tiborimizni tortgan asosiy o‘zgarishlar, avvalo qizamiq bilan bog‘liq bo‘lgan holatlardir. Chunki 2021-yilda 0% bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilda 28,55% gacha o‘sib, mutlaq epidemik ko‘rinishga ega bo‘ldi. Bu esa mazkur kasallikni yo‘q qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli profilaktika tadbirlariga qaramay tashvishli holatdir.

Shuningdek, o‘tkir diareya tahlil qilingan yillarda o‘ziga xos xususiyatlarni ko‘rsatdi. U 2021–2023-yillarda kasallanish tuzilmasida ustunlik qilgan (≈38%), biroq 2024-yilda deyarli ikki baravar kamaydi.

Biroq shunday ko‘rinishga qaramay, 2024-yilda o‘tkir respirator kasalliklar 22% dan 14% gacha pasaydi. 40% dan ortiq qisqarish postpandemik davrdagi sog‘lomlashuv, gigiyenik

sharoitlarning yaxshilanishi yoki aholining o‘z-o‘zini davolash imkoniyati tufayli murojaatlar kamayishi bilan izohlanishi mumkin.

Virusli gepatitlar esa izchil o‘sish tendensiyasini ko‘rsatmoqda: 2021-yilda 17,13%, 2022-yilda 15,63%, 2023-yilda 19,20% va 2024-yilda 20,14%. Erishilgan yutuqlarga qaramay, virusli gepatitlar o‘choqlari hali ham qayd etilmoqda, asosan ijtimoiy jihatdan zaif va olis hududlarda. Gepatit A endemik bo‘lib qolmoqda, ayniqsa maktab yoshidagi bolalar orasida. Gepatit B va C esa yuqori xavf guruhlari orasida (tibbiyot xodimlari, gemodializ oluvchilar, inyeksion narkotik moddalarni iste’mol qiluvchilar) surunkali virusli infeksiya sifatida yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasida virusli gepatitlarga qarshi milliy strategiya 2022-yildan boshlab joriy etilgan.



Rasm 1. Tuzilma tahlili (umumiy son ichidagi ulush bo‘yicha)

Izoh: O‘tkir ichak infeksiyalarining kamayishi, shuningdek surunkali patologiyalar va virusli gepatitlar sonining ortishi kuzatilmoqda.

Jigar sirrozining yuqori va barqaror darajasi (≈11–13%) virusli gepatitlarning kech aniqlanishini va qo‘shimcha xavf omillari, jumladan spirtli ichimliklar iste’moli hamda gepatotoksik dorilar mavjudligini ko‘rsatadi.

Infeksion kasalliklarning nozologik tuzilmasi bo‘yicha 2021–2024-yillar davridagi tahlil natijalari Xorazm viloyatida infeksion kasalliklar manzarasini umumiy ko‘rinishda ifodalovchi 1-rasmda tasvirlangan. Ushbu davr mobaynida asosiy o‘zgarishlar quyidagicha bo‘ldi: qizamiq – 2021-yildagi 0% dan 2024-yilda 28,55% gacha oshib, mutlaq epidemik o‘sish qayd etildi; o‘tkir diareya – 2021–2023-yillarda ≈38% bilan yetakchi o‘rin egallagan, biroq 2024-yilda deyarli ikki baravar kamaygan, o‘tkir respirator kasalliklar – 22% dan 14% gacha pasaygan (2024), virusli gepatitlar – o‘sishda davom etib, 2024-yilda 20,14% ni tashkil etgan, jigar sirrozi – barqaror yuqori ko‘rsatkichda saqlangan (≈11–13%).

Olingan ma’lumotlar asosida o‘rganilgan yillar davomida viloyatdagi infeksion vaziyat bo‘yicha bir qator statistik tadqiqotlar amalga oshirildi. Buning uchun dastlab aniqlangan barcha infeksion kasallik holatlari tahlil qilindi va quyidagi dinamik natijalar olindi (jadval 2), 2022-yilda keskin o‘sish (+35%), 2023-yilda o‘rtacha o‘sish va 2024-yilda qizamiqning o‘ta yuqori

ko‘rsatkichlari (mazkur nozologiya bo‘yicha 1800% o‘sis) qayd etilganiga qaramay pasayish kuzatildi.

Jadval 2.

Infeksion kasallanish dinamikasining umumiy tavsifi (2021–2024-yillar)

Yil	Mutlaq son	O‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish	O‘sish sur’ati (%)
2021	3 648	–	–
2022	4 920	+1272	+34,9%
2023	5 245	+325	+6,6%
2024	4 812	–433	–8,3%

Tadqiqotning keyingi bosqichida Xorazm viloyatida 100 ming aholiga to‘g‘ri keladigan kasallanish ko‘rsatkichlari, ularning dinamikasi va o‘rganilgan yillardagi tarqalishi tahlil qilindi (jadval 3). Ushbu holatda ham bir qator o‘ziga xos jihatlar aniqlandi: 2024-yilda qizamiqning keskin o‘sishi (3,68 dan 68,85 gacha 100 ming aholiga) epidemik ko‘tarilishdan dalolat beradi; o‘tkir diareya yetakchi nozologiya bo‘lib qolmoqda (eng yuqori ko‘rsatkich 2023-yilda — 100,66 nafar/100 ming aholiga), O‘RZ yuqori va barqaror ko‘rsatkichlarga ega, biroq 2024-yilda pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, Covid-19 holatlari 2024-yilda nolga tushdi, virusli gepatitlar 2023-yilgacha o‘sdi, keyin esa barqarorlashdi, 2021-yildan keyin ovqatdan kelib chiqadigan diareya sezilarli darajada kamaydi, jigar sirrozi esa 2023-yilgacha barqaror o‘sib, keyinchalik kamaygan (rasm 2).

Jadval 3.

Nozologiyalar bo‘yicha kasallanish ko‘rsatkichlari 100 ming aholiga nisbatan (yillar kesimida)

Kasallik	2021	2022	2023	2024
Qizamiq	0,00	0,00	3,68	68,85
O'tkir diareya	74,31	98,90	100,66	45,20
O'tkir respiratorli infektsiyalar	38,82	57,17	58,63	34,53
Jigar sirrozi	18,80	32,33	35,24	27,71
Suvchechak	2,22	8,94	5,87	5,16
Skarlatina	1,27	6,29	2,60	1,95
Surunkali gepatit	0,16	0,36	0,36	1,95
Salmonellyoz	0,00	0,42	1,53	1,10
Ovqat hazm qilish diareya	4,86	1,97	1,33	1,15
Virusli gepatit (qo'shma)	33,01	39,97	51,43	48,56
Bronxo-pnevmoniya	0,00	0,05	0,10	0,00
Covid-19	15,90	4,31	0,66	0,00
Boshqalar	3,33	4,99	5,77	4,96



Rasm 2. Infeksion kasallanish dinamikasi (100 ming aholiga nisbatan)

Izoh: Rasm mualliflar tomonidan tayyorlangan. Chiziqli grafik asosiy nozologiyalar bo‘yicha kasallanish dinamikasini ko‘rsatadi. 2024-yilda qizamiqning keskin o‘sishi va COVID-19 kasallanishining pasayishi kuzatilmoqda.

Umumiy tanlanma tuzilmasiga ko‘ra, rasmiy statistik ma’lumotlar asosida viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasiga virusli gepatitlar bo‘yicha murojaatlar quyidagicha qayd etilgan: 2021-yilda – 623 ta holat (100 ming aholiga 33,01), 2022-yilda – 767 ta holat (39,97‰oo), 2023-yilda – (51,43‰oo) va 2024-yilda – (48,56‰oo). Virusli gepatitlar umumiy soni 2021-yildan 2023-yilgacha +61,6% ga oshgan, ammo 2024-yilda 3,8% ga kamayishi qayd etilgan (rasm 3).



Rasm 3. Virusli gepatitlar bo‘yicha kasallanish dinamikasi 2021-2024 йй

O‘rganilgan yillar davomida ayrim virusli gepatit (VG) nozologiyalarida keskin ko‘tarilish kuzatildi. Masalan, o‘tkir virusli gepatit A 2021-yilda 21 ta holatdan 2024-yilda 380 taga oshib, uch yil ichida +1 709% ni tashkil etdi; uning ulushi 3,4% dan 39,2% gacha (+35,8 foiz punkt) o‘sdi. Ayniqsa, 2022→2023-yillarda +218 ta va 2023→2024-yillarda +143 ta ortish bilan keskin ko‘rsatkich qayd etilgan. Shu bilan birga, XVG-B va XVG-C bo‘yicha kamayish kuzatilmoqda: 2021-yilda mos ravishda 352 va 202 ta bo‘lgan holatlar prognoz bo‘yicha 217 va 270 taga tushgan. OVG-B va OVG-C esa qoldiq faollikni namoyon qilmoqda (jadval 4).

Jadval 4.

Virusli gepatit kasalligi tarqalishi turlari bo’yicha (mutloq va %)

Nazologiya	2021	2021%	2022	2022%	2023	2023%	2024	2024%
OVG-A	21	3,4	19	2,5	237	23,5	380	39,2
OVG-B	5	0,8	4	0,5	2	0,2	1	0,1
OVG-C	21	3,4	2	0,3	0	0,0	22	2,3
XVG-B	202	32,4	271	35,3	303	30,1	219	22,6
XVG-C	352	56,5	437	57,0	435	43,2	326	33,6
XVG-B+C	11	1,8	21	2,7	18	1,8	8	0,8
XVGB+D	11	1,8	13	1,7	12	1,2	13	1,3
Jami	623	100,0	767	100,0	1007	100,0	969	100,0

2025-yil uchun nozologiyalar bo‘yicha qiyosiy prognoz OVG-A bo‘yicha bir xil xulosalarni beradi va natijada 2021–2025 yillar oralig‘ida 23 martadan ortiq o‘sish kuzatiladi. OVG-B va OVG-C sporadik holatda qolmoqda, biroq laboratoriya differensiallashuvi va etiologik tasdiqlashni talab qiladi. Pasayish holati haqiqiy epidemiologik vaziyatni ham, shuningdek ro‘yxatga olish yoki tashxisdagi muammolarni ham aks ettirishi mumkin.

XVG-B tebranuvchan xatti-harakatga ega: 2021–2023-yillarda o‘sish, 2023–2024-yillarda pasayish qayd etilgan, 2025-yil prognozida esa o‘rtacha tiklanish kuzatiladi. Bu ko‘rsatkich ko‘proq dispanserizatsiyani aks ettiradi, ammo real kasallanish emas. Shu sababli barqaror skrining protokollari va davolash monitoringini talab qiladi.

XVG-C bo‘yicha ko‘rsatkich 437 dan prognoz qilingan 217 taga pasaymoqda, biroq u hali ham yetakchi surunkali virusli gepatit shakli hisoblanadi va xavf guruhlarini qamrab olishni talab qiladi (jadval 5).

Klasterning tahlili ikki aniq guruhni ko‘rsatdi, o‘tkir shakllar (OVG-A, B, C) va surunkali shakllar (XVG-B, C). Tuzilmadagi siljish o‘tkir shakllar tomon bo‘lib, bu epidemiologik profil transformatsiyasini tasdiqlaydi. Aralash shakllar tahlildan chiqarib tashlandi, chunki ularning kuzatilgan holatlari juda kam bo‘lib, dinamikasi notekis, bu esa ishonchli klasterlashga xalaqit beradi.

Jadval 5.

2025-yil uchun kasallanish prognozi (ETS usuli)

Nazologiya	2025 yil uchun prognoz	Tendensiya	Izohlash
ОВГ-А	488 holatlar	↑	Epidemik o‘sishning davom etishi
ОВГ-В	0	↓	2025 yilda to‘liq yo‘qolishi tahmin qilinmoqda
ОВГ-С	11 holatlar	↓	Avvalgi pasayishiga qaramay, qaytishi kutilmoqda
ХВГ-В	270 holatlar	↑	2022 yil darajasiga qaytish
ХВГ-С	217 holatlar	↓	3 yil ichida qariyb 50% pasayish

XULOSA. Olingan natijalar Xorazm viloyatida infeksion kasalliklarga qarshi kurashda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda mavjud muammolarni ham ko‘rsatmoqda. Qizamiq va A

gepatitiga qarshi profilaktik choralarni kuchaytirish zarur. 2025 yil prognozi mintaqada epidemiologik nazoratni mustahkamlash hamda gepatitga yo‘naltirilgan dasturlarni moliyalashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, tez-tez uchraydigan infeksiyalar bo‘yicha rezistentlik monitoringi erta tashxis qo‘yish, vaziyatni o‘z vaqtida qamrab olish va og‘ir asoratlarning oldini olish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Куракин Э.С. Молекулярно-биологические, клинические и эпидемиологические особенности нозокомиальных острых кишечных инфекций // Военно-медицинский журнал. 2011. Т. 332. № 7. С. 63-64.
2. Kurakin E.S. Molecular-biological, clinical and epidemiological features of nosocomial acute intestinal infections // Military Medical Journal. 2011. T. 332. № 7. C. 63-64.
3. Яковлев С. А. Инфекционные заболевания как глобальная проблема современности // Территория науки. 2017. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/infektsionnye-zabolevaniya-kak-globalnaya-problema-sovremennosti
4. Yakovlev S. A. Infectious diseases as a global problem of modernity // Territory of Science. 2017. №1.
5. WHO. Global hepatitis report 2024. Geneva: World Health Organization; 2024.
6. Крамп Дж.А., Шёлунд-Карлссон М., Гордонц М.А., Парри К.М. Эпидемиология, клиническая картина, лабораторная диагностика, устойчивость к противомикробным препаратам и антимикробное лечение инвазивных сальмонеллезных инфекций // Clin Microbiol Rev. — 2015г — № 28 (4). — С. 901–937.
7. Crump J.A., Sjölund-Karlsson M., Gordonz M.A., Parry K.M. Epidemiology, clinical presentation, laboratory diagnosis, antimicrobial resistance and antimicrobial treatment of invasive salmonellosis infections // Clin Microbiol Rev. - 2015г - № 28 (4). - С. 901-937.
8. Haselbeck AH, Panzner W, Im J, Baker S, Meyer KG, Marks F. Current perspectives on invasive nontyphoidal salmonellosis // Curr Opin Infect Dis. - 2017. - № (5). - С. 498-503.
9. Николаева И. В., Ткачева С. В., Фазульзянова А. И., Латфуллина З. З., Рахманова О. А., Белова М. Н. Клинико-эпидемиологическая и лабораторная характеристика пищевой вспышки сальмонеллеза // ПМ. 2023. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/kliniko-epidemiologicheskaya-i-laboratornaya-harakteristika-pischevoy-vspyshki-salmonelleza.
10. Nikolaeva I.V., Tkacheva S. V., Fazuzlizhnova AI, Latfullina Z. Z., Rakhmanova O. A., Belova MN. A., Belova MN Clinico-epidemiological and laboratory characteristics of a foodborne outbreak of salmonellosis // PM. 2023. №2.
11. Глушкова Е.В., Бражников А.Ю., Краснова С.В., Глазовская Л.С., Савкина А.А., Никитин Н.В., Коршунов В.А., Брико Н.И. Клиникоэпидемиологическая характеристика скарлатины в России. Эпидемиология и Вакцинопрофилактика. 2023;22(3):14-25. https://doi.org/10.31631/2073-3046-2023-22-3-14-25
12. Glushkova E.V., Brazhnikov A.Yu., Krasnova S.V., Glazovskaya L.S., Savkina A.A., Nikitin N.V., Korshunov V.A., Briko N.I. Clinical and epidemiological characteristics of scarlatina in Russia. Epidemiology and Vaccinoprophylaxis. 2023;22(3):14-25.
13. WHO. Measles cases surge worldwide, infecting 10.3 million people in 2023
14. Bassetti, Matteo; Giacobbe, Daniele Roberto; Sepulcri, Chiara; Labate, Laura. Epidemiology, clinical overview, and potential risk of a new pandemic of measles virus. Infectious Diseases & Immunity ():10.1097/ID9.0000000000000165, May 07, 2025. | DOI: 10.1097/ID9.0000000000000165

15. Minta AA, Ferrari M, Antoni S, et al. Progress Toward Measles Elimination — Worldwide, 2000–2023. MMWR Morb Mortal Wkly Rep 2024;73:1036–1042. DOI: http://dx.doi.org/10.15585/mmwr.mm7345a4

16. European Centre for Disease Prevention and Control. Measles. In: ECDC. Annual Epidemiological Report for 2023. Stockholm: ECDC; 2024.

17. Muscat, M.; Ben Mamou, M.; Reynen-de Kat, C.; Jankovic, D.; Hagan, J.; Singh, S.; Datta, S.S. Progress and Challenges in Measles and Rubella Elimination in the WHO European Region. Vaccines 2024, 12, 696. https://doi.org/10.3390/vaccines12060696

18. "European Region reports highest number of measles cases in more than 25 years – UNICEF, WHO/Europe". unicef.org. UNICEF. Retrieved 15 March 2025.

19. World Health Organization (28 April 2025). Disease Outbreak News; Measles in the Region of the Americas. Available at: https://www.who.int/emergencies/disease-outbreak-news/item/2025-DON565

20. Plotkin SA (2001). "Rubella eradication". Vaccine. 19 (25–26): 3311–9. doi:10.1016/S0264-410X(01)00073-1. PMID 11348695.

21. Danovaro-Holliday MC, LeBaron CW, Allensworth C, et al. (2000). "A large rubella outbreak with spread from the workplace to the community". JAMA. 284 (21): 2733–9. doi:10.1001/jama.284.21.2733

22. Ministry of Health of Uzbekistan. Strategic Immunization Plan 2023–2026.

23. Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan. Annual health statistics bulletin, 2023.

24. Maniyazova U. Rising incidence of hepatitis A in Uzbekistan prompts vaccination push. // Gavi; 5 Apr 2024.

25. Juraev J, Mirzaev U, Juraev I, Baynazarov M, Kurbanov B. A Comparative Analysis of Drinking Water Provision and Hepatitis A Incidence in Uzbekistan in 2010-2023. Cureus. 2024 Aug 31;16 (8):e 68347. doi: 10.7759/cureus.68347. PMID: 39355068; PMCID: PMC11442888.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA KO’Z KASALLIKLARINING TARQALGANLIGI VA XAVF OMILLARINI BILISH DARAJASINI O’RGANISH

Nuraliyeva Nargiza Bekturdiyevna
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti, PhD, Katta o’qituvchi
Usmonova Yulduz Sherzod qizi
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti, Talaba
Abdurashidova Sevara Abdurashid qizi
Urganch Davlat Tibbiyot Instituti, Talaba
yusmonova880@gmail.com
Tel: (90) 270 81 03

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilari orasida ko‘z salomatligiga oid profilaktik bilimlar darajasi, ularning gigiyenik ko‘nikmalari va ko‘rish qobiliyatini asrashdagi amaliy yondashuvlar o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilar orasida ko‘z salomatligiga oid bilimlar yetarli emasligi, bu esa konyuktivit va boshqa ko’rish buzilishlari ko‘payishiga sabab bo‘layotgani aniqlandi. Profilaktik bilimlarni oshirish uchun ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzi targ‘iboti, ko‘z mashqlari va yoritilish gigiyenasiga rioya qilish zarurligi ko‘rsatildi. Mazkur maqolada Xorazm va Samarqand viloyatlarida maktab o‘quvchilari orasida ko‘z kasalliklari profilaktikasi bo‘yicha bilim darajalari o‘rganildi, natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi maqtab yoshidagi bolalar o’rtasida ko’z kasalliklari xavf omillarini tarqalganligini baholashdan iborat bo’ldi. Tadqiqotda ijtimoiy-so’rovnoma va statistik usullardan foydalanilgan. Statistik ko’rsatkichlar nisbiy va o’rtacha miqdorlarda ifodalangan, o’rtacha xatolikni hisoblash ±m va Styudent kriteriysi t asosida ko’rsatkichlar chinligi baholangan.

Kalit so’zlar: ko‘z salomatligi, konyuktivit, maktab o‘quvchilari, profilaktika, gigiyena.

Аннотация: В статье рассматривается уровень профилактических знаний о здоровье глаз у школьников, их гигиенические навыки и практические подходы к сохранению зрения. По результатам исследования установлено, что у студентов наблюдается недостаточный уровень знаний о здоровье глаз, что приводит к росту заболеваемости конъюнктивитом и другими нарушениями зрения. Подчеркнута необходимость пропаганды здорового образа жизни, проведения гимнастики для глаз, соблюдения гигиены освещения в образовательных учреждениях для повышения профилактических знаний. В данной статье изучен уровень знаний по профилактике глазных заболеваний среди школьников Хорезмской и Самаркандской областей, а также проведен сравнительный анализ полученных результатов. Целью исследования была оценка распространенности факторов риска заболеваний глаз среди детей дошкольного возраста. В исследовании использовались методы социологического опроса и статистики. Статистические показатели выражаются в относительных и средних величинах, а точность показателей оценивается на основе расчета стандартной ошибки ± μ и t-критерия Стьюдента.

Ключевые слова: здоровье глаз, конъюнктивит, школьники, профилактика, гигиена.

Abstract: This article examines the level of preventive knowledge about eye health among schoolchildren, their hygiene skills, and practical approaches to preserving vision. According to the results of the study, it was found that there is insufficient knowledge about eye health among students, which is leading to an increase in conjunctivitis and other vision disorders. The need to promote a healthy lifestyle, perform eye exercises, and observe lighting hygiene in educational institutions was highlighted to increase preventive knowledge. This article studied the level of knowledge on the prevention of eye diseases among schoolchildren in the Khorezm and Samarkand regions, and the results were comparatively analyzed. The aim of the study was to assess the prevalence of risk factors

for eye diseases among preschool-aged children. The study used socio-survey and statistical methods. Statistical indicators are expressed in relative and average values, and the accuracy of the indicators is assessed based on the calculation of the standard error ± μ and the Student's t test.

Keywords: eye health, conjunctivitis, schoolchildren, prevention, hygiene.

Kirish: Aholi salomatligini mustahkamlashda profilaktik choralar, xususan, ko‘z kasalliklarining oldini olish tadbirlari alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda bolalar orasida kompyuter, telefon va boshqa elektron qurilmalardan ortiqcha foydalanish ko‘rish qobiliyatining pasayishiga sabab bo‘layotgani qayd etilmoqda. Shuningdek, gigiyenaga yetarlicha amal qilmaslik, noto‘g‘ri ovqatlanish va ekologik omillar ko‘z kasalliklari xavfini oshirmoqda [1–3]. Maktab yoshidagi bolalarda ko‘z salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalar mavjudligini aniqlash kelajakda sog‘lom avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, ushbu tadqiqotda Xorazm va Samarqand viloyatlarida o‘quvchilar orasida ko‘z kasalliklari profilaktikasi bo‘yicha bilim darajasi o‘rganildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Ko‘plab ilmiy manbalarda bolalarda ko‘rish buzilishlarining asosiy sabablari sifatida ortiqcha vizual zo‘riqish, noto‘g‘ri o‘tirish, yetarli yorug‘lik sharoitining ta’minlanmaganligi hamda gigiyenaga rioya qilmaslik ko‘rsatiladi [4–6]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 1,1 milliarddan ortiq inson turli darajadagi ko‘rish nuqsonlariga ega bo‘lib, ularning katta qismini o‘smirlar tashkil etadi [7].

O‘zbekistonda ham ko‘z kasalliklari profilaktikasi bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ular orasida o‘quvchilarda gigiyena madaniyatini shakllantirish va ota-onalarning xabardorligini oshirish zaruriyati alohida ta’kidlanadi [8–9].

Tadqiqot 2025-yilda Xorazm va Samarqand viloyatlarida o‘tkazilgan bo‘lib, jami maktab o‘quvchilari o‘rtasida anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma 20 dan ortiq savolni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularda quyidagi yo‘nalishlar qamrab olindi:

shaxsiy gigiyena odatlari (qo‘l yuvish, meva-sabzavotlarni yuvish va h.k.);

kundalik odatlar (TV, kompyuter, telefon ishlatish davomiyligi);

ko‘z salomatligi va profilaktika bo‘yicha bilimlar (ko‘zoynakdan foydalanish, ko‘z mashqlari, shifokor ko‘rigidan o‘tish zarurligi, irsiyat va infeksiya xavfi haqidagi qarashlar).

So‘rov natijalari foiz hisobida qayd etildi. Xorazm viloyati bo‘yicha respondentlarning asosiy javoblari jadval ko‘rinishida yig‘ildi (42,31% — 7-sinf, 33,08% — 8-sinf, 24,62% — 9-sinf va h.k.), Samarqand viloyati uchun esa mos ravishda (28,19% — 7-sinf, 34,90% — 8-sinf, 36,91% — 9-sinf va h.k.) ma’lumotlar aniqlandi.

Ma’lumotlar taqqoslash va qiyosiy tahlil usullari asosida qayta ishlanib, natijalar bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarildi.

Natija: So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, Xorazm va Samarqand viloyatlarida maktab o‘quvchilari orasida ko‘z salomatligi bo‘yicha bilim va odatlarda muayyan o‘xshashlik va tafovutlar kuzatildi.

Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning ko’z kasalliklari nasliy moyilligi bo’yicha bilish holatini tahlil qilganimizda Samarqand viloyati o‘quvchilarning 40,94±4,03% i ushbu kasalliklarda nasliylik omil sifatida bo’lishini bildirgan bo’lsa, 15,44±2,96% i “yo‘q” deb javob bergan, 43,62±4,06% i bu masalada umuman tushunchaga ega emasligini bildirganlar. Xorazm viloyatida esa bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 40,00±4,30% — “ha”, 21,54±3,61% — “yo‘q” va 38,46±4,27% — “bilmayman” javoblarini tanlaganliklari billan ifodalandi. Ushbu natijalar ikkala viloyatda ham o‘quvchilarning qariyb yarmi ko‘z kasalliklarining irsiy xususiyati haqida to‘g‘ri tasavvurga ega emasligini, ya’ni bilmayman yoki noto‘g‘ri deb javob berganini ko‘rsatadi. Xar ikkala viloyatni taxlili jarayonida deyarli 2/3 qismida yaqin qarindoshlari (ota-ona, aka-uka, opa-singillarida) ko’z xiralashishi, ko’z o’tkirligi pasayishi, ko’zoynak taqishlari aniqlandi.

Hozirgi zamonaviy hayotda telefon, uyali aloqa, gadjetlardan foydalanish davr talabiga aylangan. Shu jumladan bu holat maktab o’quvchilarining o’rtasida ham ommaviylashganini

ko’rishimiz mumkin. Shu boisdan bizni qiziqtirgan savol ularni o’rtasida telefondan foydalangandan keyin ularni gigiyenik jihatdan qanday yondashishiga bag’ishlangan bo’ldi. Buni bilish uchun biz o’quvchilarga “Telefondan foydalangandan keyin qo‘lingizni yuvasizmi?” degan savol bilan murojaat qilindi. Bu savol orqali o‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanishdan keyingi shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishi baholandi. Samarqand viloyatida o‘quvchilarning atigi 17,45±3,11% i bu odatga ega ekani (ya’ni “ha” deb javob bergan), 46,98±4,09% i qo‘l yuvmasligini bildirgan, 36,24±3,94% i esa har doim emas deb javob berdi. Xorazm viloyatida esa bu boradagi ko‘rsatkichlar ijobiyroq bo‘lib, 48,46±4,38% o‘quvchi qo‘l yuvishini bildirgan, 24,62±3,78% i yo‘q, 26,92±3,89% i esa har doim emas deb javob berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Samarqand viloyatida telefon orqali yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan gigiyenik qoidalarga amal qilinishi darajasi juda past. Xorazm viloyatida esa bu boradagi xabardorlik va odat nisbatan yuqori bo‘lsa-da, taxminan yarmi hali ham gigiyenik tavsiyalarga to‘liq rioya qilmaydi. Bu natijalar o‘quvchilarning gajetlardan foydalanish bilan bog‘liq gigiyena xatarlari haqida yetarli ma’lumotga ega emasligini ko‘rsatadi. Aslida, telefondan foydalangandan so‘ng qo‘l yuvish — infeksion profilaktika choralarining asosiy talabi hisoblanadi.

O‘quvchilarning ko’z salomatligini muhofaza qilishga bo’lgan e’tibori, profilaktik mashqlardan foydalanish odatlari hamda ularni amaliy hayotda qo’llashini aniqlash maqsadida ularga “Ko‘zlaringiz charchaganda va ko‘z xiralashishini oldini olish uchun ko‘zingizni mashq qilib turasizmi?” degan savol berildi. Bu orqali ko‘z salomatligi uchun bajariladigan profilaktik mashqlar haqida xabardorlik va amaliyot darajasi baholandi. Samarqand viloyatida o‘quvchilarning 40,27±4,02% i ushbu mashqlarni bajarishini bildirgan (“ha” javobi), 36,91±3,95% i esa bunday mashq qilmasligini aytgan. Qolgan 22,82±3,44% i esa bunday mashqlar mavjudligini bilmasligini bildirgan. Xorazm viloyatida esa bu boradagi ko‘rsatkichlar nisbatan ijobiyroq bo‘lib, 63,08±4,23% o‘quvchi bunday mashqlarni bajarishini bildirgan. 25,38±3,82% i bu odatga ega emas, 11,54±2,80% i esa ko‘z mashqlari haqida umuman xabarsiz bo‘lgan. Mazkur natijalar shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyatida ko‘z mashqlari bo‘yicha xabardorlik va uni amaliyotga tatbiq qilish darajasi ancha yuqori, Samarqandda esa o‘quvchilarning qariyb 60% dan ortig‘i bu borada sust yoki umuman bexabar. Bu holat ko‘z zo‘riqishining oldini olish, uzoq vaqt ekran oldida ishlash xavfini kamaytirish borasida maktab o‘quvchilari orasida tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarurligini anglatadi.

Ma’lumki, tibbiy ko‘rik muayyan kasalliklar va ayrim ko‘rish buzilishining oldini olish uchun zarurdir. Agar ko‘zda shikoyat bo‘lmasa har yili yoki 2 yilda 1marta oftalmolog ko‘rigiga borish kerak. Bu haqda o’quvchilar qanday fikrda ekanligini aniqlash uchun ularga quyidagi savol bilan murajaat qilindi: “Ko‘zingiz yaxshi ko‘rayotgan bo‘lsa va hech qanday shikoyatingiz bo‘lmasa ham ko‘z shifokori ko‘rigidan o‘tish kerak deb o‘ylaysizmi?” Bu orqali tibbiy profilaktikaning mohiyatini tushunish darajasi baholandi. Samarqand viloyatida o‘quvchilarning 31,54±3,81% i bunday holatda shifokorga borishni keraksiz deb hisoblagan, 35,57±3,92% i esa doimiy tibbiy ko‘riklar zarur deb hisoblagan. Qolgan 32,89±3,85% o‘quvchi bu borada aniq fikrga ega emasligini bildirgan. Xorazm viloyatida esa ijobiy yondashuv kuchliroq bo‘lib, 46,92±4,38% o‘quvchi doimiy ko‘z shifokori ko‘rigini zarur deb hisoblagan, 34,62±4,17% i esa bunday ko‘rikni keraksiz deb bilgan, 18,46±3,40% i esa bu borada noaniq javob bergan. Ushbu natijalar ko‘rsatadiki, Xorazm viloyatidagi o‘quvchilarning profilaktik tibbiy madaniyati nisbatan yuqori, ammo Samarqand viloyatida o‘quvchilarning uchdan bir qismi hali ham ko‘z shifokoriga faqat muammo bo‘lgandagina murojaat qilish kerak degan noto‘g‘ri qarashga ega. Bu esa maktab sog‘lomlashtirish tizimi va sog‘liqni saqlash bo‘yicha ta’limiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Bilamizki, sog‘lom bo‘lishimiz uchun ovqatlanish muhim ahamiyatga ega. Odam organizmining o‘sishi, rivojlanishi va hayot kechirishi hamda salomatligi sog‘lom ovqatlanishga bog‘liq. Olimlarning aniqlashicha ko‘z uchun ayniqsa, sabzi, baliq, karam, qovoq, go‘sht, ismaloq, makkajo‘xori, tvorog, bodring kabi mahsulotlar juda foydali. So‘rovnomada o‘quvchilarga “Ko‘rish o‘tkirligini yaxshilash uchun qanday mahsulotlar iste’mol qilish mumkin?” degan savolsavol bilan

murojaat qilindi. Bu savol orqali ovqatlanish va ko‘z salomatligi o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risidagi bilimlar baholandi. Samarqand viloyatida o‘quvchilarning javoblari quyidagicha taqsimlandi: tarvuz – 28,86±3,71%, qovoq – 15,44±2,96%, baliq – 87,92±2,67%, bodring – 22,15±3,40%, sabzi – 37,58±3,97%, go‘sht – 53,69±4,08%, tvorog – 36,91±3,95%. Xorazm viloyatida esa bu ko’rsatkichlar mos ravishda quyidagicha: 27,69±3,92% - 15,38±3,16% - 16,92±3,29% - 53,08±4,38% - 28,46±3,96% - 32,31±4,10% - 71,54±3,89%. Tahlillarga ko‘ra, Samarqandda baliq, Xorazmda esa sabzi va baliq mahsulotlari eng ko‘p tanlangan, bu esa ko‘z salomatligiga ijobiy ta’sir qiluvchi mahsulotlar haqidagi qisman to‘g‘ri bilim mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tarvuz, bodring va go‘sht kabi mahsulotlar ko‘proq tanlangan holatlar mavjud bo‘lib, bu esa o‘quvchilarning ko‘z uchun muhim vitaminlar va minerallar (masalan, A vitamini, omega-3) haqida yetarli tibbiy tushunchaga ega emasligini anglatadi.

Bilamizki, ko’z kasalliklari turli sabablarga ko’ra yuzaga keladi, biroq aholining ularga ularga nisbatan qarashlari turlicha bo’lishi mumkin. Shu boisdan o‘quvchilar bu haqda qanday fikrda ekanliklarini aniqlash maqsadida ularga “Ko‘z kasalliklari yuqumli deb o‘ylaysizmi?” degan savol berildi. Ushbu savol ularning kasalliklarning etiologiyasi va turlari haqida umumiy tibbiy savodxonlik darajasini baholashga xizmat qildi. Samarqand viloyatida o‘quvchilarning: 32,89±3,85% i “ha”, 42,95±4,06% i “yo‘q”, 24,16±3,51% i esa “bilmayman” deb javob berdi. Xorazm viloyatida esa bu ko‘rsatkichlar quyidagicha taqsimlandi: “ha” – 14,62±3,10%, “yo‘q” – 56,92±4,34%, “bilmayman” – 28,46±3,96%. Mazkur natijalar tahlilida shuni ko‘rish mumkinki, Xorazm viloyatidagi o‘quvchilar orasida ko‘z kasalliklarining yuqumli emasligi haqida to‘g‘ri tushunchaga ega bo‘lganlar soni ancha yuqori. Aksincha, Samarqand viloyatida har uchinchi o‘quvchi ko‘z kasalliklari yuqumli deb hisoblagan.Bu esa o‘quvchilar orasida ko‘z kasalliklarining tabiati (infeksion va noinfeksion shakllari) haqida etarlilik darajasida tibbiy-ma’rifiy tushuntirish ishlari olib borilmayotganini anglatadi. Shu boisdan maktablarda bu yo‘nalishda anatomik va fiziologik bilimlarni ommaviy ta’lim dasturlariga kiritish zarur deb hisoblanadi.

O‘quvchilarga ko’z salomatligiga tahdid soluvchi tashqi omillar haqidagi xabardorligi va profilaktik choralarni qo’llash darajasini aniqlash maqsadida ularga “Ko‘zlaringizni quyosh nuri va ultrabinafsha (UV) nurlardan himoyalash uchun ko‘zoynaklardan foydalanasizmi?” degan savol berildi. Bu savol orqali ko‘z salomatligi uchun zarur bo‘lgan tashqi profilaktika choralariga rioya qilinishi darajasi aniqlashtirildi. Samarqand viloyatida o‘quvchilarning: 22,15±3,40% i — “ha”, 57,72±4,05% i — “yo‘q”, 20,13±3,29% i esa — “har doim emas” deb javob bergan. Xorazm viloyatida esa javoblar quyidagicha taqsimlandi: “ha” – 19,23±3,46%, “yo‘q” – 60,77±4,28%, “har doim emas” – 20,00±3,51%. Natijalardan ko‘rinadiki, har ikki viloyatda ham o‘quvchilarning aksariyati quyosh nurlari va UV ta’siridan ko‘zlarini himoya qilmaydi, ya’ni himoyalovchi ko‘zoynaklardan foydalanish odati mavjud emas. Bu esa quyidagi muammolarni ko‘rsatadi: Ko‘z salomatligiga UV nurlarining zararli ta’siri haqida xabardorlik past, profilaktik vositalardan foydalanish madaniyati shakllanmagan. Mazkur holat maktab sog‘liqni saqlash ta’limida tashqi omillarning ko‘z salomatligiga ta’siri bo‘yicha ma’lumotlarni kengaytirish lozimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning telefon bilan bog‘liq gigiyena odatlarini baholash uchun “Hammom va hojatxonada telefondan foydalanasizmi?” degan savol berildi. Samarqand viloyatida quyidagi natijalar olindi: 9,40±2,39% — “ha” deb javob berganlar, 76,51±3,47% — “yo‘q” deb javob berganlar, 14,09±2,85% — “har doim emas” deganlar. Xorazm viloyatida esa: 10,77±2,72% — “ha”, 73,85±3,85% — “yo‘q”, 15,38±3,16% — “har doim emas” degan javoblar olindi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning katta qismi gigiyenik jihatdan xavfli hisoblangan joylarda telefondan foydalanmasligini bildirgan, ammo taxminan har 10 nafar o‘quvchidan biri bu odatga ega. Shuningdek, “har doim emas” deb javob berganlar ulushi ham deyarli 15% atrofida bo‘lib, bu telefon gigiyenasi bo‘yicha muayyan befarqlik yoki bilimsizlik mavjudligini anglatadi. Bu esa fekal-oral yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar, bakterial kon’yunktivit, teri va ko‘zga tegishli boshqa kasalliklar

xavfini oshiradi. Shuning uchun o‘quvchilar o‘rtasida telefon gigiyenasi, mikrobiologik xavf va sanitariya qoidalari haqida tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarur.

O‘quvchilarning ko’z gigiyenasiga oid bilim darajasini, infeksion kasalliklarning oldini olish borasidagi xabardorligini aniqlashga qaratilgan savol berildi: “Ko‘zlaringizni muntazam qo‘llaringiz bilan ishqalash infeksiya yuqtirish xavfini keltirib chiqaradimi?” Bu savol orqali Samarqand viloyatida quyidagi javoblar olindi: “ha” – 85,23±2,91%, “yo‘q” – 6,04±1,95%, “bilmayman” – 8,72±5,86%. Xorazm viloyatida esa: “ha” – 78,46±3,61%, “yo‘q” – 6,92±2,23%, “bilmayman” – 14,62±3,10%. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, ikkala viloyatda ham o‘quvchilarning katta qismi ushbu gigiyenik xavf haqida to‘g‘ri tushunchaga ega. Ayniqsa Samarqand viloyatida bu ko‘rsatkich yuqoriroq (85% dan ortiq). Biroq Xorazm viloyatida “bilmayman” degan javob berganlar ulushi 14,62% ni tashkil etib, bu holat mavzuga oid bilimlarning har doim ham yetarli darajada emasligini ko‘rsatadi. Ko‘z atrofini kir qo‘l bilan ishqalash: bakterial yoki virusli kon’yunktivit, allergik reaksiyalar, yiringli yallig‘lanishlar (blefarit, keratit) kabi kasalliklar xavfini oshiradi. Shu bois, gigiyena odatlari, ayniqsa yuz va ko‘z sohasidagi tozalikka oid ta’limiy profilaktik ishlar muntazam olib borilishi kerak.

Bilamizki, hozirgi kunda aholi orasida ko’z kasalliklari keng tarqalmoqda. Buning bir qancha sabablari bor. Bunga o’quvchilar qanday fikrda ekanligini bilish uchun so‘rovnoma yakunida o‘quvchilarga “Hozirgi kunda aholi orasida ko‘z kasalliklarining keng tarqalishiga asosiy sabab nima deb o‘ylaysiz?” degan savol berildi. Ushbu savol o‘quvchilarning muammo ildizini tushunish darajasini o‘lchashga xizmat qildi. Samarqand viloyatida o‘quvchilarning katta qismi — 91,28±2,31% — kompyuter va telefondan me’yoridan ortiq foydalanishni asosiy sabab deb hisoblagan. Noto‘g‘ri ovqatlanish 8,72±2,31%, ekologik omillar esa 38,26±3,98% ko‘rsatkichi bilan qayd etilgan. Xorazm viloyatida esa ushbu javoblar mos ravishda: 81,54±3,40% – 7,69±2,34% – 34,62±4,17%.

Ushbu natijalar o‘quvchilarning ko‘z kasalliklarining zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liqligi to‘g‘risida ancha to‘g‘ri tushunchaga ega ekanligini, ayniqsa Samarqand viloyatida bu borada xabardorlik juda yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Biroq ovqatlanish va ekologik ta’sir kabi boshqa muhim omillar yetarlicha e’tirof etilmagan, bu esa ko‘z salomatligiga ta’sir qiluvchi kompleks omillar haqida chuqurroq tushuntirish va ta’limiy ishlar zarurligini anglatadi.

Muhokama: Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarda gigiyenaga rioya qilish darajasi yetarli bo‘lsa-da, ko‘z salomatligi profilaktikasiga oid bilimlar yetarli emas. Xorazm viloyatida gigiyena qoidalariga amal qilish yuqori darajada bo‘lsa, Samarqand viloyatida shifokor ko‘rigidan o‘tishga bo‘lgan e’tibor yuqoriligi kuzatildi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalariga ko‘ra, bolalarda ko‘z kasalliklari profilaktikasi uchun muntazam ravishda oftalmolog ko‘rigidan o‘tish, ko‘z mashqlarini bajarish va vizual yuklamani me’yorlashtirish talab etiladi [7]. Ammo tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning katta qismi ko‘z mashqlari haqida ma’lumotga ega emas. Bu esa maktablarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish ishlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalarda aks etgan xavf omillari (noto‘g‘ri ovqatlanish, elektron qurilmalardan ortiqcha foydalanish va ekologik omillar) xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar bilan hamohangdir [4–6]. Shu boisdan, profilaktik tadbirlar ishlab chiqishda mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda keng qamrovli sog‘lomlashtirish dasturlarini joriy etish lozim.

Xulosa: SHunday qilib, Xorazm va Samarqand viloyatlarida maktab o‘quvchilari orasida ko‘z kasalliklari profilaktikasiga oid bilimlar turlicha darajada bo‘lib, yetarli emasligi asoslangan bo’lsa, Xorazm viloyati o‘quvchilarida gigiyena odatlariga rioya qilish yuqoriroq, Samarqandda esa shifokor ko‘rigiga nisbatan ijobiy munosabat kuchliroq ekanligi aniqlandi. Elektron qurilmalardan haddan tashqari foydalanish har ikki hududda ham asosiy xavf omili sifatida qayd etildi. SHu sababdan, o’quvchilar o’rtasida ko’z kasalliklari Profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, maktablarda

oftalmologik ma’rifat ishlarini olib borish va bu borada ota-onalar ishtirokini kengaytirish maqsaddga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov Sh. va boshq. Bolalarda ko‘z kasalliklari profilaktikasi. Toshkent: Fan, 2018.
2. Rasulov A. Oftalmologiya asoslari. Samarqand: SamDTI nashriyoti, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Maktab gigiyenasi bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent, 2021.
4. Dolgin E. “The myopia boom.” Nature. 2015; 519: 276–278.
5. Morgan I.G., French A.N., et al. “The epidemics of myopia: Aetiology and prevention.” Prog Retin Eye Res. 2018; 62: 134–149.
6. Rose K.A., Morgan I.G., et al. “Outdoor activity reduces the prevalence of myopia in children.” Ophthalmology. 2008; 115(8): 1279–1285.
7. World Health Organization. World report on vision. Geneva: WHO, 2019.
8. Bozorov M. va boshq. Maktab yoshidagi bolalarda ko‘z salomatligini saqlash. Toshkent: Istiqlol, 2019.
9. Xudoyqulov B. Gigiyena va profilaktika asoslari. Buxoro: BuxDUPI nashriyoti, 2022.
10. Usmonova Y.Sh., Nuraliyeva N.B. Важность профилактики заболеваний глаз// Abu Ali Ibn Sino ta’limotidan uchinchi renessans sari» V xalqaro konferensiya Buxoro-2025. 112-113 – бет
11. Usmonova Y.Sh., Nuraliyeva N.B. Maktab o’quvchilarining ko’z kasalliklari xavf omillari bo’yicha bilimdonligini o’rganish // «Современные достижения и перспективы развития охраны здоровья населения» сборник материалов республиканской научно-практической конференции // Ташкент, 2024. С. 232-233

ПРИЧИНЫ И ПРОФИЛАКТИКА БЕСПЛОДИЯ У ЖЕНЩИН И СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ВЕДЕНИЯ БЕРЕМЕННОСТИ

Садуллаев О.К [1]Самандарова Б.С.,
Анварова С. А.,[1]Худайбергенова К.Т.
Ургенчский Государственный Медицинской Институт.
Ильинская О.Н.[2]Соколова Е.А.,[2]Яруллина Д.Р.
Казанский Федеральный Университет.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные причины женского бесплодия, включая гормональные, анатомические, генетические и иммунологические факторы. Описаны методы диагностики нарушений репродуктивной функции и современные подходы к лечению, включая медикаментозную терапию и вспомогательные репродуктивные технологии. Особое внимание уделено мерам профилактики бесплодия, таким как своевременное лечение гинекологических заболеваний и здоровый образ жизни. Во второй части статьи освещаются современные методы ведения беременности, направленные на обеспечение здоровья матери и плода.

Ключевые слова: бесплодие, женское здоровье, репродуктивная система, профилактика, гормональные нарушения, ведение беременности, вспомогательные репродуктивные технологии, диагностика, гинекология, акушерство.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollarda bepushtlikning asosiy sabablari, jumladan, gormonal, anatomik, genetik va immunologik omillar ko‘rib chiqiladi. Reproduktiv funksiyaning buzilishlarini aniqlash usullari va zamonaviy davolash yondashuvlari- dori-darmon terapiyasi hamda yordamchi reproduktiv texnologiyalar haqida ma’lumot beriladi. Bepushtlikning oldini olish choralari, xususan, ginekologik kasalliklarni o‘z vaqtida davolash va sog‘lom turmush tarziga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolaning ikkinchi qismida homiladorlikni yuritishning zamonaviy usullari, onaning va homilaning salomatligini ta’minlashga qaratilgan choralar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bepushtlik, ayollar salomatligi, reproduktiv tizim, profilaktika, gormonal buzilishlar, homiladorlikni boshqarish, yordamchi reproduktiv texnologiyalar, diagnostika, ginekologiya, akusherlik, sun’iy urug‘lantirish (EKO), yordamchi reproduktiv texnologiyalar (YRT).

Abstract: This article examines the main causes of female infertility, including hormonal, anatomical, genetic, and immunological factors. It discusses diagnostic methods for reproductive disorders and modern treatment approaches such as medication and assisted reproductive technologies. Special attention is given to infertility prevention, including timely treatment of gynecological diseases and maintaining a healthy lifestyle. The second part of the article focuses on current methods of pregnancy management aimed at ensuring the health of both mother and fetus.

Keywords: infertility, women’s health, reproductive system, prevention, hormonal disorders, pregnancy management, assisted reproductive technologies, diagnostics, gynecology, obstetrics, in vitro fertilization (IVF), assisted reproductive technologies (ART).

По статистике, во всём мире примерно 15% супружеских пар страдают бесплодием. В Узбекистане этот показатель составляет около 5,7% (около 200 тысяч пар), а в России - от 8 до 19%. Бесплодие является одной из наиболее серьёзных медико - социальных проблем в браке. В связи с необходимостью проведения процедур искусственного оплодотворения, многие супружеские пары были вынуждены обращаться в зарубежные клиники - в Казахстан, Турцию, Россию, Индию, Израиль и другие страны, затрачивая значительные суммы - от 3 до 15 тысяч долларов. Согласно ряду исследований, проведённых в Узбекистане, доля женщин, страдающих первичным бесплодием, среди вступивших в брак составляет от 4,9% до 5,3%. Отсутствие беременности в течение одного года при регулярной половой жизни без

использования средств контрацепции может свидетельствовать о бесплодии, вызванном нарушениями в репродуктивной системе. Диагностика и лечение бесплодия остаются важнейшими задачами современной медицины и требуют системного подхода на государственном уровне[1,4,11,13,17]. Ранее считалось, что причиной бесплодия в браке являются в основном женщины, однако современные данные свидетельствуют об ином. По статистике, в 10 -15% случаев бесплодие связано с обоими партнёрами, а в 30% - исключительно с мужчиной.

Выделяют четыре формы женского бесплодия:

1. Первичное бесплодие — беременность в анамнезе отсутствует.

2. Вторичное бесплодие — беременность в прошлом имелась, но в настоящее время зачатие невозможно.

3. Абсолютное бесплодие — беременность невозможна по анатомическим причинам (отсутствие матки, яичников, маточных труб и т.д.).

4. Относительное бесплодие — связано с мужским фактором.

Основные факторы бесплодия:

1. Патология маточных труб.

2. Нарушения овуляции.

3. Иммунологическое бесплодие.

Кроме того, выделяют:

• Мужской фактор (40% случаев) - включает сексуальные и эякуляторные дисфункции, инфекции половых желез, варикоцеле, а также идиопатические формы нарушений сперматогенеза (олигозооспермия, астенозооспермия, тератозооспермия).

• Женский фактор.

• Сочетанный фактор - когда нарушения присутствуют у обоих супругов.

Среди других причин бесплодия также встречаются системные заболевания, иммунологические нарушения, врождённые и приобретённые аномалии развития половых органов, генетические дефекты и эндокринные расстройства. Для того что бы определить бесплодию у мужчин нам нужно собрать сведение об истории болезни, условиях жизни больного, перенесённых им заболеваниях, возможных инфекций, травм яичек, оперативных вмешательств, а также использование лекарственных препаратов с одним словам сбор анамнеза[2,5,6,9,15]. При сборе анамнеза особый акцент делается на выявление заболеваний передающихся половым путем, а также эякуляторный дисфункции и сексуальной признаков тоже с помощью их мы можем определить причину бесплодия и схему дальнейшее обследования диагностику и лечение. Как упоминалась выше, по статистике бесплодия мужской фактор составляет около 40% а женский примерно 45% Есть множество причин женской бесплодии они могут быть связаны с гормональными нарушениями, эндометриозом , воспалительными процессами и анатомическими аномалиями Дополнительно к вышесказанным причином можно ещё добавить генитальный туберкулез различные системные заболевание и исходы медицинского вмешательства А в отдельных случаях причина бесплодия остаётся неопределённым. Бесплодия у женщин делится на первичное и вторичное в зависимости от момента появления. Первичное бесплодие это когда беременность не наступала с начала половой жизни а вторичной это когда зачатие уже происходило хотя б один раз Вне зависимости от результата . По прогнозу классифицируют на абсолютную и относительную бесплодию. При неправильном развитии, недоразвитии или полном отсутствии органов репродуктивной системы, что может быть причиной бесплодия, прогноз считается абсолютным. Шанс на наступление беременности, сохраняющийся после лечения - медикаментозного или хирургического, - называется относительным прогнозом. И последний фактор это сочетанный который составляет 15%. Благодаря современным медицинским методам диагностики и лечебным технологиям стало возможным точно выявлять

функциональные нарушения репродуктивной системы и подбирать наиболее подходящую тактику лечения для каждой женщины[3,8,10,14,16].

Лечение бесплодия включает:

1. терапию трубно - перитонеального фактора;
2. восстановление овуляции;
3. лечение иммунологического бесплодия (эффективность до 40%);
4. применение вспомогательных репродуктивных технологий (ВРТ) (эффективность до 35%).

Вспомогательные репродуктивные технологии (ВРТ) - это подходы к лечению бесплодия, при которых начальные стадии оплодотворения и эмбрионального развития происходят за пределами женского организма.

К основным видам ВРТ относятся:

- ЭКО (экстракорпоральное оплодотворение), применяемое с 1978 года;
- ИКСИ (интрацитоплазматическая инъекция сперматозоида);
- ПЭ (перенос эмбрионов в полость матки);
- Суррогатное материнство и др.

В Узбекистане ВРТ начали официально применять с 2019 года (ПП №4513 от 08.11.2019 г.).

Цель ВРТ - рождение здорового ребёнка у бесплодных супружеских пар. На сегодняшний день эти технологии становятся всё более востребованными при нарушениях фертильности. Большинство женщин, обращающихся к ЭКО, страдают от тяжёлых нарушений репродуктивной функции. Их организм часто не способен самостоятельно выносить беременность. Именно поэтому от 22 до 44% естественных беременностей заканчиваются неудачей. Уровень самопроизвольных выкидышей зависит от возраста:

- до 35 лет- 10,5%;
- от 35 до 39 лет- 16,1%;
- старше 40 лет- 42,9%.

Также высокий риск связан с причиной бесплодия. Филумен был первым кто, обратил и отметил что одной из причин бесплодия может явиться заражение влагалища и матки, он предлагал хирургический метод лечения данной патологии. Инфекционные патологии у беременных женщин занимают важное место среди причин перинатальной заболеваемости и смертности. Они не всегда напрямую воздействуют на плод, однако могут проникнуть при снижении защитных барьеров организма. К таким инфекциям относится микоплазмоз, уреаплазмоз, хламидиоз которые передаются половым путем и могут быть причиной к женскому бесплодию[4,5,9]. Помимо них значимыми являются гонорея, сифилис, кандидоз, а также нарушение в работе щитовидной железы (ЩЖ). По статистике у женщин с болезнями щитовидной железы у 15-40% случаются сбои в цикле (в норме цикл до и со 21-35 дней, а кровотечение 3-7 дней). При сниженной функции щитовидка (гипотиреозе) возможны задержки менструации от 5 до 30 дней и более. При повышенной активности (гипертиреозе) цикл может укорачиваться до 18-24 дней. Иногда встречается иммунологическая форма бесплодия, когда организм женщины вырабатывает антитела против сперматозоидов, то есть организм женщины сам блокирует сперматозоиды они его разрушают или ж обездвиживании сперматозоида. Заражение плода может происходить через плаценты от матери к плоду этот способ называется транс плацентарным путем (гематогенно), кроме этого есть ещё восходящие пути (из влагалища через шейку матки к плоду) и последний это через околоплодные жидкость, когда инфекция проникает через кожу, дыхательные пути, глаза, уши, пуповину и ЖКТ. Прекращение гестации, то есть беременность вне зависимости от срока может сопровождаться неблагоприятными последствиями и осложнениями, которое сложно трудно предсказать и предотвратить Наиболее распространенными из них считается

воспалительные процессы органов малого таза, нарушениями репродуктивной функции, сбоями менструального цикла, а также развития развитие вторичного бесплодия. Медицинские специалисты обязаны объяснить и информировать женщин, особенно тех кто ещё не имела родов кто ещё ни разу рожала о негативных и неблагоприятных последствиях проведения аборта. Под абортом понимается преднамеренное медицинское вмешательство, направленное на завершение беременности. Согласно действующим клиническом протоколам, процедура осуществляется до 20-й недели гестации либо при массе плода менее 400 гр если срок беременности не известен. Согласно эпидемиологическим данным, выкидыш диагностируется в 15–20% запланированных гестаций. Плод в условиях внутриутробной инфекции может подвергаться различным патологическим воздействиям: гибели, преждевременным родам, формированию врождённых пороков, развитию острых или хронических инфекционных заболеваний, или же не иметь клинически выраженных изменений[7,12,18,19]. Для профилактики женского бесплодия важно с раннего возраста уделять внимание состоянию репродуктивной системы. Одним из ключевых аспектов является контроль гормонального фона, в частности, регулярная оценка функции щитовидной железы и яичников. Таким образом своевременное выявление и лечение инфекций, передающих- ся половым путём, также играют важную роль в сохранении фертильности. Поддержание нормального индекса массы тела способствует оптимальной работе гормональной системы и репродуктивных органов. Следует по возможности избегать абортов, так как они могут привести к воспалительным процессам и нарушению структуры матки. Оптимальным возрастом для зачатия считается период от 20 до 30 лет, когда организм женщины физиологически наиболее готов к вынашиванию. Немаловажными факторами являются снижение уровня стресса, отказ от вредных привычек (таких, как курение, употребление алкоголя и наркотических веществ), а также сбалансированное питание. Кроме того, необходимо регулярно проходить профилактические медицинские осмотры для раннего выявления возможных нарушений.

Использованная литература:

1. Акунц К.Б., Оганесян Н . С.«Акушерство. Ат т е с т а ц и о н н ы е в о п р о с ы д л я а к у ш е р о в-г и н е ко л о гов, семейных врачей, студентов и акушерок». - М .: «Триада-Х », 2002. - 176 с.

2. Под ред. Э.К. Айламазяна, В.И. Кулакова, В.Е. Радзинского, Г.М. Савельевой. Издано в 2009 г.

3. Хадбаатар Р., Флоренсов В. В., Баряева О. Е. Современные принципы управления лечения трубно-перитонеального бесплодия у женщин // БМЖ. 2009. №3.

4. Дуда В.И Акушерство стр 19, 103, 366, 485

5. Дуда, И.В. Руководство по анализу деятельности учреждений охраны материнства и детства / И.В. Дуда, М.В. Мальковец, Р.У. Дэрфлио. - Минск, 1988.

6. Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ)

7. ACOG (Американский колледж акушеров и гинекологов)

Optimizing natural fertility. Committee Opinion No. 781.

8. ESHRE (Европейское общество репродукции человека и эмбриологии). Под редакцией Б.И. ЛукьяноваАкушерство и гинекология. Национальное руководство. Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2021.

9. Национальные клинические рекомендации (Российская Федерация) Диагностика и лечение бесплодия. Минздрав России, 2020.

10.Brown L.,Green K.(2021)."Machine Learning for rug Allergy Prediction". Immunology Advances, 12 (2), 98-110.

11.Doe J., Smith A. (2022). "Artificial Intelligence in Microbiota Analysis and Immune Response Prediction". Journal of Medical Research, 15(3), 123-134.

12.Nuraliev N. A., Sadullaev O. K., Saidov B. O. A method for cultivating bifidobacteria for microbiological diagnosis of intestinal dysbiosis //Rational proposal N. – T. 10.

13. Sadullaev O. K. REGION //ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING IN THE REGION. – 2017. – T. 2. – C. 154.

14. Sokolova E. A. et al. The structure of the incidence of acute intestinal infections in children of the Southern Aral Sea region and bioimmune correction of intestinal microbiocenosis in shigellosis //Kazan medical journal. – 2024. – T. 105. – №. 2. – C. 205-213.

15. Yoldoshevich J. K. et al. Injury And Mortality Due To Car Accidents In The Khorezm Region And The Role Of CVD In Them //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2023. – C. 8183-8187.

16. Дусчанов Б. А. и др. О НОВОМ ШТАММЕ КОРОНАВИРУСА «ОМИКРОН». – 2023.

17. Садуллаев О. К., Исмаилова Х. Г. КАК ВОЗДЕЙСТВУЕТ ПАНДЕМИЯ COVID 19 НА ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА В РАЗЛИЧНЫХ ВОЗРАСТАХ И ЕГО ЛЕЧЕНИЕ //«МИКРОБИОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ. – 2023. – С. 160.

18. Садуллаев О. К., Курбаниязова М. З. ИЗУЧЕНИЕ ПЛАЗМОКОАГУЛИРУЮЩЕЙ СПОСОБНОСТИ МИКРООРГАНИЗМОВ, ВЫДЕЛЕННЫХ ИЗ ФЕКАЛИИ ЗДОРОВЫХ И БОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ ДИАРЕЙНЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ПРОЖИВАЮЩИХ В ЭКОЛОГИЧЕСКИ НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 12-8. – С. 48-50.

19. Садуллаев О. К., Сувонов К. Ж. Турли минтакаларда яшовчи хомиладорлар огиз бушлиги махалий иммунитет омиллар холати Услубий кулланма //Ургенч.-2008.-12 б.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

СОҒЛИҚНИ САҚЛАШДА МЕНЕЖМЕНТ ВА МЕНЕДЖЕР ХИЗМАТИ

Доцент Т.О. Раҳмонов, доцент Ш.Д. Каримбоев, доцент Б.А. Умаров,
PhD катта ўқитувчи К.Р. Мирзарахимова
Альфраганус университети олий таълим ташкилоти
Тиббиёт факультети ички касалликлар кафедраси
Нуралиева У.М.
Тошкент давлат тиббиёт университети
Микробиология, вирусология ва иммунология кафедраси PhD ассистенти

Аннотация

Бошқариш - бу кўзланган мақсадга эришиш қобилияти ва маҳорати демакдир. Бошқаришнинг асосий мақсади жамиятнинг моддий - маънавий эҳтиёжларини тўлиқ қондириш мақсадида ижтимоий муносабатларни ва ишлаб чиқариш тизимини такомиллаштириш ҳамда ривожлантиришдан иборат. Соғлиқни сақлаш тизимини бошқариш ва унга раҳбарлик қилишнинг илмий асосларига соғлиқни сақлашда менежмент ва менеджер хизматига чамбар-част боғликдир.

Калит сўзлар: Менеджмент, соғлиқни сақлаш тизими, бошқарув

Аннотация

Управление – это способность и умение достигать поставленной цели. Главная цель управления – совершенствование и развитие общественных отношений и производственной системы для полного удовлетворения материальных и духовных потребностей общества. Научные основы управления и руководства системой здравоохранения тесно связаны с менеджментом и управленческими услугами в здравоохранении.

Ключевые слова: Менеджмент, система здравоохранения, управление

Annotation

Management is the ability and skill to achieve the set goal. The main goal of management is to improve and develop social relations and the production system to fully satisfy the material and spiritual needs of society. The scientific foundations of management and governance of the health care system are closely related to management and management services in health care.

Key words: Management, health care system, governance

Менежмент фан сифатида, Европа давлатларида ўтган асрда, АҚШда амалга оширилди ва юзага келди, бироқ ҳозирги вақтгача умумий қабул қилинган ва аниқ, тўлиқ таърифга ва хулосага эга бўлмаганчунки ҳар бир олим ҳзини атамаларини талқин қилган. Аммо атаманинг моҳиятини етарли даражада аниқ белгиловчи бир неча таърифлар бор. Америка бошқарув уюшмасининг резиденти Экли менежмент - бу буюмларни бошқариш эмас, балки одамларга таъсир кўрсатишдир, деган эди. Менежмент деганда бошқа одамларнинг ҳатти-ҳаракати, интеллекти меҳнатидан фойдаланган ҳолда олдинга қўйилган мақсадга эриша олиш қобилияти тушунилади. Менежмент - бу мавжуд хом - ашё, моддий, молиявий ва интелектуал ресурслардан ишлаб чиқаришда унумли фойдаланган холда энг юқори самараларга эришишга қаратилган бошқарув санъатидир. Менеджмент - ўз фаолиятини мувоффақиятга эришиши мақсадидаги бошқарув фаолият тури. Менеджер бу бошқарув фаолиятини малакали амалга ошираётган одамлар тоифаси-раҳбардир.

Менеджер ва менеджмент сўзларини бир-бирига айнан мос келади деб айтиш мумкинми? Бир жиҳатдан улар ўхшаш. Аммо икки фарқли томони бор.

Биринчидан, менеджмент кўп ҳолларда бошқарув обеъкти ва субъектини, менеджер деганда эса раҳбар одамни тушунилади.

Иккинчидан, менеджер деганда фақат раҳбар, бошқариш билан шуғулланадиган оддий мухандис, иқтисодчи ёки врачни эмас, балки махсус тайёргарликдан ўтган муҳим касб вакили, профессионал бошқарувчи тушунилади.

Соғлиқни сақлашни бошқариш жараёнига жалб этилган барча шифокорлар, ҳамширалар, доришунослар, бўлим бошлиқлари, соғлиқни сақлаш тизими раҳбарлари ва маъмурлари учун менежментнинг асосий концекпциясини тушуниш, уни қўллаш услуби муҳим аҳамиятга эга. Касалхонага ётқизиш вақтини камайтириш, даволаш қийматини пасайтиришга йўналтирилган тадбирлар ва давлат ажратмаларини камайиши тиббий хизматлар қийматида қарорлар акс этишини тўла англаши лозим бўлган соғлиқни сақлашнинг барча бўғинларини, ундаги барча ходимларни фаол иштирокини талаб этади. Республикада соғлиқни сақлаш тизимининг қайта қуришнинг муҳим томонларидан бири мутахассис раҳбар ходимлар тайёрлаш масаласи ҳисобланади.

Бошқариш - бу ўз қўл остидаги ходимларни муваффақиятларга эришишга раҳбарлик қилиш экан, у аниқ мақсадга эришиш билан бевосита боғлиқ. Шундай қилиб, аниқ мақсад ва унга эришиш йўлидаги муваффақият бошқарув натижаларидан бири ҳисобланади. Муваффақият деганда жамият томонидан тан олинган энг яхши натижаларга эришиш тушунилади. Муваффақият фаолият билан боғлиқ реал мақсадни аниқлаш, уни жамият томонидан тан олиниши, яхши натижага эришиш каби элементларни қамраб олади. Бошқарув жараёни мақсадга эришиш йўлида одатда кўпгина қийинчиликлар, тўсиқлар, муаммоларга дуч келиш мумкин. Соғлиқни сақлашни бошқариш тизимга бу муаммоларни муваффақиятли ҳал этгандагина кутилган натижага эришиш мумкин.

Соғлиқни сақлашда менежмент ишлаб чиқариш жараёнини ўзгартириш, соғлиқни сақлаш аҳволини яхшилаш, натижа/таъсирни келтириб чиқариш кабиларни амалга ошириш учун зарур кўникмаларни яратади. Соғлиқни сақлашни бошқариш ўзига хос қабул қилинаётган қарорларнинг жамият ахамиятга эга эканлиги; уларнинг башорат қилишнинг қийинлиги, чунки улар дархол самара бермаслиги, нотўғри қабул қилинган қарорларнинг оқибатини тўғрилашнинг иложи йўқлиги, қийинлиги каби хусусиятларга эга. Анъанавий даврга мувофиқ, менежмент режалаштириш, ташкил этиш, қизиқтириш, назорат, олинган натижаларни таҳлил қилиш, баҳолаш каби босқичларни ўтади.

Режалаштириш - ўтмишни таҳлил қилиш, ҳозирни тушуниш ва келажакни кўра билишдир, кўзланган натижаларга эришиш учун мавжуд ресурслар ҳозир ва келажакда тўғри ишлатилишининг кафолатидир.

Стратегик режалаштириш - вазифа/мақсадлар ва стратегик йўналишни аниқлаш, ташқи шароитлар, имконият ва таҳдидлар таҳлили, ички кучли ва заиф томонларни баҳолаш, мақсадларни белгилаш, мақсадга эришиш учун стратегияни танлаш, вазифаларни аниқлаш, ҳар бир вазифани ҳал этиш учун зарур тадбирлар билан ишчи дастурларни ишлаб чиқиш, молия режаси/бюджетни тайёрлаш.

Қўллаш - кутилган натижаларга эришиш учун тугатиш зарур бўлган режалаштирилган тадбирлар ва вазифаларни бажариш.

Баҳолаш - Мақсад ва дастур натижаларига эришишда тараққиётни аниқлашдир (кутилган ўзгаришлар/таъсир юз бердими).

Мониторинг - Маълумотларни доимий тўплаш ва таҳлили ҳамда ўрнатилган мезонларга (андозаларга) мувофиқ) дастур тадбирларини мос келиши тушунишдир.

Шундай қилиб, соғлиқни сақлашда менежментни қўллаш қуйидагиларни билдиради:

-соғлиқни сақлаш тизимининг барча даражаларида бошқаришнинг ролини янгича тушуниш (ташкилий мақсадларга эришиш, ўзгарувчи атроф – муҳит шароитларига омслашиш);

- соғлиқни сақлаш тизимида бошқариш назариясининг амалиётда қўллаш масалалари (натижавийлик ва самарадорлик ўртасида тенглик, чекланган ресурслардан самарали фойдаланиш);

-соғлиқни сақлаш тизимида раҳбар ходимлар фаолиятининг тамойиллари ва вазифаларини янгича тушуниш (одамлар билан ишлаш ва одамлар орасида ишлаш).

Ташкилотнинг бошқарув тизими сифатидаги тавсифи

“Ташкилот” тушунчасининг кўплаб таърифлари ичидан қуйидагиларни ажратиш мумкин. Ташкилот бу унинг ёрдамида бошқариладиган ёки бошқарувчи тизим тузилмаси яратиладиган ва сақланадиган жараён сифатида. Ташкилот бу биргаликдаги меҳнат жараёнида ўз ўрнига эга бўлган ўзаро муносабатлар, ҳуқуқ, мажбуриятлар, мақсадлар, роллар, фаолият турлари мажмуаси (тизим) сифатида. Ташкилот бу умумий мақсадга эга бўлган одамлар гуруҳи сифатида.

Бунда ташкилот қуйидаги ўзини ушбу гуруҳнинг қисми деб ҳисобловчи иккитадан кам бўлмаган одамнинг мавжудлиги, камида битта ижтимоий фойдали мақсаднинг мавжудлиги (яъни исталган якуний вазият ёки натижа), барча учун аҳамиятга эга бўлган мақсадга эришиш учун атайин биргаликда ишлаётган гуруҳ аъзоларининг мавжудлиги каби мажбурий талабларга жавоб бериши лозим. Демак, умумлаштирилган ҳолда ташкилот – бу фаолияти умумий мақсадга ёки мақсадларга эришиш учун онгли равишда мувофиқлаштирилган одамлар гуруҳидир. Барча ташкилотлар бир - биридан турли белгилари (функциялари, усуллари ва бошқариш тамойиллари, операциялар ва иш тартибининг мураккаблиги ва бошқа шу кабилар) бўйича фарқланадилар. Шу билан бирга улар барча ташкилотлар учун умумий бўлган хусусиятга эга.

Ресурслар. Ҳар қандай ташкилотнинг мақсади ўз тактик ва стратегик мақсадларига эришиш учун қўлланиладиган ресурслар миқдори ва ташкилот томонидан уларни ўзгартириш ҳисобланади. Асосий ресурслар – бу одамлар (меҳнат ресурслари), асосий ва айланма маблағлар, технологиялар ва ахборот.

Ташқи ва ички муҳит. Ташкилотнинг энг аҳамиятли хусусиятларидан бири бу унинг ташқи муҳитга боғлиқлиги ҳисобланади. Ҳеч бир ташкилот ташқи муҳитдан ажралган ҳолда амал қилиши мумкин эмас.

Ташкилотнинг мақсадлари. Ташкилотнинг мақсадга эришиш воситасида сифатида қараш керак. Мақсадлар – бу меҳнат жамоаси эришишга интилаётган пировард вазият ёки исталган натижадир. Ташкилот меҳнат жамоасининг барча аъзолари эришишга интилаётган ҳеч бўлмаганда битта умумий мақсадга ҳар доим эгадир. Амалиётда фақат бир мақсадга эга бўлган ташкилотлар кам учрайди. Бир неча бор ўзаро боғлиқ мақсадларга эга ташкилотларни мураккаб ташкилотлар деб аташади. Муҳими, меҳнат жамоаси кўзлаган мақсадлар ҳаққоний ва бажариладиган бўлишдир.

Ташкилот тузилиши – бу бошқариш даражалари ва функционал соҳаларининг мантиқий ўзаро муносабати бўлиб, ташкилот мақсадларига энг самарали эришишга имкон берувчи шаклда қурилган.

Вазифа – бу олдиндан ўрнатилган йўллар билан олдиндан келишилган муддатларда бажарилиши лозим бўлган белгиланган ишлар ёки ишнинг бир қисмидир (операциялар, муолажала). Технологик нуқтаи назардан, вазифалар ишчига эмас, балки лавозимга белгиланади. Ташкилот тузилишига мувофиқ, ҳар бир лавозимга ташкилот мақсадига эришишда зарур улуш сифатида қаралувчи қатор вазифалар белгиланади.

Технология – бу материаллар, ахборотлар ва одамларда ўзгаришаларни амалга ошириш учун зарурмалакавий кўникмалар, ускуналар, инфратузилмалар, воситалар ва мос келувчи билимларни биргаликда қўлланилишидир. Вазифалар ва технология ўзаро чамбарчас боғлиқдир. Вазифани бажариш аниқ технологияни қўллашни кўзда тутади.

Одамлар (меҳнат ресурслари) ташкилот ички муҳитининг бешинчи ва энг аҳамиятли қисмидир. Ташкилотнинг мақсадига одамлар меҳнати орқали эришилади. Бу менежментда барча ички қисмлар ҳеч қачон бир биридан ажралган ҳолда қаралмаслигини билдиради. Келтирилган қисмлардан бирининг ўзгариши маълум даражада барча қолганларига таъсир этади.

Кўриб чиқилган тавсиф ва тушунчалар расмий ташкилотларга таалуқлидир. Шу билан бирга, ҳар бир меҳнат жамоасида ўзаро муносабатларнинг *расмий* тузилмаси билан бир қаторда, жамоа аъзолари ўртасида *норасмий* муносабатлар ҳам мавжуддир. Ташкилот мақсадларига эришиш учун раҳбарият ҳоҳиши бўйича тузилган одамлар гуруҳи *расмий* деб аталади. Уларнинг биринчи функцияси аниқ вазифаларни бажариш ва ташкилот мақсадларига эришиш ҳисобланади. Одамлар ўртасидаги муносабатлар турли хил меъёрий ҳужжатлар: қонунлар, қарорлар, буйруқлар, фармойишлар ва шу кабилар билан тартибга солинади. Маълум мақсадларга эришиш учун доимий ўзаро ҳаракатга киришган табиий равишда ташкил этилган одамлар гуруҳи норасмий гуруҳ (ташкилот) деб тан олинган. Бундай гуруҳ аъзолари ўртасидаги муносабатлар шахсий хайриҳоҳлик асосида шаклланади. Улар умумий қарашлар, мойилликлар ва манфаатлар билан аниқланади ва ҳеч кимда ҳеч нарса билан тартибга солинмайди. Бу ерда жамоа аъзолари рўйхати, мажбуриятларга тавсиялар, келишилган роллар йўқ. Шунинг учун, бошқариш жараёни расмий ташкилотларни тузиш ва уларнинг амал қилишига таалуқли эканлигини, назарда тутиш лозим. Норасмий ёки хуфёна гуруҳлар ҳар бир ташкилотда мавжуд. Улар дўстона муносабатлар ва ташкилий чизмалар билан аниқланмаган муносабатлардан “муттасил” ўсади. Ташкилот учун норасмий гуруҳлар устунлик қилмасликлари муҳимдир

Бошқариш объекти ва субъекти.

Бошқариш жараёни бошқариладиган объект ва субъектнинг (бошқарувчи орган) бўлишини кўзда тутади. Бу ҳар қандай ташкилот ўзида бошқаришнинг иккита тизими: бошқариладиган ва бошқарувчи бирлигини акс эттиради. Иккала ҳолда ҳам бошқариладиган ва бошқарувчи тизимлар ўртасидаги муносабатлар – бу одамларнинг ўзаро муносабатларидир. Шундай қилиб, бошқариш объекти деганда, бошқариш фаолияти йўналтирилган ташкилотнинг муайян тузилишини ёки умуман ташкилотни тушуниш керак. Бошқариш субъекти – бошқариш фаолиятини амалга оширувчи ташкилот ёки шахс. Бошқарувнинг самарадорлиги бошқарув субъекти ва объектининг ўзаро муносабатлари билан белгиланади. Соғлиқни сақлаш тизимида соғлиқни сақлаш вазирлигидан бошлаб, Марказий туман шифохонасигача бўлган бошқарув органлари - бошқарув субъекти ҳисобланади; объекти эса тиббий хизмат кўрсатувчи барча тиббиёт муассасалари ҳисобланади.

Ваколатларни юклаш

Бошқарув фаолиятининг асосий йўналишларидан бири ходимларга турли ваколатларни бўлиб бериш ҳисобланади. Раҳбарлар барча вазифаларни уддалашлари учун муайян ваколатларни уларни ҳақиқатда уддалаши мумкин бўлганларга юклаш зарур.

Ваколатларни самарали юклаш натижалари

Қизиқтириш: Ишонч бу – бу қизиқтиришнинг энг олий шаклларидан бири. Ишонч инсондаги энг яхши хусусиятларни юзага чиқаради. Ходимларга муайян ишни бажаришга ишонч билдириб, сиз уларга фахрланиш ва мукаммаллик ҳислатларини сингдирасиз. Уларга ишонч билдириб, сиз уларнинг ишончини қозонасиз, бунинг учун албатта, муддат керак. Уларнинг мавқеи сиз билан ишонч даражасига кўтарилиши учун, ходимларни мунтазам ўқитиш ва малакасини такомиллаштириш зарур.

Самарали бошқарув: Масъулиятларни қобилиятлироқ ва талантлироқ ходимларга бериш, раҳбар уларнинг кучларини умумийроқ вазифаларни ҳал этиш учун тўплай олишини билдиради, бу натижада ташкилот учун юқорироқ унумдорликка айланади.

Ўсиш/силжиш: Сиз, ходимларингизга кўпроқ ҳокимлик ва масъулиятни бериб, ташкилотингиз ўсишига, яъни тараққий этишига кўмаклашасиз. Ходимнинг ўсиши унинг маҳорати ва қизиқишида намоён бўлади. Шундай ходимлар билан ташкилотлар ва раҳбарларнинг иши унимлироқ бўлади.

Ходимлар орасидаги, бажарувчилар ва маъмурият орасидаги муносабат чизиқли кўринишда бўлиб (иерархик, вертикал), унда хар бир қуйидаги ходим, фақат ўзидан юқоридаги ўзининг бошлиғига бўйсунади; ва функционал кўринишда (горизонтал) бўлиб, у хизмат турларига - терапия, жарроҳлик, ташхислаш ва бошқаларга бўлинади. Ривожланган мамлакатларда Япония, АҚШда марказлашмаган бошқарув тизими кенг тараққий топган бўлиб, бунда бошқарувнинг таркиби асосан 4 қисмдан ташкил топган: Олий раҳбарият (стратегик босқич) - бунга бош врач ва молия - иқтисодиёти ходимлари, ташкилий-услубий ва статистика бўлимлари киради. Улар қарор қабул қилишга маъсул шахслар хисобланади. Ўрта босқичдаги рахбарлар (тактик босқич) - бош врачнинг тиббий ёрдам турлари бўйича ўринбосарлари ва бош хамшира; куйи босқичидаги рахбарлар (оператив босқич) - бўлим мудирлари, бўлимнинг катта хамширалари. Рахбарларнинг энг қуйи босқичини бажарувчилар врачлар, хамширалар ва ҳ.к ташкил этади. Японияда бошқарув тизими марказлашмаган унда ҳар-бир хизматчи ўз-ўзини назорат қилади, у нафақат бажарувчи балки маълум даражада субъект ҳисобланади. Ўзбекистон ҳалқ хўжалиги соҳасида шу жумладан соғлиқни сақлаш тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар соғлиқни сақлаш тизимини ўзгаришга олиб келди, яъни Ўзбекистонда давлат соғлиқни сақлаш муассасалари билан бир қаторда хусусий ва бошқа нодавлат муассасалар фаолият кўрсата бошлади. Бу эса ўз навбатида соғлиқни сақлашни бошқаришни янги шароитга мослаштиришни талаб этади.

Давлат бюджети ҳисобидан таъминланадиган давлат соғлиқни сақлаш тизимига кирувчи даволаш профилактика муассасалари аҳолига бепул тиббий хизмат кўрсатади. Бунда фуқаролар ва тиббиёт ходимлари орасидаги муносабатлар у ёки бу жиҳатдан соғлиқни сақлашни бошқарув органлари томонидан бошқарилади. Соғлиқни сақлашни хусусий ва бошқа тизмларига кирувчи тиббиёт ходимлари ва фуқаролар орасидаги ўзаро муносабат қуйидагича бўлади, яъни бунда хусусий тиббиёт муассасаси тиббий хизмат кўрсатувчи сифатида, фуқаро эса тиббий хизматга эхтиёжманд шахс сифатида ўзаро муносабатларни бевосита ўзлари келишган ҳолда ёки улар ўртасидаги воситачилар суғурта компаниялари орқали амалга оширадилар.

Шундай қилиб, Ўзбекистонда соғлиқни сақлашни ислоҳ қилишнинг асосий вазифаларидан бири соғлиқни сақлаш муассасаларини давлат монополиясидан чиқариш, марказлашмаган бошқарув тизимини ташкил этиш ва демократиялаштириш хисобланади.

Ҳозирги кундаги соғлиқни сақлаш тизимини 2 турда молиялаштириш, яъни маблағ билан таъминлашга ўтишнинг асосий мақсади соғлиқни сақлаш тизимини монополиядан чиқаришдир.

Соғлиқни сақлаш муассасаларици хусусийлаштириш ва пуллик хизмат тизимига ўтиш, мехнаткашларга тиббий ёрдамни танлаш имкониятини берди. Бу эса ўз навбатида демократия тамойилларининг соғлиқни сақлашга кириб келишига асос бўлди.

Соғлиқни сақлаш тизимини монополиядан чиқаришнинг асосий кўринишларидан бири турли мутахасисликлар бўйича врачлар уюшмасини, ассоциациясини ташкил этилаётганлигидир. Соғлиқни сақлашни монополиядан чиқаришга «Соғлиқни сақлашни ислох қилишнинг давлат дастури» (10.11.1998 й.) катта туртки бўлди. Ушбу дастурга кўра давлат ихтиёридаги соғлиқни сақлаш муассасаларини босқичма - босқич хусусийлаштириш, соғлиқни сақлашда хусусий мулкчиликни ривожлантириш уларни рақобатбардош бўлишига эришиш мақсадида ҳокимиятларга, давлат бошқарув органларига янги ташкил бўлган хусусий тиббиёт муассасалари учун бўш биноларни ажратиш, уларни оёққа туриб олиши учун ҳар томонлама кўмаклашиш ва бошқалар.

Шуни алохида таъкидлаш керакки, соғлиқни сақлашни маблағ билан таъминлашнинг 2-модели, марказлашмаган бошқарув тизимини ташкил этиш тиббиёт муассасаларини бошқаришда ўзига хос-хусусиятлар намоён қилади. Бюджетдан молиялаштирилган соғлиқни сақлаш тизими марказлашган бўлиб, у чегараланган ҳуқуққа эга ва кўпроқ бажарувчи ролини ўйнайди. Объект сифатида ёпиқ тизимга эга бўлиб, унинг фаолияти соғлиқни сақлашнинг юқори бошқарув органлари томонидан белгилаб берилади ва кўпроқ унга боғлиқ бўлади. Унинг фаолият даражаси стабил бўлиб, янгиланиш ва такомиллаштириш даражаси бирмунча чегараланган бўлади. Бунда фуқаро - пациент, бошқарув органларининг объекти ҳисобланади. Соғлиқни сақлашнинг нодавлат тизими бу марказлашмаган тизим хисобланиб, бунда фаолиятнинг ҳар бир иштирокчиси фуқаро хизматидан фойдаланувчи ва тиббиёт ходими хизмат кўрсатувчи сифатида бир-бири билан келишган холда, мустақил қарор қабул қилишада. Бунда тиббиёт муассасаларининг асосий фаолияти, мақсади фуқаролар эхтиёжининг ўзгаришини, ортиб боришига қараб, хизмат кўрсатиш бўйича тезда янги талабга мослаша олишдан иборат. Бу эса бозор шароитида муассасанинг тўлақонли яшаши учун ўз фаолиятини динамик ўзгартира олиш ва барча хизматчиларни янги шароитга, талабга тезроқ мослаша олишига боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Б. Маматқулов Жамоат саломатлиги ва соғлиқни сақлашни бошқариш Т:2013. 573б
2. Б.Маматқулов, Д. Қосимова. Соғлиқни сақлаш менежменти ва иқтисодиёти Т: 2015. 238б
3. Оправин А.С. Организация стоматологической помощи населению. А: 2011. 519 с
4. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф., Основы менеджмента М: 2002.
5. Шарифхужаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент Т – 2011.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТИББИЁТ ОЛИЙГОХЛАРИДА МАРКЕТИНГ ХИЗМАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Доцент Т.О. Раҳмонов, доцент Ш.Д. Каримбоев,
PhD катта ўқитувчи К.Р. Мирзарахимова
Альфраганус университети олий таълим ташкилоти
Тиббиёт факультети ички касалликлар кафедраси
Нуралиева У.М.
Тошкент давлат тиббиёт университети
Микробиология, вирусология ва иммунология кафедраси PhD ассистенти

Аннотация

Менежмент - махсус бошқариш фаолияти. Менежмент фанининг мазмуни бошқарув тизими ва бошқарув объекти орасидаги ўзаро муносабат бўлиб, унинг асосий вазифаси бошкарувнинг замонавий усулларини, раҳбарлик санъати сирларини ўрганишдан иборат.

Калит сўзлар: Менеджмент, танлов, тиббий хизмат кўрсатиш

Аннотация

Менеджмент – это особая управленческая деятельность. Содержание науки управления составляет взаимодействие системы управления и объекта управления, а её главная задача – изучение современных методов управления, секретов искусства управления.

Ключевые слова: Управление, отбор, медицинская помощь

Annotation

Management is a specific managerial activity. The science of management focuses on the interaction between the management system and the object of management, and its primary objective is the study of modern management methods and the secrets of the art of management.

Key words: Management, selection, medical care

Бошқарув — танлов, карор қабул қилиш ва унинг бажарилишини назорат этиш жараёнидир. Унинг асосий мақсади бозор муносабатлари шароитида барча бўғинларда ишлай оладиган юқори малакали бошқарувчиларни тайёрлашдан иборат. Менежмент ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий ҳуқуқий, кибернетика ва бошқа фанлар билан алоқадордир. Менежмент даставвал иқтисодий назария фани билан яқиндан боғлиқ. У иқтисодий қонунларни билиб олишга ва уларга мос равишда бошқариш жараёнида иқтисодий усулларни қўллашга, ҳар бир ходимга ва жамоага таъсир кўрсатишга асосланади. Бир қанча иқтисодий фанлар: макроиқтисодиёт, микроиқтисодиёт, статистика, меҳнат иқтисодиёти кабилар ҳам менежмент фани билан чамбарчас боғлиқдир.

Ўзбекистонда менежментнинг назарий асослари ва унинг асосий тамойиллари IV—XV асрлардан Амир Темур даврида шакллана бошлаган. Буюк саркарда «Темур тузуклари» асарида давлат, қўшин ва бошқаларни бошқариш санъати тўғрисида ўз қарашларини баён этиб, изоҳлаб берган. Менежмент фанининг назарий асосини бир неча юз йиллар давомида тўпланган амалий тажриба натижалари ташкил этади, уларни назарий жиҳатдан асослаб турли хил концепциялар, назарий ғоялар, иш принциплари ва услублари ишлаб чиқилган. Аммо алоҳида фан соҳаси сифатида Менежмент IX асрга келиб шакллана бошлади. Бошқариш фанининг асосчиси — америкалик муҳандис ва тадқиқотчи Ф. Тейлор ҳисобланади. Бошқариш тамойилларини Тейлорнинг замондоши француз олими Анри Фай-оль ишлаб чикди. Корхонада амалга оширилаётган барча операцияларни у олти гуруҳ (техника, тижорат, молия, мол-мулк ва шахсларни қўриқлаш, ҳисобкитоб, маъмурий) га

бўлиб, бошқаришни 6-гуруҳга киритади. Менежмент ёки бошқаришнинг объекти корхона фаолияти, унинг субъекти эса бошқариш ишини бажарувчи идоралар ва уларнинг ходимларидир. Менежмент билан махсус тайёргарлик кўрган, бошқаришнинг қонунқоидаларини чуқур биладиган малакали мутахассислар — ёлланма бошқарувчилар — менежерлар шуғулланадилар. Улар аҳолининг алоҳида ижтимоий қатламини ташкил қилади. Менежментнинг юқори (фирма стратегиясини ишлаб чиқиш), ўрта (ишлаб чиқариш, сотиш, нарх белгилаш, меҳнатни ташкил қилиш), қуйи (цех, бўлим доирасида ишни ташкил қилиш, кунлик, ҳафталик, ойлик иш топшириклари бажарилишини бошқариш) бўғинлари бор. Шунга мувофиқ ҳолда менежерлар олий мартабали, ўрта тоифадаги ва қуйи тоифадаги менежерларга бўлинади.

Айрим тадқиқотлар менежментни кишилардан нафли самаралар олиш санъати, деб ҳисоблайдилар. Мукаммал менежментнинг хос белгилари: фаолиятга, изланишга тарафдорлик; оддий тузилма ва кам сонли ходимлар; истеъмолчига яқинлик; унумдорликни таъминлашда инсоннинг ҳал қилувчи ўрни; тадбиркорликни рағбатлантирувчи мустақил идора қилиш ҳуқуқи; асосий фаолият турига бирламчи эътибор; Ҳаммадан кўра яхшироқ таниш бўлган соҳага киришиш; эркинлик ва кучли назоратни биргаликда қўллаш. Фирмаларнинг менежмент тизими умумий менежмент, функционал менежмент, молиявий менежмент, маркетинг иши, ходимлар ишини бошқариш ишлаб чиқариш. Менежмент назарияси ва амалиёти эволюцияси турли хил қарашларда ўз ифодасини топди. Масалан, XX-асрнинг 50—60 йилларида асосий эътибор бошқаришнинг ташкилий тузилишига қаратилган бўлса, 60— 70-йилларда стратегик режалаштиришдан стратегик бошқаришга ўтиш даври бўлди. XX-асрнинг ўрталарига келиб менежмент Ўзбекистонда тез суръатлар билан ривожланди. Услубий, амалий ва ташкилий ишлари республикада менежмент фанининг ривожланишига асос бўлди. XX - аср охири — XXI - аср бошларида , Ўзбекистонда махсус фан сифатида олий ўқув юртларида ўқитила бошланди, менежментга доир тадқиқотлар йўлга қўйилди, дарсликлар ёзилди.

Ўзбекистоннинг соғлиқни сақлаш тизими, соғлиқни сақлашнинг асосий тамойиллари, соғлиқни сақлаш муассасаларининг номенклатураси, соғлиқни сақлашда олиб борилаётган ислоҳотларни эътиборга олган холда соғлиқни сақлаш менежменти, унинг асосий функциялари: ташкилот, режалаштириш, мотивлаштириш ва назорат, соғлиқни сақлашга, тиббиёт олийгохларига раҳбарлик қилиш, ходимларни бошқариш, соғлиқни сақлашда ахборот ва коммуникация, соғлиқни сақлаш иқтисодиёти масалалари котта эътибор бериш керак. Соғлиқни сақлаш тизимида объект сифатида нафақат ташкилотлар ва уларда ишловчи ходимлар, балки уларга мурожат этувчи-мижозлар, беморлар, субъект сифатида эса соғлиқни сақлаш тизимида фаолият кўрсатувчи раҳбарлар ва мижозларга тиббий ёрдам кўрсатувчи тиббиёт ходимлари эканлигини эътиборга олиб коммуникацияда врач этикаси ва деонтологиясига алоҳида котта эътибор берилган. Республикадаги ҳамма тиббиёт олийгохларида соғлиқни сақлаш менежменти билан шуғулланувчи тиббиётда ташкилотчи раҳбарлар, менежерлар ҳам катта тажрибага эга бўлиши шарт .

Бизга маълумки ўтган асрнинг ўрталарида менежмент ер шарининг ривожланган мамлакатларида фан сифатида пайдо бўлган шу билан биргаликда Ўзбекистонда Соғлиқни сақлаш тизимини бошқариш учун етарли билимлар ва кўникмалар берувчи, ушбу соҳанинг бўлажак менежерларини тайёрлаш, амалиётда самарали фаолият олиб бориш мақсадга мувофиқдир. Ўзбекистоннинг ўзига хос хусусиятларидан, менталитети, сиёсий, ижтимоий, иқтисодий шарт шароитлардан келиб чиқиб, шундай соғлиқни сақлаш тизими яратилди. Тиббиёт сохасида ишловчи ва соҳага раҳбарлик қилувчи, соҳанинг юқори ва қуйи поғонасигача фаолият кўрсатувчи тиббиёт ҳодимлари менежмент асосларини чуқур тахлил қила билишлари лозим. Чунки ташкилотда икки киши бўлса (врач, тиббиёт ҳамшираси-мижоз) у ерда замонавий ва сифатли менежмент мавжуд бўлиши керак. Шу сабабли ҳам соғлиқни

сақлаш тизими учун “Соғлиқни сақлаш менежменти” фани тиббиёт олий таълим тизимида, олий маълумотли шифокорларни, юқори малакали соғлиқни сақлаш менежерларини тайёрлашда муҳим ўрин эгаллайди. Менежмент фани, унинг мақсади Ўзбекистон Соғлиқни сақлаш тизимини бошқаришнинг ўзига ҳос ҳусусиятлари, уларда олиб борилаётган ислоҳатлар, эришилган натижалар, анъанавий менежмент функциялари, хокимият, раҳбар, йўл бошчи – лидер ва ходимларни бошқариш ҳамда соғлиқни сақлашда коммуникация масалаларига алоҳида ўрин берилган. Ушбу фан дунёнинг ривожланган мамлакатлари каби республикамиз тиббиёт олий ўқув юртларида ҳам ўзининг тегишли ўрнини эгаллайди ва умумий амалиёт врачлари, етук ташкилотчилар ва соғлиқни сақлаш тизими муассасаларига раҳбарлик қилувчи ва бошқарувчи мутахассисларни тайёрлашда ҳамда соғлиқни сақлашда олиб борилаётган ислоҳотларни амалга оширишда Ўзбекистон Республикаси тиббиёт олийгохларида қўлланилиши мақсадга мувофиқдир.

Юқоридагиларга асосланган холда тиббиётда тиббий фирмаларни ташкил этиш ва менежментнинг ташкилий тузилиши катта ахамиятга эга. Бозор иқтисодиёти шароитида ҳар бир сармоядор киши ўзини бизнесини очиб фаолият кўрсатиш хуқуқига эга бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан кичик ва ўрта бизнеснинг ривожланишига алохида эътибор бериб, жуда катта кредитлар ажратмоқда, бу эса Ўзбекистонда кичик ва ўрта бизнеснинг жадал ривожланишига олиб келади.

Тиббий хизмат кўрсатиш сохасида ҳам кичик ва ўрта бизнес ривожланиб келмоқда. Ҳар бир ташкил этилган тиббий хизмат кўрсатиш фирмаларининг бозор иқтисодиёти шароитида рақобатдошлигининг таминланиши уларнинг қандай ва қаерда ташкил этилиб, ташкилий тузилишининг шакилланганлигига боғлиқдир.

Фирмани ташкил этиш учун авваломбор маълум муқдорда пул, яъни сармоя керак. Буни қуйидагича ҳал қилиш мумкин :

- Ўз маблағини ишлатиш йўли билан
- Шерикчилик йўли билан
- Банк ва бирон-бир ташкилот, бизнес фанларидан қарз олиш йўли билан.

Бизнесмен фирма очиш учун маълум миқдорда устав фондини шакилантиргандан кейин фирманинг низомини тузишга киришади.

Фирманинг низоми – бу фирманинг асосий юридик хужжати хисобланади. Фирманинг низомида асосан, қуйидагиларни ва равшан ифодаланиши керак:

фирманмнг номи ва манзилгохи, эмблемаси, фирманинг ташкил этиш учун сармоясини қўшган хиссадорлигининг аниқ паспорт маълумотлари, хиссадорлар бўлса, лар қўшган сармоя миқдори, фирманинг асосий вазифалари яъни фирма клажакда нима ишлар қилиши кераклиги, қандай холатларда фирмани тарқатиб юбориш мумкинлиги хақидаги сабаблар, бизнесмен ёки хиссадорларнинг имзоси ва мухири. Юқоридагилардан ташқари маълумотлар бўлса ҳаммаси низомда баён тариқасида кўрсатилиши мақсадга мувофиқдир.

Бизнесмен қуйидаги НИЗОМ ва бошқа керакли хужжатларни олиб, уни қуйидаги ташкилотларда қайд қилади. Хокимият, солиқ идораси, ички ишлар бўлими, банк хисоб рақамлари очилади. Бозор иқтисодиёти шароитида, тиббий фирма ва корхоналарнинг ташкилий тизими шу фирманинг доимий ртвожланиб боришига асосий заминлардан бири бўлиб хисобланди. Ишчи ва хизматчиларнинг турли туман ишларни қай даражада бажара олишига қараб тиббий корхоналарнинг қай даражада иқтисослаштирилгани аниқланади. Юқори даражали ихтисослашган тиббий корхоналар хозир Ўзбекистонда тез кўпайиб ва ривожланиб бормоқда. Тиббий хизмат кўрсатиш корхоналари ҳар доим ўз фаолиятини бозорга мослаб ривожлантириб боради.

Демак, хулоссага тўхталадиган бўлсак, бозор иқтисодиёти шароитида фирма ва ташкилотларнинг, корхоналарнинг бошқарув тизими юқоридан белгиланмайди, балки шу тиббий фирмаларнинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиқади. Давлат таълим стандарти, ушбу

ишларни ташкил этишда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари, қарорлари, давлат Қонунлари, соғлиқни сақлаш соҳасига бевосита ва билвосита алоқадор бўлган ҳукумат қарорлари ва дастурлари, Соғлиқни сақлаш вазирлиги буйруқлари ва йўриқномаларига асосланган .

Тиббиёт институтлари магистрант-талабалари, профессор ўқитувчилари, балки соғлиқни сақлаш менежменти билан шуғулланувчи ташкилотчи раҳбарлар, менежерлар ҳам кенг билимларга эгабўлишлари керак.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф., Основы менеджмента М: 2002.
2. Шарифхужаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент Т – 2011.
3.Солиев А.,Усмонов А. Маркетинг, Тадбиркорлик,бизнес, бозоршунослик.Т., Ўқитувчи, 1997 й.
4.Байзақов М.,Аллаёров Я. Маркетинг ва менежмент асослари.Т., Абу Али ибн Сино.2000й.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

“ER MALHAMI” BIOO‘G‘ITLARIDAN FOYDALANISHDA ATROF MUHIT OBYEKTLARINI IFLOSLANISHINI GIGIYENIK BAHOLASH

F.I.Salomova, G.F.Sherkuziyeva
Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. Maqolada “Er Malhami” bioo‘g‘itidan foydalanilganda atrof muhitni ifloslanishiga gigiyenik baho berish natijalari keltirilgan. Urug‘larni qayta ishlash va ekish paytida olingan havo namunalaridagi ifloslanish darajasi mos ravishda 2,1±0,14 mg/m^3 va 1,8±0,15 mg/m^3 ni tashkil etgan. Sug‘orish vaqtida ishchi maydon havosida “Er Malhami” ning konsentratsiyasi 1,5±0,13 mg/m^3 ni tashkil etgan. Ishchi eritmalarni tayyorlash bilan shug‘ullanadigan ishchilarning qo‘l va yuzlaridan olingan surtmalarda sezilarli darajada ifloslanish aniqlangan (bu 100 sm^2 sirt uchun 31,4±0,21 va 10,1±0,25 mg). Ishchilarning burun va halqum shilliq qavatidan olingan surtmalarda preparat 0,35±0,018 mg, og‘iz shilliq qavatida esa 0,21±0,010 mg miqdorida aniqlandi. 10 kun ichida ishlov berilgan dalalardan olingan tuproq namunalarida “Er malhami” 10,7 dan 0,3 g/kg gacha, dala chetidagi tuproq namunalarida esa 0,9 dan 0,11 mg/kg gacha saqlanishi aniqlandi. Sug‘orish ariqlaridagi suvda preparat qo‘llanilgan kunida 4,2 mg/l gacha aniqlangan bo‘lib, 3-chi kunga kelib "Er malhami" eng kam miqdorda (0,1 mg/l) aniqlangan.

Kalit so‘zlar: biologik o‘g‘itlar, o‘simliklarni himoya qilish, atrof-muhitning ifloslanishi, tananing ochiq joylaridan surtmalar.

Гигиеническая оценка загрязнения окружающей среды при использовании биоудобрений «Ер Малхами»

Ф.И.Саломова, Г.Ф.Шеркузиева
Ташкентский государственный медицинский университет

Аннотация. В статье представлены результаты гигиенической оценки загрязнения окружающей среды при использовании биоудобрения «Ер малхами». При обработке семян и их посеве, уровни загрязнений в отобранных пробах воздуха составили 2,1±0,14 мг/м^3 и 1,8±0,15 мг/м^3 соответственно. При поливе в воздухе рабочей зоны концентрация «Ер малхами» составила 1,5±0,13 мг/м^3. Значительная степень загрязнения было обнаружено в смывах рук и лица у рабочих, занятых приготовлением рабочих растворов которая составила 31,4±0,21 и 10,1±0,25 мг на 100 см^2 поверхности. Из отобранных смывов зева и носоглотки у рабочих препарат был обнаружен в количестве 0,35±0,018 мг, а на слизистой полости рта - 0,21± 010 мг. В течение 10 суток в отобранных пробах почвы обработанного поля было обнаружено содержание «Ер малхами» от 10,7 до 0,3 г/кг, а в пробах почвы у края поля от 0,9 до 0,11 мг/кг. В арычной воде в день применения препарата, было обнаружено до 4,2 мг/л. К 3-дню «Ер малхами» определялся в незначительных количествах - 0,1 мг/л.

Ключевые слова: биологические удобрения, защита растений, загрязнение окружающей среды, мазки с открытых участков тела.

Hygienic assessment of environmental pollution when using biofertilizers "Er Malhami"

F.I. Salomova, G.F. Sherkuzieva
Tashkent State Medical University

Annotation. The article presents the results of the hygienic assessment of environmental pollution when using the biofertilizer "Er Malchami". During seed treatment and sowing, the levels of pollution in the collected air samples were 2.1±0.14 mg/m^3 and 1.8±0.15 mg/m^3, respectively. During irrigation, the concentration of "Er Malchami" in the air of the working area was 1.5±0.13 mg/m^3. A significant degree of pollution was found in the hand and face washes of workers engaged

in the preparation of working solutions, which was 31.4±0.21 and 10.1±0.25 mg per 100 cm^2 of surface. Of the collected pharyngeal and nasopharyngeal washes, the drug was found in the amount of 0.35±0.018 mg in workers, and 0.21±0.010 mg on the oral mucosa. Within 10 days, the content of "Er malchami" from 10.7 to 0.3 g/kg was detected in the collected soil samples of the treated field, and from 0.9 to 0.11 mg/kg in the soil samples at the edge of the field. In the irrigation ditch water on the day of application of the preparation, up to 4.2 mg/l was detected. By the 3rd day, "Er malchami" was determined in insignificant quantities - 0.1 mg/l.

Key words: biological fertilizers, plant protection, environmental pollution, smears from open areas of the body.

Tadqiqotning dolzarbligi. So‘nggi yillarda o‘simliklarni turli kasalliklardan himoya qilishning yuqori samarali, inson va atrof-muhit uchun ekologik xavfsiz biologik usullari yaratildi va keng joriy etilmoqda. Shu munosabat bilan zamonaviy sharoitda azotni havodan fiksatsiya ya’ni so‘rib oluvchi mikroorganizmlarga ega bakterial preparatlar katta rol o‘ynaydi, bu mineral azotli o‘g‘itlarga muhim qo‘shimcha bo‘lib, ulardan foydalanishni kamaytirish imkonini beradi [1-2]. Biologik preparatlar kimyoviy elementlarni o‘z ichiga olmaydi — ular o‘simliklarning tuproqdagi ozuqa moddalarini o‘zlashtirishiga yordam beradi. Mineral o‘g‘itlarning eng ko‘p turlariga azotni tutuvchi moddalar kiradi.

“Er Malhami” biologik o‘g‘it sabzavot, texnik va em-xashak ekinlarida qo‘llanilganda samarali bo‘ladi. Preparat sabzavot ekinlarining urug‘lari va ko‘chatlariga ishlov berish uchun ishlatiladi [3-5].

Tadqiqning maqsadi qishloq xo‘jaligida “Er Malhami” bioo‘g‘itidan foydalanganda atrof-muhit obyektlarining ifloslanish darajasini gigiyenik baholash hisoblanadi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot obyekti —preparat bilan ishlovchi ishchilar (suvchilar, entomologlar va agronomlar) tanasining ochiq joylari: qo‘l terisi, yuz, tomoq, burun shilliq qavati va maxsus kiyim, shuningdek, ish maydoni havosidan, atmosfera havosidan, ishlov berilgan tuproqdan va dala chetidan olingan namunalar.

Bioo‘g‘it o‘simliklarning o‘sishini tezlashtirish, hosildorlikni oshirish, sifatini yaxshilash, fitopatogen mikroflorani kamaytirish maqsadida sabzavot, texnik o‘simliklar, kartoshka, mevali daraxtlarning yosh ko‘chatlari ildizlari va ko‘chatlarini ekish oldin ishlov berish uchun qo‘llanishga mo‘ljallangan. Qishloq xo‘jaligi sinovlari “Er malhami”dan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi. Paxta hosildorligining 8-10 foizdan ortiq ortishi qayd etildi. 2 yil davomida Toshkent va Andijon viloyatlarida gigiyenik tadqiqotlar o‘tkazildi.

